

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B.S. MAMATOV, B.I. NURMUXAMEDOVA

IJTIMOIY TA'MINOT

*O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2019

UO‘K 364.3(075)

KBK 65.272

Mas’ul muharrir

iqtisod fanlari doktori, professor N.X.Xaydarov

Taqrizchilar: Sh.Z.Davronov;

i.f.n., dots., O.S.Komolov

**M23 Ijtimoiy ta’minot: O‘quv qo’llanma / B.S. Mamatov,
B.I. Nurmuxamedova; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 208 b.**

“Ijtimoiy ta’minot” nomli o‘quv qo’llanma “Pensiya ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fan dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, unda ijtimoiy ta’minotning mohiyati, zarurligi va ahamiyati, ijtimoiy ta’minot borasidagi davlat siyosati, ijtimoiy ta’minotning huquqiy-me’yoriy asoslari, ijtimoiy ta’minot shakllari, moliyaviy manbalari, pensiya ta’minoti va ijtimoiy nafaqalar, aholiga uuda ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakllari, usullari va ularni moliyalashtirish manbalari hamda xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta’minotni tashkil etishga oid masalalar bayon qilingan. O‘quv qo’llanmaning alohida mavzulari ijtimoiy ta’minot borasidagi tavsiya etilgan xorijiy adabiyotlarning tarjimasi va ijtimoiy ta’minotni tashkil qilishning xorij tajribasi asosida yoritilgan.

O‘quv qo’llanma talabalar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarining pedagog-xodimlari, ijtimoiy ta’minot tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi-mutaxassislar va ijtimoiy ta’minot muammolari bilan qiziquvchi barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K 364.3(075)

KBK 65.272

ISBN 978-9943-13-795-0

© B.S. Mamatov,

B.I. Nurmuxamedova, 2019

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab izchil amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida ulug‘ maqsad – xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish, aholi turmush farovonligini oshirishdek zalvorli maqsad yotibdi.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimiz fuqarolariga munosib yashash va ishslash sharoitlarini yaratish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Inson manfaatlarini ta‘minlashda iqtisodiyotimizning yuksak sur‘atlar bilan barqaror rivojlanishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta‘lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi”¹, – deb ta’kidladilar.

Mustaqil taraqqiyotning har bir bosqichida aholining ehtiyojmand qatlamlari, xususan pensionerlar, nogironlar, yolg‘iz keksalar, kam ta‘minlangan oilalarni aniq yo‘naltirilgan tarzda ijtimoiy muhofaza qilishni ta‘minlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. Bir necha yillardan buyon davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilishi, mablag‘larning asosiy qismi esa

¹ “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasi “Xalq so‘zi” gazetasi. 8-dekabr 2016-yil.


ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat sohalarini yuksaltirish, ehtiyojmand aholi guruhlarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga qaratilgani aholi turmush farovonligini oshirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida ekanligining isbotidir.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga ko‘ra, jamiyatning rivojlanishi markazida faqat oddiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki avvalo inson turishi kerak. Taraqqiyotning pirovard maqsadi va samarasining bosh mezoni – odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularning tabiyi, jamiyatda umume’tirof etilgan qadriyatlarga mos keladigan ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini sifatli qondirish, yanada yuqori turmush darajasiga erishish demakdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo‘nalishi sifatida qabul qilinishi² sohaning davlat ijtimoiy siyosatida dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.



Ijtimoiy himoya davlatimiz hamda jamiyatimiz taraqqiyotining muhim jihatni ekanligi va bu masalaga muntazam e’tibor qaratib kelinayotganligi inson manfaatlarining ustuvor ahamiyatga egaligini so‘zsiz isbotlab turibdi. Ana shunday sharoitda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’milot asoslaridan yaxshi xabardor, bu sohadagi islohotlar yuzasidan amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, yuksak intellektual salohiyatlari, axloqiy va insonparvarlik fazilatlariga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash nechog‘lik katta ahamiyatga ega ekanini hech kim inkor eta olmaydi.



² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralndagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-soni Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Shu borada bir fikrga alohida urg‘u berib ta’kidlamoqchiman: yoshi ulug‘ insonlar, katta avlod vakillariga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta’midotini yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu maqsadda pensionerlar, yolg‘iz qariya va nogironlarga davlat ko‘magini kuchaytirish bo‘yicha ayni paytda keng qamrovli chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi va ular so‘zsiz amalga oshiriladi. “Nuroniy” va “Mahalla” jamg‘armalarining xodimlar shtatlarini ko‘paytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimiz hayotida ularning o‘rnini va mavqeyini yanada oshirish bo‘yicha qo‘srimcha zarur choralar ko‘riladi”³.

Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida mamlakatimiz iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlar, ijtimoiy sohada, uning tarkibiy qismi bo‘lgan aholining ijtimoiy ta’midotida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu sohalarda muayyan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarurligini talab qilmoqda. Bunday sharoitda nafaqat ijtimoiy ta’midot haqidagi ma’lum nazariy bilimlarga ega bo‘lgan, balki ijtimoiy va pensiya ta’midotining iqtisodiy va moliyaviy asoslarini tushuna oladigan, ijtimoiy ta’midotni samarali tashkil qila oladigan, bu maqsadlardagi moliyaviy resurslardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qila oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash ustuvor ahamiyatga ega. Jamiyatning bu talabini anglagan holda, shuningdek, ta’lim tizimiga yangi avlod darsliklarini yaratish bo‘yicha dasturiy vazifani bajarish maqsadida mualliflar tomonidan “Ijtimoiy ta’mot” nomli o‘quv qo‘llanma yaratildi. Ushbu qo‘llanmaning maqsadi o‘quvchilarda ijtimoiy ta’mot haqidagi yaxlit bilimlar tizimini shakllantirish, ijtimoiy ta’mot kategoriyalarining mazmuni va o‘zaro bog‘liqligini, ijtimoiy

³ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. 12-b.

ta'minot munosabatlarining namoyon bo'lish shakllari va moliyaviy dastaklarining amal qilish xususiyatlarini yoritishdan iborat.

O'quv qo'llanmaning 1-bobida ijtimoiy ta'minotning mohiyati, zarurligi, ijtimoiy ta'minot bo'yicha konsepsiyalar, iqtisodiy ta'limotlar va fanda "Ijtimoiy ta'minot" tushunchasining talqin etilishi, ijtimoiy ta'minotning holatini belgilab beruvchi omillar, ijtimoiy ta'minot xizmatlarining turlari, ijtimoiy ta'minot xizmatlarini moliyalashtirish manbalari, ijtimoiy ta'minotning funksiyalari ifodalangan.

O'quv qo'llanmaning 2-4-boblarida ijtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosati, ijtimoiy ta'minotning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda ijtimoiy ta'minot shakllari to'g'risidagi ma'lumotlari o'quvchilar e'tiboriga yetkazishga harakat qilingan.

5-6-boblarda ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbalari hamda pensiya ta'minoti – ijtimoiy ta'minotning shakli sifatidagi mazmun-mohiyati bayon qilingan.

O'quv qo'llanmaning 7-bobida davlat pensiyalarining turlari, ularni tayinlash uchun talab etiladigan umumiy shartlar, yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiya ta'minotiga oid masalalar, pensiyalarni hisoblash, tayinlash va to'lash tartiblari aks ettirilgan.

Ijtimoiy ta'minot tizimi bo'yicha to'lanadigan nafaqalar va kompensatsion to'lovlar o'quv qo'llanmaning 8-bobida bayon qilingan.

O'quv qo'llanmaning 9-bobida aholiga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari, usullari va moliyalashtirish manbalari yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot asoslari o'quv qo'llanmaning 10-bobida o'z aksini topgan.

Bayon etilgan o'quv materiallarini yanada mukammalroq o'zlashtirish maqsadida qo'llanmaning har bir bobidan so'ng mavzuga taalluqli savollar, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar keltirilgan bo'lib, ularning muntazam bajarib borilishi ijtimoiy ta'minot haqidagi bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

1-BOB: IJTIMOIY TA'MINOTNING MOHIYATI, ZARURLIGI VA AHAMIYATI




Tayanch so‘z va iboralar: *ijtimoiy yordam; ijtimoiy sug‘urta; ijtimoiy siyosat; ijtimoiy ta‘minot; ijtimoiy himoya.*

1.1. Ijtimoiy ta‘minotning mohiyati, zarurligi, ijtimoiy ta‘minot bo‘yicha konsepsiylar, ularning mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo‘lgan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lidan izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda jamiyatning ma‘naviy yangilanishi uchun, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiatiga uyg‘unlashish uchun barcha shartsharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Sh.M.Mirziyoyev	Respublikasi Birlashgan Tashkilotining bleyasida so‘zlagan nutqida: “Bugungi kunda O‘zbekiston	Prezidenti Millatlar 72-Assam- jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faoliyatni ortib bormoqda,
--------------------------------	--	--



barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat vaadolatli jamiyat barpo etishdan iborat”⁴ ekanligini alohida ta’kidladilar. Haqiqatan ham, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari har taraflama qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. Ushbu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlarning barchasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan ijtimoiy ta’minot olish huquqini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Masalan, Konstitutsianing 39-moddasida “Har kim qariganda, mehnatga layoqatini yo‘qtoganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega”, deb belgilab qo‘yilgan.

Ijtimoiy ta’minot doimo davlat va jamiyat hayotida markaziy va hal qiluvchi o‘rinni egallab kelgan. Mamlakatda ya-shaydigan fuqarolarda o‘z hayot faoliyatining ma’lum bosqichlarida va alohida holatlarda ijtimoiy ta’minot tizimi xizmatlariga ehtiyoj yuzaga keladi. Uning holati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, shuningdek, mehnatkashlarning hamda ma’lum sabablarga ko‘ra ishlamaydigan aholi qatlamlarining ijtimoiy ahvoliga bog‘liq.

“Har kim qariganda, mehnatga layoqatini yo‘qtoganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega”

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2014 y., 16-son, 176-modda.

“Ijtimoiy ta’minot” tushunchasining mazmuni, uning holatini belgilab beruvchi omillar bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta’minot tizimining rivojlanishi bilan shakllanib bordi. Iqtisodiy ta’limotlar va fanda “ijtimoiy ta’minot” tushunchasining turlicha talqin etilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, tarixan ancha ilgari yaratilgan rus izohli lug‘atida⁶ ijtimoiy ta’minotga “jamiyat tomonidan u yoki bu shaxsga hayot uchun yetarli bo‘lgan moddiy mablag‘larni taqdim etish” deb ta’rif berilgan, ushbu ta’rifda jamiyat a’zolariga jamiyat tomonidan taqdim etiladigan yordamning turli shakllari ijtimoiy ta’minot hisoblanadi, degan fikr ilgari surilgan. Lekin bunday yordamning shakllari va turlari turli-tuman bo‘lishi, turli toifadagi aholi qatlamlarini qamrab olishi, turli manbalardan mablag‘ bilan ta’minlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida o‘zgarib turishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, fanda ijtimoiy ta’minot tushunchasi mazmunini yoritish bo‘yicha ikkita konsepsiya shakllanganligini ko‘rish mumkin: iqtisodiy va huquqiy.

Iqtisodiy konsepsiya tarafдорлари ijtimoiy ta’minotga jamiyat a’zolari uchun ijtimoiy iste’mol fondlaridan taqdim etiladigan yordamning barcha turlarini (shu jumladan, bepul ta’lim, uy-joy bilan bepul ta’minlash, madaniyat muassasalarini saqlash, pensiya va nafaqalarning barcha turlari, ayrim fuqarolarga ijtimoiy, tibbiy yordam ko‘rsatish va turli imtiyozlar berish) kiritadilar. Bu konsepsiyaning asosini moddiy va moliyaviy ne’matlarni ijtimoiy iste’mol fondlari orqali taqsimlash usuli tashkil etgan.

Huquqiy konsepsiya vakillari ijtimoiy ta’minot jamiyatning barcha a’zolariga emas, balki uning faqat alohida qatlamlariga – davlat tomonidan muhofaza qilinishi lozim bo‘lgan guruhlariga qaratilishi kerakligini e’tirof etganlar. Aholining bunday guruhlariga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida turli toifadagi

⁶ Ожегов С. И. Словарь русского языка. – М.: «Русский язык», 1984. – С. 374, 670.

fuarolar kiritilgan. Xususan, sovet hukumati davrida ijtimoiy ta'minot bilan avval yollarib ishlovchi ishchi-xizmatchilar, keyinroq kolxoz a'zolari, bolalar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar qamrab olingan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini o'rgangan olimlarning izlanishlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, ayrimlar ijtimoiy ta'minot faqat ayrim aholi qatlamlariga qaratilishi kerak, deb da'vo qilsalar, boshqalar ijtimoiy ta'minot barcha aholiga qaratilgan bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydilar va bepul ta'lim hamda bepul tibbiy xizmat va davolash xizmatlarini ham ijtimoiy ta'minot tizimiga kiritadilar. Shuningdek, bir qator olimlar ijtimoiy ta'minot faqat davlat budgetidan moliyalashtirilishi zarurligini ta'kidlasalar, boshqalari ijtimoiy ta'minotning ko'pkanalli moliyalash manbalari shakllanganligini va ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanadigan bir nechta mahkama mavjudligini e'tirof etadilar.

Bu borada A.Vahobov va T.Malikovlarning "Moliya" nomli darsliklarida berilgan ta'rifga to'xtaladigan bo'lsak, ularning fikricha, "iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ... fuqarolarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag'larining ijtimoiy fondlarini shakllantiradigan va ulardan foydalanadigan taqsimlash munosabatlari tizimiga ijtimoiy ta'minot deyiladi. Mana shunday keng ko'lamma, ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirish manbalari va ta'minotni tashkil etishga bog'liq bo'limgan holda jamiyatning barcha a'zolarini tegishli tarzda ta'minlanishini o'z ichiga qamrab oladi"⁷. Ushbu mualliflar ijtimoiy ta'minotning mazmuni borasida iqtisodchilar o'rtasida yagona fikr mavjud emasligini haqli ravishda e'tirof etadilar.

Internet resurs manbalaridagi ma'lumotlarda, masalan jamoat ensiklopediyasida "ijtimoiy ta'minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz

⁷ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "NOSHIR", 2011. 449-b.

bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog‘i hisoblanadi”⁸, deb ta’riflangan.

Ijtimoiy ta’midot tushunchasining talqiniga bo‘lgan qarashlarni inobatga olgan holda, uning u yoki bu yordam turini ijtimoiy ta’midotga tegishli ekanligini belgilab beruvchi asosiy zamонавиу mezонларини (belgilarini) aniqlab olish lozim. Fikrimizcha, bunday belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *moliyalashtirish manbaları:* barcha olimlar va tadqiqotchilarning fikriga qo‘shilgan holda, ijtimoiy ta’midot davlat tomonidan shakllantiriladigan maxsus jamg‘armalar hisobidan amalga oshirilishi lozim. Haqiqatdan ham, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta’mintoni mablag‘ bilan ta’minalash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda: budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, davlat budjeti (respublika budjeti va mahalliy budjetlar), kasaba uyushmalarining mablag‘lari (Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining ijtimoiy sug‘urta budjeti).

2) *ijtimoiy ta’midot bilan qamrab olingan fuqarolar guruhlari:* huquqiy jihatdan “har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’midot olish huquqiga ega”⁹. Fuqarolarning bu huquqlari davlatimiz Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyamizning ushbu huquqlarni belgilab bergen 39-moddasining mazmunidan ham ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy ta’midot fuqarolarning alohida toifalariga: qariyalar, nogironlar, bolalikdan nogironlar, boquvchisini yo‘qotgan fuqarolar, vaqtinchalik

⁸ <https://uz.wikipedia.org/>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda.


mehnat qobiliyatini yo‘qotgan fuqarolar, homilador ayollar, vaqtincha ishsiz maqomi berilgan fuqarolar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga qaratiladi.

Ijtimoiy ta’mnotin turlarining ko‘pligini e’tirof etgan holda, har bir turining asosiy maqsadi – fuqarolarning alohida toifalarining ijtimoiy ahvolini jamiyatning boshqa a’zolarining holatiga yaqinlashtirish, ular orasidagi ijtimoiy farqlarni kamaytirish, yuqori moddiy xarajatlarni yohud qo‘srimcha jismoniy, ruhiy va ma’naviy harakatlarni talab qiluvchi turli hayotiy hodisalar tufayli yordamga muhtoj bo‘lib qolgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Ijtimoiy ta’mnotinning mazmunini shakllantirishda yana shuni inobatga olish kerakki, ijtimoiy ta’mnotin rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi davlatning ijtimoiy siyosati yo‘nalishlarini aks ettiradi. Ijtimoiy siyosatdagi ustuvorliklarning o‘zgarishi ijtimoiy ta’mnotinning ham usullari va shakllarining o‘zgarishiga olib keladi. Xususan, taraqqiyotning ma’lum davrlarida (70-80-yillarda) ijtimoiy siyosat aholining son jihatdan ko‘payishini rag‘batlantirishga qaratilgan edi, shu sababli bu davrda ijtimoiy ta’mnotin orqali ko‘p bolali onalarga nafaqalar joriy etilgan. Mustaqillik davrida esa bu boradagi ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish, “sog‘lom ona – sog‘lom bola” tamoyilini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash va fuqarolarga munosib yashash va ishslash sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy ta’mnotinning shakl va usullari ham shu maqsadga bo‘ysundirilgan. Bu maqsadlar yo‘lida insonlarning mehnati va sog‘lig‘i muhofaza qilinadi, oilalar, onalar va bolalar, nogironlar va keksa yoshdagи fuqarolar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, ijtimoiy xizmatlar tizimi rivojlantiriladi, davlat pensiyalari, nafaqalar va ijtimoiy himoyaning boshqa kafolatlari o‘rnatalidi.

1.2. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining turlari

Ijtimoiy ta'minot - davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a'zolariga nisbatan tenglashtirishga yo'naltirilgan, davlat budgeti va boshqa maxsus maqsadli jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir.



1.1-rasm. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari turlari¹⁰

Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda bugungi kunda ijtimoiy ta'minot tizimiga quyidagilar kiradi (1.1-rasm):

¹⁰ Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: “Iqtisodiyot”, 2013. 185-b.

- barcha turdag'i pensiyalar;
- ijtimoiy nafaqalar;
- turli kompensatsion to'lovlar;
- fuqarolarning alohida toifalariga tibbiy yordam va davolash xizmatlari;
- fuqarolarning alohida toifalariga imtiyozlar;
- uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;
- nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;
- bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;
- nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish;
- aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish;
- imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;
- uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat budgeti (respublika budgeti va mahalliy budgetlar) hisobidan, boshqa birlari (masalan, aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish) kasaba uyushmalari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini yoritishga bag'ishlangan fikrlarimizni nihoyasiga yetkazib shuni ta'kidlaymizki, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash kabi ijtimoiy yordam turlari, garchi aholining ijtimoiy ahvolini yengillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sirasiga

kirsa-da, ijtimoiy ta'minot tarkibiga kirmaydi, balki davlatning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash chora-tadbirlari qatorida davlat budgeti va boshqa davlat mablag'laridan moliyalashtiriladi.

1.3. Ijtimoiy ta'minotning funksiyalari

Ijtimoiy ta'minot tizimining zarurligi va ahamiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda ijtimoiy ta'minotning quyidagi funksiyalarni bajarishi ko'rsatilgan: *iqtisodiy, siyosiy, demografik, ijtimoiy-reabilitatsion funksiyalar*.


Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy funksiyasi fuqarolarning qiyin hayotiy holatlarda moddiy qo'llab-quvvatlanishida, fuqarolarga mehnat qobiliyatini qayta tiklab olish uchun moddiy yordam berilishi natijasida mehnat unumдорligining oshishi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki berishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotning siyosiy funksiyasi aholining turli ijtimoiy qatlamlari ijtimoiy holati darajasini bir-biriga yaqinlashtirish, har bir insonga munosib hayot kechirish uchun sharoit yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan.

Demografik funksiyasi mamlakat aholisining son jihatdan o'sishini rag'batlantirish, sog'lom avlodni yetishtirish, fuqarolarning umr ko'rish davomiyligini oshirish kabilarga qaratilgan.

Ijtimoiy ta'minotning ijtimoiy-reabilitatsion funksiyasi keksa va mehnat qobiliyati bo'limgan fuqarolarning o'ziga xos spetsifik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, ularning huquqiy maqomini saqlash va sog'lig'ini muhofaza qilish uchun qulay sharoitlarni yaratishda namoyon bo'ladi. Amalda bu funksianing namoyon bo'lishini fuqarolarning ayrim toifalarini qariyalar uylarida saqlash, boshqa bir toifadagilarni ortopediya-protezlash vositalari bilan

ta'minlash, uchinchilariga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'rish mumkin.



1.2-rasm. Ijtimoiy ta'minotning funksiyalari

Shuningdek, ijtimoiy ta'minot yana bir, juda muhim funksiya – *ijtimoiy himoyalash funksiyasini* bajaradi. Jamiyat, o'z fuqarolariga ijtimoiy ta'minotni taqdim etar ekan, birinchi navbatda o'z oldiga ularni ijtimoiy himoya qilishdek o'ta muhim vazifani qo'yadi, zero qiyin hayotiy holatlarda ularni himoyalash, turli (moddiy, jismoniy, ruhiy, yosh bilan, oilaviy vaziyat bilan bog'liq) muammolarni hal qilishda yordam berish ijtimoiy ta'minotning zarurligi va ahamiyatini belgilab beradi.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta'minotning mohiyati va zarurligi nimada?
2. Ijtimoiy ta'minot bo'yicha konsepsiyalarning mazmuni.
3. Ijtimoiy ta'minotning holatini belgilab beruvchi omillar nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining turlarini aytib bering.
5. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarini moliyalashtirish manbalari qanday belgilariga ko'ra guruhlangan?
6. Ijtimoiy ta'minot qanday funksiyalarni bajaradi?

2-BOB: IJTIMOIY TA'MINOT BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI



Tayanch so‘z va iboralar: *ijtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosati; ijtimoiy ta'minot huquqi; keksalar; jamiyatning ko'magiga ehtiyojmandlar; imtiyozlar; kompensatsiyalar; pensionerlar; nogironlar; voyaga yetmagan bolalar; mehnatga layoqatsiz aholi; maqsadli dasturlar.*

2.1. Ijtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosati, mazmuni, asosiy vazifalari va yo'nalishlari

Har qanday davlat va jamiyat yuritadigan ijtimoiy siyosat hamda iqtisodiy siyosat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi – ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning turmush farovonligini oshirish ya’ni ijtimoiy siyosatda xizmat qilishdan iboratdir va shu nuqtai nazardan olib qaraganda ushbu ikki siyosat o‘rtasidagi muvozanatni, ularning o‘zaro to‘g‘ri nisbatining belgilanishi jamiyatda ijtimoiyadolat o‘rnatalishining muhim shartlaridan biri bo‘lib sanaladi.

Davlat ijtimoiy siyosati deganda, aholining hayot kechirish darajasini shakllantirish, inson kapitalini qayta yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ularning bir maromda faoliyat yuritishini ta’minalash sohasida davlat tomonidan olib borilayotgan muayyan ichki siyosat yo‘nalishi nazarda tutiladi. Fuqarolarning asosiy Konstitutsiyaviy huquqlari davlat ijtimoiy siyosati orqali ro‘yobga chiqariladi. Bunda davlat turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, moliyalashtirish normativlarini belgilash,

ijtimoiy-iqtisodiy andozalar, qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilish kabi vositalardan keng foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi paytda yangi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan, bozor munosabatlariga siyosiy va ijtimoiy larzalarsiz, bosqichma-bosqich o'tish yo'lidan bormoqda. Bu yo'l - tabiiy, iqtisodiy-moliyaviy, mehnat va boshqa resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish orqali jamiyatni rivojlantirish, samarali iqtisodiyotni yuzaga keltirish, odamlar turmush darajasini taraqqiyotga erishgan mamlakatlardagi ko'rsatkichlarga yaqinlashtirish imkoniyatini beradigan yo'lidir.

Aholini kuchli ijtimoiy himoyalash yuzasidan belgilangan strategik yo'l ijtimoiy siyosatimiz mazmun-mohiyatini belgilab berdi va so'nggi o'n yillikda har bir kirib kelayotgan yangi yilni turli nomlar bilan atalishi hamda ushbu yil nomlariga mos davlat dasturlarining ishlab chiqilishi, ro'yobga chiqarilishi ijtimoiy zaif, yordamga muhtoj qatlamlarni manzilli ijtimoiy himoyalash imkonini berdi.

Respublikamizda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyaning "O'zbek modeli" hamda bozor munosabatlariga o'tish davri talablariga mos keladigan qonunchilik tizimi barpo qilindi. Endilikda bu tizimni zamon o'zgarishlari bilan hamohang ravishda takomillashtirishga qaratilgan tegishli tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimining muhim tarkibiy qismi – ijtimoiy ta'minotdir. Kishilik jamiyatni ko'p asrlik kurashlar natijasida davlat tomonidan ijtimoiy ta'minlanish huquqlarini qo'lga kiritgan va tarixiy taraqqiyotning hamda davlatchilik rivojining har bir bosqichida ijtimoiy ta'minotning shakl va usullari takomillaшиб bormoqda. Ijtimoiy ta'minot orqali jamiyatda yaratilgan ne'matlarning aholining zaif qatlamlari hisobiga qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Ijtimoiy ta'minot orqali mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotgan fuqarolar zarur mablag'lar bilan ta'minlanadi, keksalar, jamiyatning ko'magiga ehtiyojmandlarga ijtimoiy yordam beriladi, fuqarolarning alohida

guruqlariga imtiyozlar, kompensatsiyalar taqdim etiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy ta'minot tizimining markazida pensiya ta'minoti yotadi va u fuqarolarni keksayganda, nogironlikda yoki boquvchisini yo'qtganda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning ijtimoiy ta'minot tizimi ham, boshqa soha va tarmoqlar qatori rivojlanib, takomillashib bordi. Davlat oldida turgan ijtimoiy muammolar va ustuvorliklar ijtimoiy ta'minot tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarining takomillashib borishini taqozo etdi.

Dastlab pensionerlarni, nogironlarni, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini ta'minlash ishlarini maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi bo'lgan, Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadigan O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi amalga oshirib kelgan.

Ijtimoiy ta'minot vazirligi mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy ta'minoti va ularga ijtimoiy yordam berish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va olib borish; keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan ijtimoiy sug'urta mablag'laridan samarali foydalanish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan imtiyozlarni berish ishlarini muvofiqlashtirish; davolash-mehnat ekspertizasini tashkil etish, bu sohada davolash-mehnat ekspert komissiyalariga va ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, nogironlarning tibbiy-ijtimoiy ekspertizasini va ularning mehnat qobiliyatini tiklashni tashkil etish; aholiga protez-ortopediya yordamini tashkil etish; nogironlar va keksalar uchun internat uylardagi, pansionat va sanatoriylardagi fuqarolarga moddiy-maishiy, tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish kabi vazifalarni bajarib kelgan.

Ijtimoiy ta'minot vazirligi o'z faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 30-sentabrdagi 476-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston

Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi to'g'risidagi Nizom asosida olib borgan.

2001-yilga kelib mehnatni rag'batlantirish va manfaatdorlikni oshirish sohasida boshqaruvni tashkil etish darajasini oshirish va takomillashtirish, aholini ish bilan oqilona ta'minlash, ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash, erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni tobora chuqurlashtirish sharoitida ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, shu asosda aholining farovonligi barqaror yuksalib borishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2810-sonli farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 13-fevraldagji 75-sonli Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tashkil etildi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligini hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy bosh boshqarmalarini mablag' bilan ta'minlash manbalari sifatida budjetdan ajratmalar, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari va qonunchilikda nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar belgilandi.

2.2. Mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy ta'minoti va ularga ijtimoiy yordam berish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va olib borish. Keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'limgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom "Fuqarolarning davlat

pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat pensiyasi tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'Imagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga har oylik nafaqalar tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

Nafaqa O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga beriladi. Ushbu Nizom bo'yicha yoshga doir nafaqa, nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari), boquvchisini yo'qtganlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar nafaqa olish huquqi paydo bo'lgandan so'ng biror-bir muddat bilan cheklashsiz, istalgan vaqtda uning tayinlanishi uchun murojaat qilishlari mumkin. Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari (keyingi o'rirlarda Pensiya jamg'armasi bo'limi deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqa ish stajiga ega bo'Imagan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan 7 yildan kam ish staji mavjud bo'lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'Imagan shaxslarga tayinlanadi.

Yoshga doir nafaqa erkaklarga – 65 yoshga yetganlarida, ayollarga - 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi.

Haq to'lanadigan ish bajarayotgan yoki boshqa daromad manbaiga ega bo'lgan (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) shaxslarga yoshga doir nafaqa tayinlanmaydi. Ish stajiga ega bo'Imagan shaxsga yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'Imagan taqdirda tayinlanadi.

Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda o‘tkazilgan tekshirishda ish stajiga ega bo‘limgan va yoshga doir nafaqa so‘rab murojaat etgan shaxsni ta‘minlashga majbur bo‘lgan qarindoshlarining yoki boshqa shaxslarning moddiy nochorligi aniqlangan hollarda yoshga doir nafaqa so‘rab murojaat qilgan shaxsga moddiy yordam bera olmaydigan qarindoshlar yoki boshqa shaxslar bor bo‘lgan taqdirda ham yoshga doir nafaqa tayinlanishi mumkin.

Nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, yoshidan qat’i nazar, ish stajiga ega bo‘limgan I va II guruh nogironlariga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda tayinlanadi va to‘lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo‘qotilganda) Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari yo‘llanmalari bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaro mehnat faoliyatiga layoqatli emas yoki unga mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish mumkin emasligi (yoki zid ekanligi) belgilangan taqdirda TMEK mehnat qobiliyatining doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganligi to‘g‘risida tegishli xulosa chiqaradi. Qabul qilingan xulosa asosida TMEK yetti kun muddatda tibbiy tekshirish dalolatnomasidan ko‘chirmani fuqaroni tekshirishga yuborgan Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga jo‘natadi. Ishlayotgan yoki hayot kechirishning boshqa manbalariga (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) ega bo‘lgan I guruh nogironlarga va II guruh nogironlarga nafaqa tayinlanmaydi. Nogironlik nafaqasi mehnatga layoqat yo‘qotilishining butun davri uchun tayinlanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘limgan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga layoqati bo‘limgan a‘zolari boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. “Fuqarolarning davlat

pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasida aytib o'tilgan shaxslar oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolari jumlasiga kiritiladilar. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a'zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- a) oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga – nafaqaning 100 foizi;
- b) oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga – nafaqaning 75 foizi;
- v) oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga – nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga ushbu Nizomda belgilangan miqdorda bitta umumi nafaqa tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumi miqdori oluvchilarning umumi soniga bo'linadi. Boshqa tumanda (shaharda) yashaydigan oila a'zosi o'ziga nafaqa ulushini tayinlash yoki ajratish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda, murojaat qilganning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi oilaning barcha a'zolariga hujjatlarni rasmiylashtiradigan yoki ushbu oilaning amaldagi hujjatlar yig'majildi turgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli xabarnomani yuboradi. Xabarnomaga ariza va yangidan murojaat qilgan oila a'zosining nafaqa olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinadi. Ushbu holatda nafaqa boquvchisini yo'qotganlik nafaqasidan ulush ajratib berish to'g'risida murojaat qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab tayinlanadi. Yig'majildni rasmiylashtirishda barcha hollarda unga oila har bir a'zosining nafaqaga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan barcha hujjatlar tikib qo'yiladi.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza (keyingi o'rirlarda ariza deb ataladi) ariza beruvchining yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi

bo‘limiga beriladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilingan bo‘lishi kerak:

a) ariza beruvchining yoshini tasdiqlaydigan hujjat (pasport yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi);

b) ish stajiga ega bo‘lмаган shaxsga yoshga doir nafaqa tayinlashda — ariza beruvchining yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organidan berilgan ma’lumotnama, unda ariza beruvchining barcha oila a’zolarining, shu jumladan alohida yashaydigan voyaga yetgan mehnatga layoqatli a’zolari (yoki ularning yo‘qligi), ularning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan yillari, qarindoshlik darajasi, ariza beruvchi oilasi har bir a’zosining turmush kechirish manbalari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak;

v) yoshga doir nafaqa tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo‘lмаган shaxslar uchun yoshga doir nafaqa tayinlashda, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan 7 yildan kam ish stajiga ega bo‘lganda – mehnat daftarchasi;

g) boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi tayinlashda – boquvchining vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma va boquvchisini yo‘qotgan taqdirda nafaqa olish huquqiga ega bo‘lgan oila a’zolarining tug‘ilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar (pasport va/yoki tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma) nusxalari.

Nafaqalarni to‘lash har oyda, Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy to‘lov oyidan kechikmay amalga oshiriladi. Nafaqalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma bo‘yicha to‘lanishi mumkin.

Nafaqa oluvchining doimiy propiska bo‘lmasa va u faqat vaqtincha propiska qilingan bo‘lsa (Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida kelgan joyi bo‘yicha hisobga olingan bo‘lsa), nafaqa vaqtinchalik propiska (Toshkent shahrida va Toshkent viloyatida kelgan joyi bo‘yicha hisobga olish)ning amal qiladigan muddati mobaynida

to‘lanadi. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqaroga yoki fuqaroligi bo‘lмаган shaxsga nafaqa yashash hujjati amal qiladigan muddat davomida to‘lanadi.

Nafaqa oluvchi O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko‘chganda nafaqani to‘lash yangi yashash joyi bo‘yicha tegishli Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan nafaqa oluvchining shaxsiy hujjatlar yig‘majildi olingandan keyin shu tuman (shahar)da davom ettiriladi. Bunday holda nafaqa to‘lash ilgarigi yashash joyi bo‘yicha nafaqa to‘lash to‘xtatilgan vaqt dan boshlab davom ettiriladi. Nafaqa oluvchilarni hisobdan chiqarish va yangi yashash joyida hisobga olish tartibi, shuningdek ularning yig‘ma jildlarini jo‘natish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Nafaqa oluvchi doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqib ketganda nafaqa to‘lash to‘xtatiladi.

Nafaqa to‘lashning to‘xtatilishi yoki qayta tiklanishiga olib keladigan boshqa holatlar (nafaqa tayinlangan shaxslar to‘liq davlat ta‘minotiga o‘tkazilganda yoki “Mehribonlik”, “Saxovat”, “Muruvvat” uylariga va shu kabilarga yuborilganligi yoki undan qaytib kelganligi sababli to‘liq davlat ta‘minotidan chiqarilganda) paydo bo‘lganda nafaqa to‘lash tegishli holatlar paydo bo‘lgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab to‘xtatiladi yoki tiklanadi.

Nafaqa oluvchi ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgan taqdirda tayinlangan nafaqani to‘lash to‘xtatiladi va jazodan ozod etilgandan keyin tiklanadi. Oluvchi tomonidan o‘z vaqtida talab qilinmagan hisoblangan nafaqa summasi uni olish uchun murojaat qilishdan oldingi o‘n ikki oydan ortiq bo‘lмаган muddat uchun bir yo‘la to‘lanadi. Pensiya jamg‘armasi bo‘limining aybi bilan o‘z vaqtida olinmagan nafaqa summasi biror-bir muddat bilan cheklashsiz bir yo‘la to‘lanadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lмаган, nafaqalarning har xil turlarini olish huquqiga ega bo‘lgan qariyalarga va

mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ularning tanlovi bo'yicha nafaqlarning bir turi tayinlanadi. To'lanayotgan nafaqlar miqdorini o'zgartirishga yoki nafaqa to'lash to'xtatilishiga sabab bo'luvchi holatlar paydo bo'lgan taqdirda, nafaqa oluvchi bu haqda o'n kun muddatda unga nafaqa to'laydigan Pensiya jamg'armasi bo'limiga xabar qilishi shart.

I guruh nogironlarga va II guruh nogironlarga, yoshga doir yoki boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlangan nafaqa oluvchilarga, agar ular haq to'lanadigan ishni bajarishi yoki daromadning boshqa manbaiga ega ekanliklari (alimentlar yoki stipendiyalar olish bundan mustasno) aniqlansa, nafaqa to'lash to'xtatiladi.

Nafaqa oluvchiga tegishli bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan to'liq olinmay qolgan nafaqa summasi merosga kiritilmaydi va uning ota-onasiga, eriga (xotiniga), shuningdek nafaqa oluvchi vafot etgan kunda u bilan birga yashayotgan oila a'zolariga to'lanadi. Nafaqa oluvchi vafot etgan oy uchun to'liq olinmay qolgan summa yuqorida ko'rsatib o'tilgan shaxslarga mazkur oyning nafaqa oluvchi vafotigacha bo'lgan kunlari uchun to'lanadi. Bir necha shaxs murojaat qilishganda ularga tegishli summa ular o'rtaida teng taqsimlanadi. Ko'rsatib o'tilgan summa uning uchun nafaqa oluvchi vafotidan keyin 6 oydan kechikmay murojaat qilingan taqdirda to'lanadi.

Nafaqlar: oilaning boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlashda hisobga olinadigan son tarkibi o'zgarganda; qonun hujjatlariga muvofiq nafaqa miqdori o'zgarganda qayta hisoblab chiqiladi. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini tayinlashda oilaning hisobga olinadigan son tarkibi o'zgarganda, tayinlangan nafaqani qayta hisoblab chiqish ushbu holatlar boshlangan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

2.3. Pensiyalar va nafaqalar to‘lashga yo‘naltiriladigan ijtimoiy sug‘urta mablag‘laridan samarali foydalanish. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlarni berish ishlarini muvofiqlashtirish

Respublikada pensiya tizimini isloh qilish 2005-yildan boshlandi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar hisobga olinib, 2004-yilda “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda ikkita: asosiy – birdamlik printsipiga asoslangan davlat hamda 2005-yil 1-yanvardan e’tiboran joriy qilingan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amal qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161сонли “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan maqsadli foydalaniishi ustidan nazoratning kuchaytirilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, tizimda axborot texnologiyalari joriy etilishi, kadrlar sifat tarkibi va salohiyati oshirilishi, normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi hamda moliyaviy barqarorlikning ta’minlanishi fuqarolarimizga zamon talablariga mos pensiya ta’minoti xizmati ko‘rsatilishiga zamin bo‘lmoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari va urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Imtiyozli ravishda tayinlanuvchi pensiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- yoshidan qat’i nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro‘yxati;

- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-sonli ro‘yxati;

- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko‘rsatkichlarning 3-sonli ro‘yxati.

- umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqi;

- umumiy belgilangan pensiya yoshini 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar: erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo‘lganda; ayollar – ish staji kamida 15 yil bo‘lganda ega bo‘ladilar.


Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagি o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslar: erkaklar – 58 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar – 53 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Yoshidan qat’i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar: a) kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo‘lgan xodimlar

– basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo‘lsalar; b) bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko‘mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo‘lsalar; v) uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (yuqorida qayd etib o‘tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko‘ra uchish ishlaridan bo‘shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini – erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo‘lsalar); g) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari; d) sportchilarning ayrim toifalari.

Oxirgi ish joyidan qat’i nazar, quyidagilar belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar: a) yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar: erkaklar – ish stoji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 10 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda; ayollar – ish stoji kamida 15 yil bo‘lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda.

Oxirgi ish joyidan qat’i nazar, quyidagilar belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar: a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar; b) mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar: erkaklar – ish stoji kamida 25 yil bo‘lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda; ayollar –



ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 10 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda.

Ma’lumki, nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog‘lig‘ini yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlovchi TMEK tomonidan aniqlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi. 20 yoshga to‘lgunga qadar umumiylashtirish tufayli ish davrida yoki ishslash to‘xtatilganidan keyin nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiylashtirish tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o‘tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan umumiylashtirish oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘ladi. Marhumning qaramog‘ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag‘ manbaidan mahrum bo‘lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar. Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a’zolari hisoblanadilar: a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to‘lmagan bo‘lsa



yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarining mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo'lmasa; b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar; v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa; g) buva va buvi – agar qonunga muvosiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar. O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek, marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi. Basharti, boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo'lgan bo'lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog'liq bo'lmanan mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadi. Boshqa mamlakatlardan ko'chib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, basharti, boquvchi O'zbekiston



Respublikasida ishlamagan bo‘lsa, pensiyalar quyidagi hollarda tayinlanadi: a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olgan oilalarga – boquvchisingning ish stajidan qat’i nazar; b) pensiya olmagan oilalarga – basharti, boquvchi ishslash to‘xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo‘lgan bo‘lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa – boquvchining ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lмаган boquvchisini yo‘qotgan oila a’zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

2.4. Davolash-mehnat ekspertizasini tashkil etish. Pensiyalar, ularning turlari. Pensiyalar bo‘yicha imtiyozlar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 1994-yil 12-mayda qabul qilingan 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1, 2, 3-sonli ro‘yxat bo‘yicha va urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga egadirlar. Shuningdek, 20 yillik sug‘urtalangan ish stajiga ega ayollar 54 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunining 28-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- a) I guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- b) II guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 125 foizi;

- g) ko‘zi ojizlik bo‘yicha I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- d) I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- e) II guruh yolg‘iz nogironlarga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- j) urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- z) 1941–1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- i) vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohdan o‘tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- k) O‘zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo‘lgan shaxslarga xizmatlariga qarab eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha; l) yoshidan qat’i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lgan artistlarga eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- m) teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san’ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o‘quv muassasalarining professor-o‘qituvchilari va konsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro‘yxatga ko‘ra eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida ustamalar belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 7-iyundagi qaroriga muvofiq, fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan hukumatning ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomda aniqlashtirilishicha, Jamg‘arma boquvchisini yo‘qotganligi tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan

mablag‘larni ham regress da’volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishga haqlidir (ilgari – mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to‘langan mablag‘larni undirib olish mumkin edi). Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, urush nogironlariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga umumbelgilangan yoshni 5 yilga kamaytirgan holda imtiyozli shartlarda pensiya tayinlashda pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan talab etiladigan 5 yillik ish staji “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq aniqlanadi (erkaklar uchun kamida 25 yil; ayollar uchun kamida 20 yil). “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, pensiyalarini to‘lashga xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlarga pensiya to‘lash tartibiga tuzatishlar kiritildi. Endi tashkilotlar pensiyalarini to‘lashga o‘tgan yil uchun Pensiya jamg‘armasining amaldagi xarajatlarini har yili 1-fevralgacha to‘liq qoplaydilar (ilgari tashkilotlar avval eng kam miqdorni, keyin esa farqni qoplardilar).

Ta’kidlash joizki, ish staji yetarli bo‘Imaganada to‘liqsiz pensiya tayinlanadi. Buning uchun ish staji kamida 7 yil bo‘lishi kerak. Ish stajiga ega bo‘Imagan fuqarolar davlat pensiyalarini olish huquqiga ega emaslar. Pensiya miqdorini hisoblab chiqarishda ish stajining oxirgi 10 yili asos qilib olinadi.

Ayni paytda ayrim shaxslar yollanib, kunlik tushum yoki yil oxirida va’da qilingan qishloq xo‘jalik masulotlari – g‘alla yoki meva-sabzavotlar olish uchun ishlab, ertaga pensiyaga chiqishda zarur ish stajiga ega bo‘lmay qoladilar. Kelajakda davlat pensiyasi olish huquqidan mahrum bo‘lib qolmaslik uchun yakka tartibdagi tadbirkor ro‘yxatdan o‘tib faoliyatini boshlagach, davlat soliq idoralariga o‘zi

uchun eng kam ish haqining bir barobari miqdorida har oyning 25-sanasiga qadar sug‘urta badali to‘lab boradi. Yakka tadbirkor 3 kishini yollab ishlatish huquqiga ham ega. Ana shunday taqdirda u yollangan xodim uchun ham eng kam ish haqining 0,5 barobari miqdorida sug‘urta badali to‘lab boradi. Soliq idorasiga sug‘urta badallari to‘langani haqida byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ro‘yxat taqdim etadi va unga asosan jamg‘armada yakka tartibdagi tadbirkorga va uning yollangan xodimiga mehnat daftarchasi ochiladi. Shu vaqtadan boshlab ish staji hisoblanadi.

Dehqon xo‘jaligi boshlig‘i, qoramol yetishtiruvchi har yili 1-oktabrga qadar eng kam ish haqining 4,5 barobari miqdorida sug‘urta badali to‘laydi va bu haqda soliq idorasiga taqdim etgan ma’lumotga ko‘ra pensiya jamg‘armasida mehnat daftarchasi ochilib, ish staji yuritib boriladi.

Misol: 1956-yil 5-yanvarda tug‘ilgan T.Eshmatov 2016-yil 2-martda yoshga doir pensiya tayinlashini so‘rab murojaat qiladi. Pensiya yoshiga yetgan kun bilan pensiyaga haqiqiy murojaat qilgan kun o‘rtasida 3 oy o‘tmaganligi sababli unga 2016-yil 5-yanvardan pensiya tayinlangan bo‘lardi.

2016-yil 27-dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni imzolandi. Qonunning 1-moddasiga muvofiq, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 47- va 65-moddalariga o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan, 47-modda birinchi qismining “a” va “b” bandlaridagi “uch oy” degan so‘zlar “oltinshifun” degan so‘zlar bilan almashirildi. “a” bandiga batafsil izoh beradigan bo‘lsak, umumiy qoidaga ko‘ra, pensiya unga murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi. Biroq qonun pensiyani birmuncha oldinroq muddatdan tayinlashni ham nazarda tutadi. 47-moddaning “a” bandi, fuqaro pensiya yoshiga to‘lgandan keyin uch oy ichida pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etsa, unga

pensiya, pensiya yoshiga yetgan kundan e'tiboran tayinlash ko'zda tutilgan edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yollanma ishchining pensiya jamg'armasida ish staji hisoblanishi uchun u to'laydigan sug'urta badali miqdori eng kam ish haqining 0,5 barobaridan kam bo'lmashligi kerak.

Qonunga o'zgartirish kiritilganligi sababli xuddi shunday holatda fuqaro 2017-yil 1-yanvardan keyin pensiya tayinlashni so'rab murojaat etganda, pensiya ariza bergen kundan e'tiboran tayinlanadi. Misol uchun, 1957-yil 12-yanvarda tug'ilgan T.Eshmatov 2017-yil 25-martda yoshga doir pensiya tayinlashni so'rab murojaat etgan. Unga pensiya ariza bergen kundan boshlab tayinlanadi. Chunki pensiya yoshiga yetgan kun bilan pensiyaga haqiqiy murojaat qilgan kun o'rtasida "60 kun" muddat o'tib ketgan.

2.5. Pensiya miqdoriga ta'sir etuvchi omillar

Avvalo, shuni qayd etish lozimki, pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, pensiyaning tayanch miqdoridan, ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan va ayrim imtiyozli toifaga mansub shaxslar uchun pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi. Pensiyaning tayanch miqdori va ish staji uchun oshirish o'rtacha oylik ish haqidan hisoblanganligi uchun, bu ko'rsatkich pensiya miqdoriga ta'sir qiluvchi asosiy omil, deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuning 31-moddasida o'rtacha oylik ish haqini aniqlashning umumiy tartibi belgilangan bo'lib, pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yildagi (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) ish haqi olinadi.

Pensiyaning hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqi o'tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi

darajasiga keltirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining yakka tartibdag'i koeffitsiyentlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi. Unga ko'ra, ish haqining yakka tartibdag'i koeffitsiyenti – tegishli oy uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining aynan shu oy uchun eng kam oylik ish haqi nisbati sifatida aniqlanadigan miqdordir. Shaxsning IKZ (индивидуальный коэффициент заработка), ishdagi mavjud tanaffuslaridan qat'iy nazar (pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning tanlashiga ko'ra), mehnat faoliyatining oxirgi o'n yili mobaynidagi istalgan ketma-ket oltmish oyidan har bir oyi uchun aniqlanadi, bunda shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqi tegishli oydag'i eng kam oylik ish haqi miqdoriga bo'linadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$IKZ_i = F_{zi} / MZPi, \quad (2.1.)$$

bunda: **IKZ_i** – i oy uchun ish haqining yakka tartibdag'i koeffitsiyenti; **F_{zi}** – i oy uchun ish haqi, so'm; **MZPi** – i oy uchun eng kam oylik ish haqi, so'm.

Ish haqining yakka tartibdag'i koeffitsiyentini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqilgan ish haqi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$PFZi = IKZi \times SMZP, \quad (2.2.)$$

bunda: **PFZ_i** – ish haqining yakka tartibdag'i koeffitsiyentlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqilgan ish haqi; **SMZP** – oldingi 12 oydag'i o'rtacha eng kam oylik ish haqi, so'm.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendor oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga ko'ra, ishga qabul qilish yoki mehnat shartnomasini bekor qilish munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'limgan oylar to'liq

ishlangan kalendar oylar sifatida hisobga olinadi. Pensiya so‘rab murojaat etgan kishi besh yildan kam ishlangan hollarda, pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylar uchun qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo‘lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi, ishdagi mavjud tanaffuslardan qat’i nazar, mehnat faoliyatining oxirgi o‘n yili davomidagi istalgan ketma-ket besh mavsumdagi (pensiya so‘rab murojaat etgan kishining tanlovi bo‘yicha) qayta hisoblangan ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan ortiq bo‘lмаган miqdordagi o‘rtacha oylik ish haqi olinadi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo‘lgan yoki ish haqi to‘g‘risidagi ma'lumotlar umuman mavjud bo‘lмаган hollarda pensiya eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 49-moddasida pensiyalarini qayta hisoblash shartlari bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, pensiyalarini qayta hisoblash:

- pensioner pensiya miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo‘lgan ish stoji va ish haqi to‘g‘risidagi hamda boshqa) qo‘sishmcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;
- nogironlik guruhi o‘zgarganda;
- boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oladigan oila a’zolari soni o‘zgarganda;
- eng kam oylik ish haqi miqdorlari o‘zgargan taqdirda;
- daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo‘lganidan keyin istalgan vaqtida murojaat etishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi qonuning 44-moddasiga binoan, pensiyalarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tayinlaydi. Qonunning 48-moddasiga ko‘ra, pensiya tayinlash to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat tuman (shahar) sudiga berilishi mumkin. Shuningdek, pensiya miqdoridan norozi bo‘lgan fuqarolar yuqori idoralarga ham ariza, shikoyat yoki takliflar bilan murojaat qilishlari mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash Pensiya jamg‘armasi tizimining faoliyatida alohida o‘rin tutadi. Barcha tuman bo‘limlarimizda fuqarolarni qabul qilish uchun alohida xonalar tashkil etilgan. Shuningdek, 150-74-41 raqamli Ishonch telefoni tashkil etilgan bo‘lib, bunda murojaat etuvchilar avtomatik muloqot orqali pensiya yoki nafaqa tayinlash uchun zarur hujjatlar, tayinlash shartlari yoki to‘lov bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ko‘p uchraydigan savollarga javob olishlari yoki operator bilan bog‘lanib taklif yoxud shikoyatlarini bayon qilishlari mumkin. Bundan tashqari, pensionerlarga qo‘srimcha qulaylik yaratish maqsadida mobil telefonlari yordamida SMS so‘rovi orqali pensiya miqdori va muddatini aniqlash imkoniyati yaratildi. Bunda pensiya ishi raqamini 10711 raqamiga SMS tarzida yuborilishi lozim. Ushbu interaktiv xizmat barcha mobil aloqa operatorlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining internetdagи pfuz.uz saytida ham pensiya ta’mnotiga oid barcha yangiliklar yoritib boriladi. Saytga joylashtirilgan pensiya kalkulyatori orqali fuqarolar o‘zlari ham pensiyani hisob-kitob qilib ko‘rishlari mumkin.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosatining mazmuni, vazifalari, yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy ta'minot borasida davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining dastak va vositalarini aytib bering.
3. Respublikamizda pensiya tizimini isloh qilish qachondan boshlandi va qanday bosqichlarda amalga oshirilmoqda?
4. Bugungi kunda qaysi toifadagi insonlar uchun pensiya tayinlashda imtiyozlar mavjud? Qanday holatlarda pensiyaga ustamalar belgilanadi?
5. Inson ishlagan umri davomida har xil miqdorda oylik maoshi oladi. Kelgusida olgan maoshining miqdori pensiyaga qanday ta'sir qiladi? Umuman, pensiya tayinlash uchun o'rtacha maosh qanday hisoblanadi?
6. Qanday holatlarda pensiya miqdori qayta hisoblanishi mumkin?
7. Inson hayotida turli vaziyatlar sodir bo'lishi mumkin. Misol uchun, pensiya yoshiga yetgan insonga noto'g'ri nafaqa hisoblangan. Shu holat aniqlanganda fuqaro qayerga va qanday tartibda murojaat qilishlari kerak?

3-BOB: IJTIMOIY TA'MINOTNING HUQUQIY ASOSLARI



Tayanch so‘z va iboralar: *ijtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosati; ijtimoiy ta'minot huquqi; keksalar; jamiyatning ko'magiga ehtiyojmandlar; imtiyozlar; kompensatsiyalar; pensionerlar; nogironlar; voyaga yetmagan bolalar; mehnatga layoqatsiz aholi; maqsadli dasturlar.*

3.1. Ijtimoiy ta'minot huquqi to‘g‘risida tushuncha, ijtimoiy ta'minot huquqining guruhlanishi

Huquqiy munosabatlar – davlat tomonidan himoya qilinadigan, odatda. Konun normalarining kishilar xatti-harakatlariga ta'siri natijasida yuzaga keladigan va uning qatnashchilarida subyektiv huquqlar, yuridik majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu ta'rif huquqiy munosabatlarga xos bo‘lgan barcha asosiy xususiyatlarni aks ettiradi. Yuqoridaqgi ta'rifdan huquqiy munosabatlarga xos quyidagi xususiyatlarni anglab olish mumkin:

- a) huquqiy munosabat, bu – insonlar faoliyati, xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlardir;
- b) huquqiy munosabat – yuridik va jismoniy shaxslarning subyektiv huquqlari va yuridik majburiyatlarini ro‘yobga chiqarish natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlardir;
- v) huquqiy munosabat – shaxslar o‘rtasidagi irodaviy, ongli munosabatdir;
- g) huquqiy munosabat – davlat tomonidan, qonunlar vositasida muhofaza kilinadigan munosabatlardir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlar turli xususiyatlariiga ko'ra guruhlarga ajratiladi. Ular: davlat-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, moliyaviy-huquqiy va boshqa turlarga bo'linadi.

Ijtimoiy ta'minotga oid munosabatlar ham huquqiy munosabatlarning bir tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot munosabatlari mohiyat jihatdan davlat-huquqiy munosabatlardan iborat bo'lib, bu munosabatlarning yuzaga kelishida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar yetakchi o'rinni egallaydi, ya'ni ana shunday asoslar mavjud emasligi tomonlar erki-xohishidan qat'i nazar ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga monelik qiladi. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar – fuqarolarni pensiyalar, nafaqalar, boshqa ijtimoiy yordamlar bilan ta'minlash yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar hamda tartiblarga muvofiq ravishda, tegishli yuridik faktlar (muayyan hollarda esa – yuridik tarkib) mavjud bo'lganida ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi organlar bilan fuqarolar (ayrim fuqaro, oila) orasida vujudga keluvchi qonunlar bilan tartibga solinadigan hamda davlat tomonidan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardan iboratdir.

Ijtimoiy ta'minot huquqiga oid munosabatlar yuzaga kelishiga zarur yuridik faktlar (yuridik-faktik asos) mavjud bo'lganida ta'minot olishga haqli bo'lgan shaxsning ta'minot olishga qaratilgan irodaviy-ongli harakati, ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi organ tomonidan esa ushbu ta'minotning berilishiga qaratilgan yuridik aktni sodir etilishi sabab bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga asos bo'ladigan yuridik faktlar – yuridik oqibat keltirib chiqarishga layoqatli bo'lgan irodaviy-ongli harakatlar ham, muayyan voqeahodisalar ham bo'lishi mumkin. Bunday yuridik faktlar jumlasiga:

- a) muayyan davr davomida mehnat munosabatida bo'lganlik – mehnat stajiga egalik fakti;
- b) nogiron bo'lib qolganlik fakti;
- g) qaramog'ida bo'lganlik fakti;

- d) mehnatga yaroqsizlik fakti;
- e) kasb kasalligiga chalinganlik yoki ishlab chiqarishda jarohat olganlik fakti va boshqalar kiritilishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlар ijtimoiy jarayon, voqelikning bir ko'rinishi sifatida o'z elementlari – tarkibiy qismlariga ega bo'ladi va bu elementlar quyidagilardan iborat:

7) Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatning obyektlari. "Obyekt" – lotincha so'z bo'lib, mavzu degan ma'noni anglatadi. "Har qanday huquqiy munosabatning zamirida yotgan hayotiy hodisalarni, narsa va jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan muayyan vazifani o'taydi. Shu bois obyektsiz, ya'ni hech narsaga qaratilmagan, hech narsaga ta'sir ko'rsatmaydigan huquqiy munosabat bo'lmaydi"¹¹. Huquqiy munosabat obyektlari moddiy boyliklar, nomulkiy-shaxsiy ne'matlar, muayyan mulkiy yoki nomulkiy huquqlardan iborat bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat obyekti bo'lib pensiyalar, nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordam, turli imtiyozlarga nisbatan fuqarolarda bo'lган huquqlar sanaladi.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat tarkibining ikkinchi muhim elementi – bu munosabatning subyektlari – qatnashchilaridir. Huquqiy munosabatning subyektlari sifatida har doim subyektiv huquqlar, yuridik majburiyatlarga ega bo'lган jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning o'zi (o'z organlari va muassasalari orqali) ishtirok etadi. Shaxs huquq subyekti sifatida huquqiy munosabatlarda qatnasha olishi uning huquq subyekti bo'lish layoqatiga ega ekanligiga bog'liq bo'ladi. Huquq normasi, huquqiy subyektlilik va yuridik fakt huquqiy munosabatlар vujudga kelishining shart-sharoitlari hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotga oid munosabatlarda munosabat subyekti bo'lib quyidagilar qatnashadilar:

1. Fuqarolar (tegishli hollarda chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar);

¹¹ Davlat va huquq nazariyasi. – T.: "Adolat", 2001. 303-b.

2. Yuridik shaxslar (mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish usulidan qat'i nazar);
3. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tadbirkorlar, dehqon xo'jaligining a'zolari;
4. Davlat (o'zining ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi, ijtimoiy ta'minot tizimini boshqaruvchi organlari, muassasalari orqali);
5. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
6. Oila – yaxlit, bir butun holda.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslarning huquq layoqatlari va muomala layoqatlari, vakolatlari, majburiyatları hamda javobgarliklari hajmi fuqarolik qonunlarida, korxonalarining ustav va nizomlarida va boshqa qonunchilik aktlarida belgilab qo'yiladi.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat mazmuni uchinchi elementni tashkil etadi va u munosabat ishtirokchilarining huquqlari hamda subyektiv majburiyatlaridan tashkil topadi.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat mazmuni qonun hujjatlariga ko'ra uning subyektlariga berilgan huquqlar hamda vakolatlar, yuklatilgan majburiyatlarga ko'ra belgilanadi.

Ijtimoiy ta'minot huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquqlari va manfaatlari qonunlarga muvofiq ma'muriy usulda (yuqori turuvchi davlat yoki jamoat organi orqali) yoki sud tartibida himoya qilinishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minotga oid huluqiy munosabatlar maqsadga ko'ra:

- a) huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan;
- b) huquqlarni himoya qilishga qaratilgan;
- v) huquqlarni tan olishga – belgilashga qaratilgan;
- g) prosessual munosabatlar;
- d) javobgarlikka oid munosabatlar.

Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish shakllariga ko'ra esa bu munosabatlarni:

- 1) mehnat staji va uzoq yillik xizmat muddatini belgilashga oid munosabatlar;
- 2) pensiya tayinlash, to‘lash sohasidagi munosabatlar;
- 3) nafaqalar tayinlash va to‘lashga oid munosabatlar;
- 4) fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasidagi munosabatlar;
- 5) yolg‘iz fuqarolarni qariyalar uyi va nogironlar uylariga joylashtirish, u yerda saqlash – ta’minlashga oid munosabatlar;
- 6) aholining muayyan tabaqalariga ijtimoiy imtiyozlar va yengilliklar berish bilan bog‘liq munosabatlar;
- 7) ijtimoiy ta’midot sifatini, ijtimoiy ta’midot berilishida qonunlarga amal qilinishini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar va boshqa munosabatlarga bo‘lish mumkin. Ijtimoiy ta’midotga oid munosabatlarning har bir turini huquqiy tartibga solishga oid xususiyatlar tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilgan.

3.2. Ijtimoiy ta’mnotinning huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolar ijtimoiy ta’mnotinining qonuniy kafolati sifatida

2001-2009-yillar davomida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi mamlakatda aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy ta’midot masalalari bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ sifatida faoliyat qilib keldi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “Fuqarolarning pensiya ta’mnoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4161-sonli Farmoni bilan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta’mnoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta’mnotiga yo‘naltiriladigan

mablag‘lardan maqsadli foydalanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. Fuqarolarning pensiya ta’minoti bilan bog‘liq vakolatlar Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga o‘tishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009–yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1251-sonli Qarori bilan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining vazifalari aniqlashtirildi:

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli ustuvorliklarini hisobga olgan holda mehnat, aholining bandligi va ijtimoiy muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

– mehnat bozorini rivojlantirish va boshqarish, aholining bandligini, shu jumladan xorijda ishslashini ta’minlash, demografik omillar va iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ish bilan ta’minlashning ilg‘or shakllarini joriy etish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish;

– band bo‘lмаган aholi va ishsizlarga, birinchi navbatda yoshlarga, ayollarga, imkoniyatlari cheklangan shaxslarga professional qayta tayyorlash va ish bilan ta’minlash bo‘yicha, shuningdek ishsizlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha sifatli xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish;

– yolg‘iz qariyalar, nogironlar, kam ta’minlangan oilalar va aholining boshqa zaif toifalarini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘yicha amaliy va manzilli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash;

– mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni, mehnat munosabatlari, mehnatni moddiy rag‘batlantirish va muhofaza qilish

mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Ekspertlarning hisoblashlariga ko'ra, jahonda taxminan 650 million nafar odam nogiron, bu esa butun dunyodagi mamlakatlar aholisining umumiy sonining 10 foizga yaqinini tashkil qiladi¹². Ularning 80 foizdan ko'prog'i ishsizlar, vaholanki, 470 millionga yaqini mehnatga layoqtayoshida va oddiy ishlab chiqarish sharoitlarida yoki ixtisoslashgan korxonalarda mehnat qilish imkoniyatiga ega¹³.

Statistik ma'lumotlar tahlilini ko'rsatishicha, O'zbekiston Respublikasida 780 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan odamlar istiqomat qiladi. Ulardan I guruh nogironlari 8,5 foiz, II-guruh nogironlari 71 foiz va III-guruh nogironlari 20,5 foizni tashkil qiladi. Ular orasida 16 yoshgacha bo'lgan bolalar 97 ming nafarni tashkil qiladi. Ishlaydiganlar soni 34 ming nafarga yaqindan iborat (16 yoshdan katta bo'lgan nogironligi bor odamlar umumiy sonining besh foizga yaqini). Shu bilan birga, nogironlikning eng og'ir ko'rinishi bo'lgan odamlar (I-guruh nogironlari) 3,5 foizni, o'rtacha og'irlikdagi hayot faoliyatida buzilish bo'lganlar (II-guruh nogironlari) 55,8 foizni va unchalik katta bo'lmagan buzilishlilar soni (III-guruh nogironlari) 40,7 foizni tashkil qiladi¹⁴. Shu asnoda, nogironligi bo'lgan odamlarni ijtimoiy ta'minlash, ularni ishga joylashtirish, ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Nogironlar sonining ko'payishini oldini olish choralar ichida nogiron bolalar tug'ilishini nazorat qilish chora-tadbirlari alohida o'rin egallaydi. Prezidentimiz bu haqda "Mamlakatimizda nogiron bolalar tug'ilishining oldini olishdek oliyjanob maqsadni amalga oshirishda respublikamizning barcha hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan, nufuzi va samarasini tobora ortib borayotgan skrining markazlarining rolini alohida ta'kidlashni xohlardim. Bugungi kunda ana shunday o'ta muhim

¹² Global nogironlik. Raqamlar va faktlar. Manba: <http://www.un.org>.

¹³ Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). <http://www.un.org>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan odamlarni ishga joylashtirishni ta'minlash muammolari va istiqbollari. Tahliliy tavsiyanoma. 2012. <http://www.undp.uz>.

muammoni yechishda bu markazlar tomonidan 20 mingdan ortiq nuqsonli bola tug‘ilishining oldi olingan”¹⁵, deb ta’kidlagan edilar.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda aholining ijtimoiy ta’mintoni yaxshilash, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ijtimoiy yordamning aniq manzilli bo‘lishini ta’minlash, ijtimoiy ta’minton borasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash kabi o‘ta muhim tadbirlarning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy asoslari yaratilgan va jamiyat oldida turgan ijtimoiy ustuvorliklardan kelib chiqqan holda takomillashtirish bormoqda.

3.3. Ijtimoiy ta’minton huquqiy-me’oriy asoslarini takomillashtirish va mustahkamlash

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy masalalarda qabul qilinayotgan qonunlar davlat ijtimoiy ta’mintoti va aholini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shunday qonunlardan biri “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonundir.

2014-yilning 26-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 18-iyunda qabul qilingan, Senat tomonidan 2014-yil 28-avgustda ma’qullangan “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy sheriklik aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish, aholining bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish, atrof-muhitni, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish,

¹⁵ Prezident I. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i ma’ruzasi. Xalq so‘zi // 06.12.2014.

barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish, onalik va bolalikni, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, sog‘lom oilani shakllantirish kabi ijtimoiy sohalarda amalga oshirilishi belgilandi.

Qonunning 22-moddasida ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish masalalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish:

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari;
- ijtimoiy sheriklik subyektlarining o‘z mablag‘lari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sheriklik sohasidagi tadbirlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbaclar hisobidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Yangi qonunga muvofiq endilikda hozirda mavjud O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi kabi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari tuzilishi mumkin.

Mazkur jamoat fondlari mahalliy budgetdan va Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondidan olinadigan mablag‘larni, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalarini, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘larni jamlaydi. Jamlangan mablag‘lardan nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining faoliyatini, ularning joylardagi ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanimishini tashkil etadi. Ushbu Qonun mamlakatimizda 2015-yil 1-yanvardan

e'tiboran kuchga kirdi. Bu Qonun xalqimizning har doim maslahat bilan kengashib ish ko'rishdek azaliy an'analariga to'liq muvofiqdir.

Shuningdek, "Soliq va budjet siyosatining 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ijtimoiy va pensiya ta'minoti qonunchiligi va amaliyatida birqancha o'zgarishlar qildi. Ushbu Qonun orqali "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Ularda harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xodimlari, sudyalar va prokuratura xodimlarining pensiya ta'minoti bilan bog'liq masalalar, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni to'lash shartlari bajarilmagan hollarda ko'rildigan ma'muriy choralar, shuningdek, soliq sohasidagi qator yangiliklar aks etgan.

Aholi bandligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ta'lim jarayoni va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash borasida ham ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Ish o'rirlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturini amalga oshirish doirasida 2015-yilning birinchi choragida 141 mingdan ortiq yangi ish o'rni, jumladan, qishloq joylarda 88 mingdan ziyod (umumiyligi miqdorning 62,6 foizi) yangi ish o'rni yaratildi.

Yangi tashkil etilgan ish o'rirlarining 28,6 mingdan ziyodi maqsadli dasturlarni amalga oshirish, 27,2 ming ish o'rni tijorat banklari tomonidan kichik korxona va mikrofirmalarni kreditlash, 21,1 ming ish o'rni yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, 35,7 ming ish o'rni kasanachilikni tashkil etish va 28,5 ming ish o'rni fermerlik va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish hisobidan tashkil etildi.

Hisobot davrida aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish, tashxis qo'yish va ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish hamda profilaktika ishlarining kuchaytirilishi natijasida aholining gepatit bilan kasallanishi qariyb 2 barobar,

shamollash kasalliklariga chalinishi 3 barobar, nafas olish organlarining sil bilan kasallanishi 4 foizga kamaydi.

“Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturini amalga oshirish doirasida joriy yilning birinchi choragida barcha manbalar hisobidan qariyb 593 milliard so‘m yo‘naltirildi. Jumladan, 178 nafar yolg‘iz keksalarning uy-joyini ta’mirlash uchun 108,8 million so‘m sarflandi, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya fondi tomonidan “Muruvvat” va “Saxovat” uylarida yashayotgan keksa yoshli kishilar va nogironlarga umumiyligi 57,8 million so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va poyabzal, dori-darmonlar ajratildi.

Sanatoriyy-sog‘lomlashtirish muassasalari va keksa yoshdagagi kishilarga xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida “Turon” (Toshkent shahri), “Havotog” (Jizzax viloyati), “Chimyon” (Farg‘ona viloyati), “Sitorai Mohi Xosa” (Buxoro viloyati), “Kosonsoy” (Namangan viloyati) sanatoriyalari, “Ahmad al-Farg‘oniy” (Farg‘ona viloyati) dam olish uyida umumiyligi 5,1 milliard so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

Joriy yil boshidan buyon 63 ming nafardan ziyod urush va mehnat fronti faxriysi terapiya, nevrologiya, kardiologiya, urologiya, xirurgiya, oftalmologiya, otorinolaringologiya kabi yetti muhim yo‘nalishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Umuman, shu yilning birinchi choragida ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘rtacha ish haqining 17,1 foiz, pensiyalarning 22,1 foizga oshishini ta’minladi.

Mamlakatimizda aholining yordamga ko‘proq muhtoj qatlamlari - bolalar, yolg‘iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlashda ijtimoiy ko‘maklashuv tizimini takomillashtirish aholini ijtimoiy himoyalashning ta’sirchan mexanizmini shakllantirish islohotlarning muhim bosqichilaridan biri etib belgilangan.

Mustaqillikning o‘tgan davri mobaynida respublikamizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi texnologiyalarini yaratish, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish, oilaviy tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratish borasida amalga oshirilgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Darhaqiqat, aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlarining ko‘paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o‘limi 3,1 barobardan ko‘proq, bolalar o‘limi 3,2 barobar kamaygani, fuqarolarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 yoshga yetgani alohida e’tiborga loyiq.

Bundan tashqari, nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasb bo‘yicha reabilitatsiya qilish maqsadida reabilitatsiya markazlari tizimi shakllantirildi hamda ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Har yili 15 ming nafardan ziyod nogironlarga tibbiy-ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya xizmatlari ko‘rsatilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-maydag‘i “2011-2015-yillarda yolg‘iz qariyalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1542-sonli qarori asosida Toshkent shahar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi tomonidan bir qator ishlar olib borildi. 2014-yil ma’lumotlari bo‘yicha yakka-yolg‘iz, o‘zgalar yordamiga muhtoj pensionerlar soni 1119 nafarni tashkil etadi. Bulardan 527 nafari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, har oyda ijtimoy xodimlar tomonidan ularning uylariga 9 turdag‘ mahsulotlar olib beriladi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining ushbu qarori bo‘yicha ham 592 ta yakka-yolg‘izlar ro‘yxatga olingan. Bularga ham tibbiy yordamlar ko‘rsatilmoqda.

Shuningdek, “Mahalla” xayriya jamoat fondi respublika boshqaruvi tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2013-yilda oliy ta‘lim muassasalarida bakalavr bosqichida ta‘lim olayotgan 49 ta nogiron hamda yetim talabalarni ijtimoiy himoyalash uchun 144,3 mln. so‘mlik o‘quv-shartnoma pullari to‘lab berildi.

Hududiy bo‘lim va bo‘linmalar tomonidan 232 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarning nikoh to‘ylari o‘tkazilishiga ko‘maklashildi hamda 204 nafar kam ta‘minlangan oilalarga qoramol olib berildi. Mazkur tadbirlarga 19,7 mln. so‘m fond mablag‘lari sarflandi.

O‘zbekiston Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bergen ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda 17,5 ming nafar keksa, yolg‘iz pensionerlar va nogironlar ijtimoiy ko‘makka muhtoj. Shulardan 5589 nafar pensioner bepul dori-darmon bilan ta‘minlangan. 17,5 ming nafar keksa, yolg‘iz pensioner va nogironlarga 1096,9 mln. so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatilgan.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish xodimlari 16,3 ming keksalar holidan xabar olib turibdi, ulardan 1,2 ming nafari yordamni rad etgan. 4,6 ming nafar keksa zaruriy oziq-ovqatlar to‘plami bilan ta‘minlangan.

Ta‘kidlash joizki, aholini ijtimoiy himoya qilish va bandligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Nogironlar jamiyati, Ko‘zi ojizlar, Karlar jamiyati, singari bir qator nodavlat tashkilotlarning hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi amalga oshirilayotgan ishlar samarasini oshirmoqda.

Erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, yana shuni qayd etish zarurki, ijtimoiy va pensiya ta‘minoti masalalari dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida davlat ahamiyatidagi dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Xalqaro mehnat konferensiyasiga tayyorlangan hisobotda qayd etilishicha, 2050-yilga borib sayyoramiz aholisi 9 milliardga yetadi, yoshi oltmishdan oshganlar soni esa uch baravar ortadi. Keksa kishilarning to‘rtadan uch qismi hozir rivojlanayotgan deb ataluvchi mamlakatlar hissasiga oid bo‘lishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2050-yilga borib 65 yoshdan oshgan har bir kishiga mehnatga layoqatli yoshdagi to‘rt kishi to‘g‘ri keladi, holbuki, 2000-yilda to‘qqiz kishi to‘g‘ri kelgan edi. Bunday holat mehnat bozori, ijtimoiy ta‘minot tizimi, iqtisodiy rivojlanish va bandlik sohasining o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, hukumatlar hamda ish beruvchilar qarib borayotgan aholi qatlami uchun ish o'rnlari yaratish va ularni ijtimoiy himoya bilan ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi zarur.

Prognozlarga qaraganda, O'zbekistonda 2050-yilga borib pensionerlar soni qariyb 3 baravar ko'payadi. O'zbekistonda pensionerlar soni 2030-yilga borib 11,6 foizga, 2050-yilga borib esa 19,4 foizga ko'payadi.

O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75,8 yilni, erkaklarniki esa 71,1 yoshni tashkil qilmoqda¹⁶. 2014-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, respublikada doimiy aholi soni 30 million 702,8 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,7 foizga ko'paydi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisi yiliga o'rtacha 1,5 foizga ko'paymoqda.

O'zbekiston ekspertlarining fikricha, mamlakat pensiya tizimi bugungi kunda aholining 11 foiziga xizmat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 28 foizni, Belarusda 26 foizni, Ukrainada 29 foizni tashkil qilmoqda. MDHning boshqa mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich 12-18 foizni tashkil qilmoqda¹⁷. Mutaxassislarning qayd etishicha, O'zbekiston uchun aholining qarish muammosi boshqa davlatlardagiga qaraganda unchalik jiddiy emas. Lekin bu degani – muammoga e'tiborsiz bo'lishi kerak degani emas, shuni ham inobatga olish zarurki, davlat pensiya tizimiga muqobil ravishda nodavlat va xususiy pensiya tizimilarini rivojlantirish, ularning mamlakat moliya tizimida barqaror faoliyat yuritishiga erishish, ularga bo'lgan aholining ishonchini oshirish kabi vazifalar bugungi kunning dolzARB vazifalari hisoblanadi va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va qabul qilishda ana shu jihatlarni hisobga olish lozim.

¹⁶ O'zbekiston aholisi -2014. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Statistik to'plam. 2014.B.144

¹⁷ vatandosh.com.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta'minotning qonuniy-huquqiy asoslarini nimalar tashkil qiladi?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolar ijtimoiy ta'minotining qonuniy kafolati sifatidagi ahamiyati nimada?
3. Ijtimoiy ta'minotning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish va mustahkamlash yo'nalishlari haqida nimalarni bilasiz?

4-BOB: IJTIMOIY TA'MINOT SHAKLLARI



Tayanch so‘z va iboralar: *pensiylar, ijtimoiy nafaqalar, turli kompensatsion to‘lovlar, fuqarolarning alohida toifalariga tibbiy yordam va davolash xizmatlari, imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta’minalash, uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko’rsatish, nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta’minalash, nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish, sanatoriya-kurort xizmatlari, uyda ijtimoiy xizmat ko’rsatish.*

4.1. Ijtimoiy ta’minotni amalga oshirish shakllari, ularning guruhanishi

Ijtimoiy ta’minot – davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta’minalashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a’zolariga nisbatan tenglashtirishga yo’naltirilgan, davlat budjeti va boshqa maxsus maqsadli jamg‘armalar hisobidan mablag‘ bilan ta’minaladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir.

Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda bugungi kunda ijtimoiy ta’minot tizimiga quyidagilar kiradi: barcha turdagi pensiyalar; ijtimoiy nafaqalar; turli kompensatsion to‘lovlar; fuqarolarning alohida toifalariga tibbiy yordam va davolash xizmatlari; fuqarolarning alohida toifalariga imtiyozlar; uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko’rsatish; nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari

bilan ta'minlash; bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash; nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish; aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish; imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash; uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Bu xizmatlarning ayrimlari budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat budgeti (respublika budgeti va mahalliy budgetlar) hisobidan, boshqa birlari (masalan, aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish) kasaba uyushmalari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Xorijiy davlatlarda ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda hozirgi zamon siyosiy jihatlari inobatga olingan bo'lib, ijtimoiy dasturlarning ko'pqirrali ekanligi bilan xarakterlanadi, xususan, aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nogironlikni muhofazalash, tibbiyot sug'urtasini rivojlantirish, bolalarni va alohida aholi guruhlarini ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olish shular jumlasidandir¹⁸. Ijtimoiy siyosat shuningdek aholining ijtimoiy ta'minotida ishtirok etuvchi tomonlar o'rtaсидаги зиддиатларни, муаммоли vaziyatlarni xal qilishga qaratilgan bo'ladi. Bu esa ijtimoiy ta'minot masalalariga ratsional va siyosiy yondashuvlarni tartiblash, siyosatni tahlil qilish va baholashni talab etadi.

4.2. Pensiylar, ijtimoiy nafaqalar, turli kompensatsion to'lovlar

Ijtimoiy ta'minotning shakllaridan biri – bu fuqarolarning ayrim toifalari va guruhlariga beriladigan ijtimoiy nafaqalar hisoblanadi.

¹⁸ Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA, 2015. – P. 39.

Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hisoblash va to‘lash ishlari tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Shuningdek, nafaqa to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ham turli manbalardan – jamg‘armalardan moliyalashtiriladi.

Nafaqa tegishli davlat mablag‘lari hisobidan obyektiv sabablarga ko‘ra ish haqining yo‘qotilganligi, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy jihatdan ta’minlash maqsadlarida tayinlanadi (4.1-jadval).

4.1-jadval

Fuqarolarning ayrim toifalari va guruhlariga beriladigan ijtimoiy nafaqalarning guruhlanishi, miqdori va moliyalash manbasi

Nafaqa turi	Nafaqa miqdori	Manba
Yoshga doir nafaqalar	“Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari bilan belgilangan miqdorlarda	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Nogironlik bo‘yicha nafaqalar	“Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari bilan belgilangan miqdorlarda	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi	oilaning mehnatga layoqatli bo‘limgan a’zolari soniga ko‘ra, belgilangan nafaqaning 100, 75, 50 foizi miqdorida	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi	Ish stajiga ko‘ra ish haqining 80, 60 foizi miqdorida, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda ish haqining 100, 80, 60 foizi	Byudjet mablag‘lari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z mablag‘lari
Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa	mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha davr uchun - ish haqining 100 foizi	Byudjet mablag‘lari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z mablag‘lari
Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa	eng kam oylik ish haqining ikki baravari	budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari

Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa	bir kunlik ish haqi miqdorida	budgetdan tashqari Pensiya jamg'arması mablag'lari
Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa	eng kam oylik ish haqining to'rt barobari	budgetdan tashqari Pensiya jamg'arması mablag'lari
Ishsizlik bo'yicha nafaqa	oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida (yoki eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida)	Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasining mablag'lari
Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan nafaqa	bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'limgan miqdorda	xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari

Ish haqining yo'qotilishi bilan bog'liq nafaqalarga vaqtinchalik ishga layoqatsizlik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq nafaqalar, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar, ishsizlik va boshqa shu kabi holatlar bo'yicha to'lanadigan nafaqalar kiradi.

Aholining ayrim guruhlarini *ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida tayinlanadigan nafaqalarga* bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa, bola parvarishi bilan band bo'lgan oilalarga nafaqalar, dafn marosimlari uchun to'lanadigan nafaqalar va boshqa to'lovlar kiradi.

Yoshga doir nafaqalar. Yoshga doir nafaqa ish stajiga ega bo'limgan, shuningdek, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan 7 yildan kam ish staji mavjud bo'lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'limgan shaxslarga: erkaklarga – 65 yoshga yetganlarida; ayollarga – 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi¹⁹.

Ish stajiga ega bo'limgan shaxsga yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlari, qarindoshlari yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'limgan taqdirda tayinlanadi. Yoshga doir nafaqalarni to'lash, yetkazib berish va qayta yuborish bo'yicha xarajatlar

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sod qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'limgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom, 5-band.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Nogironlik bo'yicha nafaqalar. Nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'Imagan I-va II- guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda tayinlanadi va to'lanadi²⁰. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo'qotilganda) Pensiya jamg'armasi bo'limlari yo'llanmalari bo'yicha Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaro mehnat faoliyatiga layoqatli emas yoki unga mehnat faoliyati bilan shug'ullanish mumkin emasligi (yoki zid ekanligi) belgilangan taqdirda TMEK mehnat qobiliyatining doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganligi to'g'risida tegishli xulosa chiqaradi. Nogironlik nafaqasi mehnatga layoqat yo'qotilishining butun davri uchun tayinlanadi. Bu nafaqalarni to'lash, yetkazib berish va qayta yuborish bo'yicha xarajatlar ham O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'yicha davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'Imagan shaxsning qaramog'ida bo'lgan oilaning mehnatga layoqatli bo'Imagan a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi²¹. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi vafot etgan shaxsning oila a'zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

– oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga – nafaqaning 100 foizi;

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sun qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'Imagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom, 9-band.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sun qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'Imagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom, 14-band.

- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a’zosiga - nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a’zosiga - nafaqaning 50 foizi.

Bu nafaqalar bo‘yicha xarajatlar ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi. Ushbu nafaqa quyidagi hollarda beriladi:

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda);
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallangan oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a’zo (protez) qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Umumiy qabul qilingan hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa ishlovchi xodimlarga quyidagi miqdorlarda to‘lanadi:

- umumiy ish stoji 8 yil va undan ortiq bo‘lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag‘ir) yetimlarga - ish haqining 80 foizi miqdorida;
- umumiy ish stoji 8 yilgacha bo‘lgan xodimlarga - ish haqining 60 foizi miqdorida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqaning ish haqining 100, 80, 60 foizi miqdorida to‘lanadigan boshqa holatlari ham mavjud bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 1-apreldagi 21-sodan Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan belgilangan. Umuman, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo‘lmasligi lozim. Shuningdek,

vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to'lash bilan bog'liq xarajatlar 2007-yil 1-yanvardan boshlab:

– budjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg'armasiga ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida;

– xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - foyda solig'ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa. Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta'tili sifatida ayollarga tuqquniga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda – 70 kalendar kun) ta'til beriladi. Bu nafaqani tayinlash va to'lash uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi hamda ushbu nafaqa ko'rsatilgan barcha davr uchun to'lanadi. Xodim bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtida unga yana keyingi homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsiyenti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi. Ushbu nafaqa ham, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa kabi, 2007-yil 1-yanvardan boshlab: budjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg'armasiga ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida; xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - foyda solig'ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa. Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan *eng*

kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsiyent qo'llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif muassasalarida, magistratura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o'qish joyidan to'lanadi. Bolaning onasi ishlaymaydigan va o'qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan otasi yoki ota-onasi o'mini bosuvchi shaxslarga to'lanadi. Ishlamaydigan va o'qimaydigan ota-onalarga bola tug'ilganda nafaqa Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Farzandlikka olingen bolalarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi. Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladi.

Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan holda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi. Ushbu nafaqa budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa. Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari: turmush o'rtog'i; 18 yoshga to'limgan yoki vaqtinchaga mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari; ota-onasi; bobosi yoki buvisi vafot etganda beriladi. Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan *eng kam*

oylik ish haqining uch baravari miqdorida berilar edi²². Bugungi kunda pensionerlar va boshqa fuqarolar ham vafot etgan taqdirda ularning oilasiga yoki dafn marosimini o'tkazgan shaxsga *eng kam oylik ish haqining to'rt barobari* miqdorida dafn etish nafaqasi to'lanadi²³. Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi. Dafn etish marosimi uchun nafaqa budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladi.

Ishsizlik bo'yicha nafaqa. Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingen fuqarolarga ishsizlik bo'yicha nafaqa beriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida 16 yoshga to'limgan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori 10,0 foizga oshiriladi. Ish haqiga koeffitsiyentlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsiyentni qo'llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi;
2. Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi.

Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi ilgari ishlamagan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularda

²² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyundagi 174-soni qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ning 89-bandiga ko'ra.

²³ O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidag'i"gi Qonunni. 63-modda.

qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 75,0 foizi miqdorida nafaqa to‘lash kafolatlanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo‘ljallangan ishsizlik bo‘yicha nafaqa uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz fuqarolarga to‘lanadi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- mutaxassisligi bo‘lgan shaxslar uchun, shuningdek, 12 oy mobaynida haq to‘lanadigan ish bilan bandligi 12 kalendar haftadan kam bo‘limgan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o‘rgatish yoki malakasini oshirish talab qilinmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo‘limgan miqdorda;

- boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo‘limgan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 75,0 foizi miqdorida.

- Ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega bo‘limganligi tufayli unga ma’qul keladigan ish tanlash mumkin bo‘lmasa;

- ishsiz shaxsnинг kasb ko‘nikmalariga mos keladigan ish yo‘qligi sababli uning kasbini o‘zgartirish zarur bo‘lsa;

- ishsiz fuqaro avvalgi kasbi bo‘yicha ish bajarish qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa.

Ihsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o‘quv yurtlarida mehnat organlarining yo‘llanmalari bo‘yicha Davlat bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan nafaqa. Nafaqaning bu turi mulkchilik shaklidan va xo‘jalik yuritish usulidan qat‘i nazar, ish beruvchilar korxonada (tashkilotda) mehnat shartnomasi tuzish asosida yollanib mehnat qiluvchi xodimlariga to‘lanadigan qonun hujjatlarida

nazarda tutilgan, bir yo‘la beriladigan nafaqa hisoblanadi. Xodim ishlab chiqarishda yuz bergen baxtsiz hodisa yoki boshqa xil shikastlanish tufayli sog‘lig‘iga zarar yetganda, shuningdek, u kasb kasalligiga chalinish tufayli salomatligi yomonlashganda, ish beruvchi unga bir yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lman miqdorda bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchi uning qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga olti yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘lman miqdorda nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli sog‘lig‘iga zarar yetgan yoki vafot etgan xodim qaramog‘ida bo‘lgan fuqarolarga nafaqa to‘lash shartlari va tartibi, nafaqaning aniq miqdori tegishli qonun hujjatlarida, jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarida, boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalda bo‘lgan ijtimoiy ta’midot tizimida nafaqalarning turlari va to‘lash manbalari turlicha bo‘lishi, ular turli davlat boshqaruvi idoralari orqali amalga oshirilishi, turli manbalardan moliyalashtirilishi bilan tavsiflanadi.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta’midot shakllarini aniqlang va ularning turlicha bo‘lish sabablarini izohlab bering.
2. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsion to‘lovlarning turlari va moliyalashtirish manbalari nimalardan iborat?
3. Uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko‘rsatish qanday tashkil etilgan va qanfay manbalardan mablag‘ bilan ta’minlanadi?
4. Nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta’minlash, bolalar uylari, internatlar va boshqa

muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash qanday tashkil etilgan va qanfay manbalardan mablag‘ bilan ta’minlanadi?

5. Nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish yo‘nalishlari haqida nimalarni bilasiz?

6. Aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko‘rsatish qanday tashkil etilgan va qanfay manbalardan mablag‘ bilan ta’minlanadi?

5-BOB: IJTIMOIY TA'MINOTNING MOLIYAVIY MANBALARI



Tayanch so‘z va iboralar: *ijtimoiy su‘g‘urta; davlat budgeti; budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi; Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi; kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi; ijtimoiy sug‘urta budgeti mablag‘lari.*

5.1. Ijtimoiy ta’mintonning moliyaviy manbalari, ularning guruhlanishi

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ta’minton o‘zining shakllari va turlari xilma-xil bo‘lishi bilan birga, moliyalashtirish manbalarining ham bir nechta ekanligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy ta’minton maqsadlaridagi xizmatlar va to‘lovlar uchun moliyaviy resurslar turli ijtimoiy yo‘nalishdagi jamg‘armalarda mujassamlanadi va davlat boshqaruvining turli idoralari orqali tasarruf etiladi. Ijtimoiy ta’minton xizmatlari va to‘lovlar quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:

- davlat budgeti (respublika budgeti va mahalliy budgetlar);
- budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;
- Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;
- O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug‘urta budgeti mablag‘lari.

Davlat budgeti
(respublika budgeti va mahalliy
budgetlar)

Budgetdan tashqari
Pensiya jamg'armasi

Ijtimoiy ta'minot
xizmatlari va to'lovlar
manbalari

Bandlikka
ko'maklashish davlat
jamg'armasi:

O'zbekiston Kasaba
uyushmalari Federatsiyasi
Kengashining ijtimoiy sug'ur
budgeti mablag'lari

5.1-rasm. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlarini moliyalashtirish manbalari

Davlat budgetidan an'anaviy ravishda ijtimoiy ta'minotning quyidagi shakllari va turlari moliyalashtiriladi:

a) *respublika budgetidan:*

- respublika tasarrufidagi bolalar uylarini saqlab turish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjalarda ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;
- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjalarda belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari va b.

b) *mahalliy budgetlardan:*

– mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish xarajatlari;

– mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xarajatlari;

– shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarining yo‘lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo‘yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini qoplash xarajatlari va b.

Ma‘lumki, ijtimoiy ta’minotning markazida pensiya ta’minoti turadi. Ko‘pchilik davlatlarda pensiya ta’minotini mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida markazlashgan tartibda maxsus fondlar – Pensiya fondlari tuziladi. Ularning asosiy maqsadi shu mamlakat pensiya qonunchiligi bilan belgilangan pensiyalar va boshqa ijtimoiy to‘lovlarini moliyalashtirishdan iborat. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta’minot vazifalarini davlat budgeti bilan birga, budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bajaradi. Bugungi kunda budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan quyidagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to‘lanadi, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar amalga oshiriladi:

– ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash;

– ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash;

– davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo‘lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar berish;

– dafn marosimlari uchun nafaqalar;

– belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

Fuqarolar ijtimoiy ta’minotining ayrim shakllari va turlari *Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi* tomonidan moliyalashtiriladi, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ishsiz deb topilgan shaxslarni kasbiy tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari;
- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash hamda ishsizlarga moddiy yordam berish;
- ishsiz deb topilgan shaxslarga muddatidan ilgari pensiya tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarining o'rnini qoplash;
- nogironlar, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinalarini va ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;
- ish bilan band bo'lmanan aholiga yordam ko'rsatish, shu jumladan ishga joylashtirishga ko'maklashish va maslahat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar;
- aholi bandligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni hamda xalqaro loyihalar va shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;
- chet elga ishga yuborilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ularning ijtimoiy muhofaza qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar va b.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta budgeti quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yagona ijtimoiy to'lovdan yo'naltirilgan ajratmalar hisobiga;
- belgilangan tartibda xodimlarga davolanish va dam olish uchun berilgan yo'llanmalar uchun ulardan olingan mablag'lar hisobiga;

– qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobiga.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mablag‘lari tegishli kasaba uyushmalari organlarining qarorlari bilan tasdiqlanadigan budjet va smetalarida belgilangan maqsadlarga muvofiq xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish uchun quyidagilarga sarflanadi:

– sanatoriy-kurortlarda davolanish, pansionat va dam olish uylariga yo‘llanmalar olishga;

– korxonalar va o‘quv muassasalaridagi sanatoriy-profilaktoriylarda, sanatoriy-profilaktoriylarning ijtimoiy sug‘urta uchun tasdiqlangan smetasiga muvofiq, xodimlar yoki talabalarni sog‘lomlashtirish xarajatlarini qisman qoplashga (xodimlarning mehnatiga haq to‘lashga, davolanuvchilarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko‘rsatishga);

– bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohlarida bolalarning ta’midotida, bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohlarining tasdiqlangan smetalariga muvofiq, hissali ishtirok etishga (xodimlarning mehnatiga haq to‘lashga, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko‘rsatishga);

– kasaba uyushmalari huzuridagi bolalar va o‘smirlar sport maktablari (BO‘SM) xodimlarining mehnatiga haq to‘lash va moliyaviy imkoniyatlari darajasida sport anjomlarini xarid qilish, o‘quv-sport tadbirlarini o‘tkazish uchun qisman mablag‘ ajratishga;

– o‘z sport bazalari bo‘limgan taqdirda, hududiy birlashmalar tomonidan tasdiqlangan BO‘SMning smetasiga muvofiq, istisno tariqasida, binolarni ijaraga olishga;

– ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha tashkiliy-ma’muriy xarajatlarni moliyalashtirishga, kadrlarni tayyorlash, o‘qitish, sog‘lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etuvchi shifokorlar va boshqa kadrlarning ta’motiga;

- O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining tasdiqlangan smetasi, qurilish va rekonstruktsiya qilinadigan obyektlarning manzilli ro‘yxatiga muvofiq kasaba uyushmalari sog‘lomlashtirish muassasalari va BO‘SM sport inshootlarini rekonstruktsiya qilinishiga;
- ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladigan xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq boshqa tadbirlarga.

5.2. Ijtimoiy sug‘urta – ijtimoiy ta’minotning moddiy-moliyaviy asosi sifatida

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha barcha xodimlar davlat yo‘li bilan ijtimoiy sug‘urta qilinishlari belgilab qo‘yilgan. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun ish beruvchilar, shuningdek sug‘urta qilingan xodimlarning o‘zлari sug‘urta badallarini to‘laydilar. Shu bilan birga, ish beruvchilarning davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun badal to‘lamaganliklari sug‘urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan ta‘minlanish huquqidан mahrum qilmaydi.

Sug‘urta qilingan xodimlar, tegishli hollarda esa, ularning oilalari ham davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan:

- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, ayollar esa, bundan tashqari, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari;
- bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalar;
- davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar bilan ta‘minlanadilar.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘laridan sanatoriy-kurortlarda davolanish, dam olish, sug‘urta qilingan xodimlarning shifobaxsh (parhez) taomlari uchun haq to‘lash, bolalarning sog‘lomlashtirish lagerlarini ta‘minlab turish, davlat ijtimoiy sug‘urtasiga doir boshqa tadbirlar uchun ham belgilangan tartibda foydalaniladi.

Ijtimoiy sug‘urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash hisoblanadi, ya’ni ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo‘qotish kabi xavf-xatarlar yig‘indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug‘urtaning muhim jihat shundaki, u ish beruvchi va ishlovchilarning maqsadli badallari asosida maxsus nobudjet fondlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy sug‘urta munosabatlarida sug‘urta to‘lovi mehnat ulushi hamda sug‘urta muddatiga bog‘liq bo‘ladi.

Mehnatga layoqatlilikni va daromadni yo‘qotishga olib keladigan ijtimoiy xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yo‘qotish.

Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy sug‘urtaning o‘rnini va roli sezilari oshib boradi, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug‘urtalanganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug‘urta dasturlarining kengayishi, to‘lanadigan pensiya, nafaqalar hajmining hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatining o‘sishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining oshishi sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy sug‘urta fuqarolarning qarilik, kasallik holatlari, onalik, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotishi, boquvchisini yo‘qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta‘minot olishga konstitutsion huquqi borligini ko‘rsatadi. To‘lanadigan mablag‘ miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarini yaratadi, shu bilan birga, ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug‘urta tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, siyosiy bidadlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning yordami bilan – jamiyat quyidagi vazifalarni bajaradi:


- ishga layoqatsiz va mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan shaxslarning xarajatlarini qoplashga qaratilgan pullik fondlarni shakllantirish;
- mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning tuzilma va zarur miqdorini ta’minlash;
- jamiyatning ishlovchi va ishsiz a’zolarining moddiy ta’minotidagi uzilishlarni kamaytirish;
- aholining mehnat jarayoniga jalb etilmagan guruuhlarining yashash darajasini ko’tarishga erishish.

Ijtimoiy sug‘urta ikki yo‘nalishdagi chora-tadbirlarni moliyaviy jihatdan ta’minlashga qaratilgan:

- birinchisi – ishchilarni sog‘lomlashtirish va qayta tayyorlash tadbirlarini o’tkazgan holda mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uning saqlanishini ta’minlash;
- ikkinchisi – mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarga yoki unga umuman ega bo‘lmaganlarga moddiy ta’minotni kafolatlash.

Ijtimoiy sug‘urta tizimining moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi. Ijtimoiy sug‘urta fondlari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- ishchilarning sug‘urta badallari;
- ish beruvchilarning badallari;
- davlat subsidiyalari.



5.2-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning mazmuni va ijtimoiy sug'urta fondlarining shakllanish manbalari

Ishlovchilarning sug'urta badallari ularning daromadidan olib qolinadi. Mohiyati jihatidan bu to'lovlar aniq maqsadli soliq hisoblanadi. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va ko'p holda daromadning katta-kichikligiga bog'liq bo'lmaydi.

Davlat subsidiyalari ishlamaydigan fuqarolar, harbiy xizmatchilar va davlat xizmatchilari uchun majburiy ijtimoiy sug'urta fondlariga dotatsiyalarni, ijtimoiy fondlar taqchilligini qoplashga xizmat qiluvchi dotatsiyalarni hamda soliq imtiyozlarini o'z ichiga oladi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari pul to'lovlari, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, imtiyozli yordam ko'rinishida ishlatiladi. Resurslar hajmi jihatidan birinchi o'rinda pul to'lovlari turadi. Ular pensiya va nafaqalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta mablag'lari orqali sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot muassasalari xizmatlari, sanatoriya-kurort tashkilotlarining fuqarolarning mehnat qobiliyatini tiklash bo'yicha xizmatlari,

sog‘lomlashtirish-profilaktika tadbirlarining o‘tkazilishi kabi tadbirlar mablag‘ bilan ta’milanadi.

Imtiyozli yordamning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, uning maqsad va vazifalari ma’lum bir moddiy boylikka ega bo‘lishda boshqalarga nisbatan u yoki bu ne’matlardan foydalanishda ma’lum bir yengilliklar berish bilan bog‘liq.

Pensiyalar yoshiga, nogironlikka, boquvchisini yo‘qotganlikka, muddatli harbiy xizmat muddatini o‘taganlikka qarab belgilanadi, shuningdek, ijtimoiy pensiyalar ham mavjud.

Nafaqalar vaqtinchalik ishga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ruq bo‘yicha, bolalarga, ishsizlarga, shuningdek, malaka oshirish va qayta tayyorlash uchun tayinlanadi.

To‘lovlar va xizmatlar maqsad va vazifalariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

- birinchisi - kishilarning ishchanlik faoliyatini ushlab turish maqsadidagi to‘lovlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarni birlashtiradi;

- ikkinchi guruh bola tug‘ish va tarbiyalash bilan bog‘liq qo‘srimcha xarajatlarni o‘z ichiga oluvchi to‘lovlar va xizmatlarni anglatadi. Bunga quyidagilar kiradi: bola tug‘ilgandagi nafaqa, bola ma’lum bir yoshga to‘lgunga qadar ketgan ta’til uchun to‘lov hamda bolalar nafaqasi;

- uchinchi guruhga mehnatga layoqatlilikni tiklash, tibbiy reabilitatsiya, nogironlar, ishsizlar, ayollar, dekret ta’tilidan keyin ish faoliyatiga qaytganlarni o‘qitish va qayta o‘qitish maqsadidagi to‘lov va xizmatlar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sug‘urta muhim va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy voqelik bo‘lib, davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishni talab etadi.

5.3. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining davlat budjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanishi

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'i nazar – o'zlariga bog'liq bo'limgan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'limgan aholi toifalari bo'ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar, nogironlar, yetimlar, yolg'iz fuqarolar kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy ahvollari og'irlashganlar kiradi. Bunday toifadagi fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash jamiyat miqyosida muayyan moliyaviy resurslarni jamlash va ijtimoiy ta'minot maqsadlariga safarbar qilishni talab etadi. Bu maqsadlardagi moliyaviy resurslar bir qancha manbalardan moliyalashtirilishini oldingi bobda ta'kidlagan edik. Quyidagi keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010–yil 11-oktabrda 2146-sон bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi"ga muvofiq, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiritilganligi va ularni mablag' bilan ta'minlash manbalari keltirilgan (5.1-jadval).

**Davlatning ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi
va moliyalash manbalari²⁴**

Byudjet tasnif bo'yicha xarajat kodi			Xarajat turi	Mablag' bilan ta'minlash manbai
7	100	000	IJTIMOIY HIMOYA	
7	101	000	Kasallik, mehnatga layoqatsizlik va kam ta'minlanganlik	
7	101	100	Kasallik	
7	101	200	Mehnatga layoqatsizlik	
7	101	201	Bolalikdan nogironlarga nafaqa	Respublika budjeti mablag'lari
7	101	202	Nogironlarni o'qitish va ish bilan ta'minlash	Bandlik jamg'armasi mablag'lari
7	101	203	Qariyalar va nogironlar uchun sanatoriylar	Davlat budjeti mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr-chsontlari va boshqa manbalar
7	101	204	Qariyalar va nogironlar uchun internat-uylari	
7	101	205	Kichik yoshdagi nogiron bolalar uchun internat-uylari	
7	102	000	Qarilik	
7	102	100	Uyda ijtimoiy yordam xizmati bo'limlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar mablag'lari (ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida)
7	102	400	Pensiya bilan ta'minlanganlik	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
7	102	401	Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari	
7	102	402	Ishlaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari	
7	102	403	Pensiya, nafaqa va kompensatsiya to'lovlarini yetkazib berish bo'yicha pochta xizmatlari xarajatlari	
7	102	404	Blanka mahsulotlari, pensiya ruxsatnomalarini tayyorlash, pensiya to'lash vedomostlari uchun qog'oz sotib olish, mamlakat tashqarisiga pensiya ishlarini o'tkazish, tashkilotlarda pensiya va nafaqalarni to'g'ri tayinlanishini tekshirish uchun safar xarajatlari	
7	103	000	Oila va bolalar	Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar mablag'lari (aholini
7	103	100	Bolasi 18 yoshgacha bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar	
7	103	200	2 yoshgacha bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan	

²⁴ O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaning (16.09.2010. 2146-son) 4-ilovasi asosida.

			onalarga har oylik nafaqalar	ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ajratilgan mablag'lar doirasida)
7	103	300	Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordamlar	
7	103	400	Tabiiy ofstalar natijasida zarar ko'rgan oilalarga moddiy yordamlar	
7	104	000	Ishsizlik	O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari
7	104	100	Ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish	
7	104	101	Ishsizlik bo'yicha nafaqalar, Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining taklifiga binoan ishslash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish uchun kompensatsiyalar to'lash va qonun hujjalariiga muvosiq ishsizlarga moddiy yordam berish	
7	104	102	Haq to'lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjalarda belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlash	
7	104	103	Ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash	
7	106	300	Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xarajatlar	
7	106	310	Byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa	
7	106	320	Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa	
7	109	300	Ijtimoiy ta'minotning boshqa tadbirlari	
7	109	400	Ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya markazlarini saqlash	
7	109	401	Ijtimoiy moslashuv markazlarini saqlash	Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlar mablag'lari (ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida)
7	109	402	Muayyan yashash joyiga va mashg'ulot turiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari	
7	109	403	Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish markazlari	
7	109	404	Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi	
7	109	405	Nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlari	

Ijtimoiy ta'minot turlariga kiruvchi bir qator xizmatlar: ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni saqlash bo'yicha xarajatlar bir necha manbalardan amalga

oshirilar ekan. Bular: davlat budgeti (respublika va mahalliy budgetlar), Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari va boshqa nobudget va nodavlat manbalar.

Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat tashkilotlariga bir qator ijtimoiy ta'minot muassasalari kiradi, ular quyidagilardan iborat:

- "Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari;
- "Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari;
- "Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari;
- Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar;
- Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.

"Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo'limgan yolg'iz keksalar hamda 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

"Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

"Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylarini (dam oluvchilar) sog'lomlashtirish va ularning dam olishi uchun mo'ljallangan davlat davolash-profilaktika muassasalari hisoblanadi.

Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan I va II guruh nogironlari hisoblangan hamda O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta’minlashga majbur bo‘lgan qarindoshlar yoki boshqa shaxslarga ega bo‘lmagan yolg‘iz urush va mehnat faxriylari (vasiylikka olinganlar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha turdagি ijtimoiy muassasalar faoliyati davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Byudjet va budgetdan tashqari mablag‘larni sarflash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Muassasalarning shtatlar jadvallari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta’milot xarajatlari tarkibiga yuqorida ko‘rib o‘tilgan xarajatlar va muassasalar bilan birqalikda, o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatish xarajatlari ham kiradi.

O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatish “Yolg‘iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati” tomonidan tashkil qilinadi. Ushbu xizmat tuman va shahar Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va yolg‘iz fuqarolarga xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlardan tashkil topadi.

5.4. Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi – pensiya ta’milotining moliyaviy manbasi

Pensiya ta’moti doimo davlat va jamiyat hayotida markaziy va hal qiluvchi o‘rinni egallab kelgan. Mamlakatda yashaydigan

fuqarolarda o‘z hayot faoliyatining ma’lum bosqichlarida va alohida holatlarda pensiya ta’mnoti tizimi xizmatlariga ehtiyojlari yuzaga keladi. Uning holati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga, mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, shuningdek, mehnatkashlarning hamda ma’lum sabablarga ko‘ra ishlamaydigan aholi qatlamlarining ijtimoiy ahvoliga bog‘liq.

Davlatning oldidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish uchun ko‘plab mablag‘lar zarur bo‘ladi. Xorijiy davlatlarda, xususan, AQShda ham aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy ta’minalash dasturlari amal qiladi hamda ular uzoq yillik tarixga ega²⁵.

Bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlari pensiya tizimlari boshqarish va moliyalashtirishning ancha murakkab bo‘lgan aralash tizimiga ega. Bizning mamlakatimizdagi kabi, bu davlatlarda ham pensiya tizimlarini boshqarish va moliyalashtirish masalalarida muammolar talaygina (5.3-rasm).

Bugungi kunda mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun real shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada olib borilayotgan ishlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi ijtimoiy soha vakillari va barcha mutasaddi rahbarlar oldiga qo‘yilgan bu ulkan vazifalar davlat pensiya ta’mnoti tizimini ham takomillashtirib borish, uni jahon andozalariga mos keladigan, iqtisodiy jihatdan maqbul va moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgan, tashkiliy jihatdan mukammal va huquqiy jihatdan mustahkam bo‘lgan tizim sifatida yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

²⁵ Diana M. DiNitto, David R. Johnson. Social Welfare: Politics and Public Policy, 8/e. Pearson; 8 edition. USA. 2015. – P. 107-128.

Mamlakatning demografik tarkibi, aholining borgan sari qarib borayotganligi

Ishlovchilar bilan pensiya oluvchilar o'rtasidagi nisbatning pensiya ta'minotining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan darajada o'zgarib borayotganligi

Davlat tomonidan kafolatlangan pensiya tizimlariga muqobil ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimlarining rivojlanganligi

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi aholining daromadilik darajasini hisobga olgan holda yetarli samaradorlikka ega emasligi

Xususiy pensiya fondlarining rivojlanishiga mamlakatda moliya bozorining lozim darajada shakllanmaganligi va b.

5.3-rasm. Pensiya tizimini boshqarish va moliyalashtirishdagi muammolar


Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo'lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko'ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo'yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo'lib, sug'urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta'minotga ega bo'lishni kafolatlaydi. Aksariyat pensiya tizimlarining asosini, ularning institutsional tuzilishi yoki qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlaridan qat'i nazar, ijtimoiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga qurilgan pensiya dasturlari tashkil qiladi.

Pensiya ta'minoti nazariyasi va amaliyoti bir joyda qotib turmaydi, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar, har bir davrning rivojlanish ustuvorliklari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning oldidagi vazifalardan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi, takomillashib boradi.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlashning bir necha manbalari mavjud:



Byudjetdan tashqari
Pensiya jamg‘armasi
mablag‘lari



Davlat
byudjeti
mablag‘lari



Jang‘arib
boriladigan pensiya
tizimida
jamlanadigan
mablag‘lar

5.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini mablag‘ bilan ta’minlashning manbalari

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut - budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi iqtisodiyotning tayanch bo‘g‘inidir. Aholining kam ta’minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas’uliyatni o‘zining asosiy maqsadi qilib olgan bu jamg‘armaning bugungi kundagi ahamiyatiyuksakdir.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi davlat maqsadli jamg‘armalari tarkibida davlat byudjetida konsolidatsiyalashadi.

5.5. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug‘urta budjeti mablag‘lari


O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi (KUF) Kengashining maxsus ajratmalar, badallar va to‘lovlar evaziga shakllanadigan ijtimoiy sug‘urta budjetini shakllantirish va ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Markaziy bank Boshqaruving 2007-yil 15-maydagi 56, M-23, 2007-14, 287-V sonli qarori bilan tasdiqlangan “Kasaba uyushmalari organlarining

xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larni sarflash tartibi to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston KUF Kengashining ijtimoiy sug'urta budgeti quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi (5.4-rasm):

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, O'zbekiston KUF Kengashiga xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yagona ijtimoiy to'lovdan yo'naltirilgan ajratmalar hisobiga;
- belgilangan tartibda xodimlarga davolanish va dam olish uchun berilgan yo'llanmalar uchun ulardan olingan mablag'lar hisobiga;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga.

Kasaba uyushmalari organlarining ijtimoiy sug'urta mablag'ları O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit va tranzit hisobvaraqlarida saqlanadi.



5.5-rasm. Kasaba uyushmalari Federatsiyasi

Kengashining ijtimoiy sug'urta budgetining shakllanish manbalari²⁶

²⁶ "Kasaba uyushmalari organlarining xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'larni sarflash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida.

Bank muassasalarida depozit va tranzit hisobvaraqlarini ochish O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi Yo'riqnomaga²⁷ muvofiq amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmalari organlari Qoraqalpog'iston respublika, viloyatlar, Toshkent shahar birlashmalariga (hududiy birlashmalar) buxgalteriya hisob schyotlari rejasiga muvofiq bank muassasalarida quyidagi hisobvaraqlari ochiladi:

– 20212-“Nodavlat notijorat tashkilotlarining ta lab qilib olingungacha depozitlari” balans hisobvarag‘ida ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha, ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobiga olingen yo‘llanmalarni sotib olishdan tushgan mablag‘larni ham o‘z ichiga olgan ijtimoiy sug‘urta mablag‘larini, ular belgilangan tartibda taqsimlanguniga qadar – 30 foizi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga, 70 foizi hududiy birlashmalarga yo‘naltiriladi, hisobga olish tranzit hisobvaraqlari ochiladi;

– xuddi shu 20212 balans hisobvarag‘ida tasdiqlangan budjetga muvofiq xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish uchun hududiy birlashmalar ixtiyoriga 70 foiz miqdordagi ijtimoiy sug‘urta mablag‘larini taqsimlashdan tranzit hisobvaraqlaridan kelib tushgan mablag‘larni hisobga olish uchun joriy hisobvaraqlari ochiladi;

– 20205 (780-HShR) “Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olingungacha depozitlari” balans hisobvarag‘ida yagona ijtimoiy to‘lov mablag‘larini belgilangan tartibda taqsimlanguniga qadar hisobga olish uchun tranzit hisob raqamlari ochiladi;

– xuddi shu 20205 (780-HShR) balans hisobvarag‘ida tranzit hisob raqamidan yagona ijtimoiy to‘lovi mablag‘larining hududiy birlashmalar ixtiyoriga kelib tushgan 70 foizi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi ixtiyoriga kelib tushgan 30 foizini hisobga olish uchun joriy hisobvaraqlar ochiladi.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mablag‘lari tegishli kasaba uyushmalari organlarining qarorlari bilan

²⁷ Ro‘yxat raqami 1948, 2009-yil 27-aprel. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 18-son, 229-modda.

tasdiqlanadigan budjet va smetalarida belgilangan maqsadlarga muvofiq xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun sarflanadi. Ular:

- sanatoriylarda davolanish, pansionat va dam olish uylariga yo'llanmalar olishga;
- korxonalar va o'quv muassasalaridagi sanatoriylarlarda, sanatoriylarning ijtimoiy sug'urta uchun tasdiqlangan smetasiga muvofiq, xodimlar yoki talabalarni sog'lomlashtirish xarajatlarini qisman qoplashga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, davolanuvchilarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);
- bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarning ta'minotida, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarining tasdiqlangan smetalariga muvofiq, hissali ishtirok etishga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);
- kasaba uyushmalari huzuridagi bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM) xodimlarning mehnatiga haq to'lash va moliyaviy imkoniyatlari darajasida sport anjomlarini xarid qilish, o'quv-sport tadbirlarini o'tkazish uchun qisman mablag' ajratishga;
- o'z sport bazalari bo'limgan taqdirda, hududiy birlashmalar tomonidan tasdiqlangan BO'SMning smetasiga muvofiq, istisno tariqasida, binolarni ijaraga olishga;
- ijtimoiy sug'urta bo'yicha tashkiliy-ma'muriy xarajatlarini moliyalashtirishga, kadrlarni tayyorlash, o'qitish, sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etuvchi shifokorlar va boshqa kadrlarning ta'minotiga;
- O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining tasdiqlangan smetasi, qurilish va rekonstruktsiya qilinadigan obyektlarning manzilli ro'yxatiga muvofiq kasaba uyushmalari sog'lomlashtirish muassasalari va BO'SM sport inshootlarini rekonstruktsiya qilinishiga;

– O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi rayosati tomonidan tasdiqlangan ijtimoiy sug‘urta budgeti yoki smetasi doirasidagi ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladigan xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq boshqa tadbirlarga sarflanadi.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta’mnotinning moliyaviy manbalari va ularning guruhlanishini aytib bering.
2. Ijtimoiy su’g‘urtaning ijtimoiy ta’mnotinning moddiy-moliyaviy asosi sifatidagi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ijtimoiy ta’mnot xizmatlarining qaysi turlari davlat budgeti hisobidan mablag‘ bilan ta’milanadi?
4. Ijtimoiy ta’mnot xizmatlarining qaysi turlari Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan amalga oshiriladi?
5. Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug‘urta budgeti mablag‘larining shakllanish manbalari va ishlatish yo‘nalishlarini aniqlang.
6. Ijtimoiy ta’mnot xizmatlarini moliyalashtirish manbalari qanday belgilariga ko‘ra guruhlangan?

6-BOB: PENSIYA TA'MINOTI – IJTIMOIY TA'MINOTNING SHAKLI SIFATIDA



Keyword

Tayanch so‘z va iboralar: *pensiya, pensiya ta’mnoti; o’zgalar parvarishiga muhtoj yolg’iz keksalar va nogironlar; mehnat qilish qobiliyati; qarilik, nogironlik, boquvchisini yo‘qotish xavf-xatari; sug‘urta stajining davomiyligi; sug‘irtalanadigan ish haqining miqdori; sug‘urta tarifi; qamrov koeffitsiyenti; bosim koeffitsiyenti; qoplash koeffitsiyenti; pensiyaning absolyut miqdori.*

6.1. Pensiya ta’mnotinining mohiyati, zarurligi va davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati

Keksalar hayotini minimal ijtimoiy kafolatlar darajasida ta’minlash mamlakatlarning rivojlanganlik darajasidan qat’i nazar, ijtimoiy davlatning vazifasi hisoblanib, ijtimoiy kafolatlar tizimi shakllanishining qonuniy, iqtisodiy va moliyaviy jihatlari esa alohida dolzarblik kasb etadi hamda bu borada olib boriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilab beradi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalari qatorida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirish Dasturida “nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish, ularning madaniy hordiq chiqarishiga va sog‘liqlarini mustahkamlash, keksalarning maishiy holatlarini yaxshilash, ularning muammolarini o‘rganish, mahallalarda istiqomat qilayotgan ko‘makka muhtoj keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar bilan bir qatorda, “Muruvvat” uylarida

yashovchilar holidan muntazam xabar olish, keksa avlod vakillarini ma’naviy va moddiy qo’llab-quvvatlash”²⁸ chora-tadbirlari belgilangan.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, “pensiya – ijtimoiy maqsadlardagi to’lovlarni to’lashga mo’ljallangan maqsadli pul fondlarini shakllantirish va keksalik chog‘ida fonddan foydalanish shakl va usullari yig‘indisini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi”²⁹, deb ta’rif beriladi dots. G.Qosimovaning “Byudjetdan tashqari fondlar” nomli o‘quv qo’llanmasida. Ushbu ta’rif pensiya munosabatlarining mazmun-mohiyatini to’laqonli ochib bermasada, masalaning bir jihatni, ya’ni maqsadli fondlarning tuzilishi bilan bog‘liq voqelikka oydinlik kiritadi.

Boshqa bir adabiyotda, ya’ni dots. Z.Srojiddinova tomonidan yaratilgan “O’zbekiston Respublikasi byudjet tizimi” nomli o‘quv adabiyotida “Pensiya – belgilangan (pensiya yoshiga) yoshga yetganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo‘qotilganda, shuningdek belgilangan muddat harbiy xizmatni o’taganda va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat tomonidan, yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan pul daromadlari bilan muntazam ta’minlab turilishi”³⁰, deb ta’riflanadi.

Fikrimizcha, makrodarajada pensiya tizimining samaradorligi uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini va inson omilini takror ishlab chiqarish jarayonining davlat tomonidan tartibga solinish darajasini aks ettiradi. Moliyaviy nuqtayi nazardan pensiya tizimining samaradorligi mablag‘larni jalb qilish va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida mablag‘larning ishlatilish darajasini ifoda etadi. Davlat tomonidan taqsimlash tizimida u yoki bu choralar tartibini tanlashni esa mamlakat pensiya tizimida vujudga kelgan holat, demografik vaziyat, jamiyatda amal qilayotganadolat tushunchalari, siyosiy qarashlar belgilab beradi.

²⁸ 2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to’plami. 2017-y., 6-son, 70-modda.

²⁹ Qosimova G., Karimova Z. Byudjetdan tashqari fondlar. Darslik. – T.: “TMI”, 2009. 39-b.

³⁰ Srojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – T.: “infoCom.UZ”, 2010. 367-b.

Yuqorida ta'kidlanganidek, pensiya ta'minoti aholining ishonchli va kafolatlangan ijtimoiy himoyasida muhim va markaziy o'rinni egallaydi. Pensiya ta'minotining holatiga esa mamlakatdagi demografik vaziyat va uning yaqin va o'rta istiqboldagi dinamikasi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi aholisining soni 2017-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 32 million 120,5 ming kishini tashkil qildi. 2016-yil boshidan buyon aholi soni 545,2 ming nafarga ko'paygan va bu 1,7 foizlik o'sishni ko'rsatadi³¹.

"Har qanday jamiyatning yoshi ulug' odamlarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rligi uning madaniy darajasini belgilaydi, ... keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylangan"³². Muhtaram Birinchi Prezidentimizning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu fikrlari har qachongidan ham ko'proq dolzarblik kasb etmoqda. Bugungi kunda u kishining "Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi"³³, degan fikrlarini qabul qilinayotgan qarorlarda, amalga oshirilayotgan ishlarda munosib davom ettirayotgan Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida "keksa yoshdag'i fuqarolarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini yanada oshirish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'la huquqli ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, katta avlodning jamiyat, oilalar va mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, shuningdek yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirish"³⁴ maqsadida mamlakatimizda bir qator yangiliklar, tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bunday e'tiborning iqtisodiy jihatni mamlakatda shakllangan pensiya ta'minoti tizimida o'z ifodasini topadi. Bugungi kunda davlat

³¹ <http://stat.uz/statinfo/demograficheskie-dannya>.

³² O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. Xalq so'zi // 06.12.2014.

³³ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi bo'yicha 1992-yil 8-dekabrdagi Oly Kengashning tarixiy sessiyasida so'zlagan nutqidan.

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4906-son Farmonidan.

pensiya ta'minoti tizimining davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Pensiya ta'minoti mexanizmlari orqali keksaygan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan jamiyat a'zolarining munosib turmush kechirishi uchun moddiy asos yaratilmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, ayniqsa, 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan qabul qilinayotgan davlat dasturlari keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlarga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda keksalarning o'rnini mustahkamlash maqsadlariga qaratilgan.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2705-son qarori qabul qilindi va unda "o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironlar turmush darajasi va sifatini har yil ushbu kontingentga kirgan 4 ming odamni umumiy miqdori 3,2 milliard so'm bo'lган asosiy oziq-ovqatlar, gigiyena vositalari bilan ta'minlash yo'li bilan oshirish, 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga sanatoriyalarda har yili sog'lomlashtirish kursidan o'tish o'miga yo'llanmaning o'rtacha narxiga teng ravishda kompensatsiya olish huquqini berish, yolg'iz va kam ta'minlangan keksa fuqarolarni umumiy miqdori 6,4 milliard so'm hajmidagi qishki kiyim komplekti va poyafzal, shuningdek qishga g'amlash uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan har yili ta'minlash"³⁵ bilan bog'liq chora-tadbirlar belgilandi. Qarorda belgilangan vazifalar mamlakatimiz pensiya ta'minoti tizimi zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklamoqda.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2705-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 10-modda.

Fuqarolarning keksaygandagi hayot faoliyati daromad manbalari va ularning barqarorligi kabi jiddiy muammolar bilan bog'liq bo'ladi. Kishilik taraqqiyoti davomida insonlar keksaygan sari, to'laqonli mehnat qilish qobiliyatini yo'qota borgan sari kambag'allikka duchor bo'la boshlagan, farzandlarining qo'liga tobora ko'proq qaram bo'la boshlagan. Farzandlarning o'zi ham o'z tirikchilagini o'tkazish, hayot uchun kurashish yo'lida ish qidirib bir joydan boshqa joyga sarson bo'lishga majbur bo'lganda, qariyalarning ahvoli undan-da yomonlashgan. Agrar ishlab chiqarishga asoslangan jamiyatatlarda keksaygan jamiyat a'zolarining ahvoli hozirgi kunlarda ham ayanchliligicha qolmoqda.

Agar yuz yil oldingi tarixga nazar tashlasak, xatto sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham mehnatkashlarning kamdan kam qismi mehnat faoliyatini to'xtatgandan keyin ishonchli daromadga ega bo'lgan. Ularning ko'pchiligi kambag'allikka duchor bo'lishdan qo'rqib, imkonи boricha uzoqroq ishlab qolishga harakat qilgan. Nogiron bo'lib qolish yoki boquvchisini yo'qotish kabi hayotiy hodisalar esa ularning kambag'allik yoki birovga qaramlikka mahkum bo'lish ehtimolini yanada kuchaytirgan. Shu sababli eng ommaviy va moliyaviy oqibatlariga ko'ra eng og'ir ijtimoiy xavf-xatarning – qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish xavf-xatarining mavjudligi pensiya dasturlarining shakllanishiga olib keldi.

Natijada XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida ko'pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanish jarayoni kishilik taraqqiyoti tarixiga muhim bosqich bo'lib kirdi. Shu davrdan boshlab "qarilik – bu kambag'allik, nochorlik" degan tushunchalar birmuncha eskirdi. Bundan tashqari, ko'pchilik mamlakatlarda fuqarolar mehnat faoliyatini tugatgandan keyin ham normal hayot faoliyatini kechirish uchun yetarlicha moddiy ta'minlanish imkonini beradigan pensiyalarga ega bo'ldilar. Ularning moddiy ta'minot darajasi hatto ayrim ishlovchi, lekin ko'p bolali yosh mehnatkashlardan ham ko'ra yuqoriroq bo'la boshladi.

“Pensiya” so‘zining o‘zi lotincha “pension” so‘zidan olingen bo‘lib, mehnat qobiliyatini va demak, ish haqi ko‘rinishidagi daromad manbaini yo‘qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo‘qotganda moddiy ta’minalash uchun muntazam to‘lanishi mo‘ljallangan pullik to‘lov ma’nosini anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda, pensiya tizimi deganda mamlakat fuqarolarini ma’lum yoshga yetganda, nogironlikda, boquvchisini yo‘qotganda moddiy jihatdan ta’minalash bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy munosabatlar, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar yig‘indisi tushuniladi.

6.2. Turli mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondoshuv asos bo‘lib xizmat qilgan: birinchi yondoshuvga ko‘ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondoshuv bo‘yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bo‘lib, sug‘urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta’mintoniga ega bo‘lishni kafolatlaydi.

Pensiya ta’mintonining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg‘unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug‘urtaviy tizimlar bilan to‘ldirildi, sug‘urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o‘z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiatini nafaqat umumqabul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama xarakteri shunda namoyon bo‘ladiki, birinchidan, pensiya kambag‘allikdan himoyalab, pensiya daromadining minimal darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma’lum belgilangan

sug'urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o'rnini bosadi, ya'ni yo'qotilgan daromadni yoki uning ko'p qismini kompensatsiyalaydi.

Aksariyat pensiya tizimlarining asosini, ularning institutsiyonal tuzilishi yoki qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlaridan qat'i nazar, ijtimoiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga qurilgan pensiya dasturlari tashkil qiladi.

O'zining ijtimoiy mazmun-mohiyatiga ko'ra, pensiya sug'urtasi mehnatkashlar tomonidan yakka va jamoaviy tarzda o'z joriy daromadlarining bir qismini boshqarish va nazaratning sug'urtaviy va davlat mexanizmlari (qonuniy, tashkiliy va moliyaviy) yordamida zaxiralashdan iborat.

Kelgusidagi sug'urtaviy pensiyaning miqdori qator omillarga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim, bular:

- sug'urta stajining davomiyligi;
- sug'urtalanadigan ish haqining miqdori;
- sug'urta tarifining katta-kichikligi;
- kelgusidagi to'lovlar davrining davomiyligi.

Shuning uchun pensiya sug'urtasining moliyaviy mexanizmini ishlab chiqishda shunday hisob-kitoblar tizimi qo'llaniladiki, ular sug'urtalangan va pensiyaga chiqayotgan fuqaro guruhlari oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni kelgusidagi to'lovlar davri mobaynida muntazam ravishda bajarish (pensiyalarni to'lab borish) uchun etarli bo'lishini ta'minlashi kerak. Bu vazifani bajarish ancha qiyin ekanligini e'tirof yetish lozim, chunki u oldindan aniqlash qiyin bo'lgan qator omillarga bog'liq: sug'urta badallarini to'lab borish (30-50 yil) va pensiya olish (20-30 yil) davrlarining davomiyligi, bu davrda mehnat haqi va inflyatsiya darajasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi, pensionerlar va ishlovlarning ham absolyut miqdori, ham bir-biriga nisbatlari sezilarli o'zgarishi mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari:

- davlat pensiya ta'minoti,

- majburiy ijtimoiy sug‘urta,
- shaxsiy ijtimoiy sug‘urta kabilar qo‘llaniladi.

Bu modellar “jamg‘ariladigan” va “taqsimlovchi” modellarga asoslangan bo‘lib, ko‘pchilik mamlakatlarda bu modellarning “kombinatsiyalashgan” shakllari amal qiladi³⁶.

Ta’kidlash joizki, hozirgi kunda aholisining 20 foizidan ko‘pi 65 yoshdagilarni tashkil qiluvchi mamlakatlar safida 3 ta davlat – Germaniya, Italiya va Yaponiya bor.

Buyuk Britaniya pensiya tizimi dunyodagi eng qadimiy tizim bo‘lib, ommaviy va universal shakldagi pensiya ta’minoti 1908-yilda joriy qilingan. Mazkur tizim tashkil etish, tartibga solish va imkoniyatlarni tanlash bo‘yicha birmuncha murakkab hisoblanadi. Buyuk Britaniyalik pensionerlar oylik maoshi va ish stajidan kelib chiqib, davlatdan bazaviy pensiyani ham, milliy sug‘urta tizimidan mehnat pensiyasini ham olishi mumkin. Davlatning bazaviy pensiyasini olish huquqiga 65 yoshdan oshgan erkaklar va 60 yoshdan oshgan ayollar olish huquqiga ega bo‘ladilar, bunda pensiyaning miqdori ish stajiga bog‘liq bo‘ladi. Pensiyaning miqdori cheklangan bo‘lib, lekin inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda davlat tomonidan indeksatsiya qilinadi. Ishchi-xodim o‘rtacha oylik ish haqining 20 foizi miqdoridagi pensiya davlat tomonidan kafolatlanadi. Mehnat pensiyasi ham ishchi-xodimning badallari hisobiga shakllantiriladi, biroq, bunda ish beruvchi ham teng barobar ishtirok etadi. Mehnat pensiyasi hajmi pensiya uchun to‘lovlardan miqdoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, daromadning 20 foizini tashkil qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada jamg‘arishga asoslangan xususiy pensiyalarining turli-tuman usullari – korxonalardagi korporativ dasturlardan tortib, to nodavlat pensiya fondlariga ixtiyoriy tarzda pensiya jamg‘arishning rivojlangan tizimi ham mavjud.

Keng qamrovli pensiya ta’minotiga XIX asrning oxirida Germaniya imperiyasida asos solingan. 1889-yilda “temir kansler”

³⁶ Mamatov B., Xujamkulov D. Pensiya ta’minotining xorij tajribalari va xususiyatlari. “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnalı. № 1, sentabr, 2016-yil. interfinance.uz.

nomini olgan Otto fon Bismark tashabbusi bilan ijtimoiy sug‘urta g‘oyalariga asoslangan birinchi keng ko‘lamli pensiya tizimi shakllangan. Bunga Otto fon Bismarkni sotsialistlarning o‘sib borayotgan noroziliklari undagan. Bismarkning g‘oyasiga ko‘ra:

- pensiya yo‘qotilgan daromadni qoplashi;
- hajmi majburiy sug‘urta ajratmalariga ko‘ra aniqlanishi;
- sug‘urta badallarini ishchi-xizmatchilar o‘z ish haqlaridan to‘lab borishlari;
- pensiyani moliyalashtirishda davlatning ishtiroki minimum darajada bo‘lishi lozim edi.

Ushbu tizim to‘laligicha sug‘urtaga asoslangan bo‘lib, to‘lovlar miqdori ish haqiga bog‘liq bo‘lgan. Germaniyaning pensiya tizimi “avlodlar birdamligi” tamoyiliga asoslanadi, ya’ni hozirda ishlovchilar pensionerlarning pensiyalarini to‘lash uchun davlat pensiya fondiga ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘laydilar va bu pensionerlarga pensiya to‘lanadi.

Bugungi kunda ishlayotgan fuqarolar tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar miqdori qanchalik yuqori bo‘lsa, keyinchalik ular tomonidan to‘langan to‘lov larga mutanosib ravishda pensiya miqdori shuncha yuqori bo‘ladi.

Germaniya fuqarolari tomonidan Pensiya fondiga to‘lanadigan har oylik to‘loving o‘rtacha miqdori ular ish haqining 20 foizini tashkil qiladi. Bunda uning teng yarmini ish beruvchi to‘laydi. Fuqaro harbiy xizmatni o‘tayotgan vaqtida yoki ayollarning dekret ta’tili davomida to‘lovlar davlat hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya hisob-kitoblari individual koeffitsiyentlar asosida (butun mehnat faoliyatida) amalga oshiriladi. U pensiyaga chiqish yoshiga (Germaniyada pensiyaga chiqish yoshi 67 yoshni tashkil qiladi), mehnat stajiga, ish haqi miqdoriga va pensiyaning turiga bog‘liq bo‘ladi. Germaniyada ishlovchilarining ko‘pchiligi nodavlat pensiya fondlarida ishtirok etib, xususiy pensiya rejalariga ega bo‘ladilar.

Fransiyada ilk pensiya ta'minoti Fransiya harbiy dengiz floti ofitserlari uchun 1673-yilda joriy etilgan. 1790-yildagi Buyuk frantsuz inqilobi davrida davlat xizmatchilari uchun Fuqarolik pensiyasi haqidagi qonun qabul qilindi. U 30 yil mehnat qilgan va 50 yoshga to'lganlar uchun mo'ljallangan edi. Fransiya pensiya tizimi "taqsimlovchi" modelga asoslangan bo'lib, bunda pensionerlarning pensiyalari iqtisodiy faol aholi to'lovlari hisobidan shakllanuvchi daromadlar hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya ta'minotini boshqarish davlat nazorati asosida Kasaba uyushmalari assotsiatsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Pensiya badallari ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida taqsimlanadi. Erkin kasb egalari, jumladan, kichik tadbirdorlik subyektlarining, dehqonlarning Pensiya fondiga to'laydigan har oylik to'lovlari miqdori ish haqining 16,35 foizini tashkil qiladi. Fransiyada pensiyalarning miqdori o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi va bunda so'nggi 11 yillik mehnat staji hisobga olinadi. Biroq, Fransiyada minimal va maksimal davlat pensiyasi amal qiladi. Bugungi kunda minimal davlat pensiyasi taxminan yiliga 6 ming yevroni tashkil qiladi, maksimal davlat pensiyasi miqdori esa bundan 2 barobar ko'p. Pensiyaga chiqishning minimal yoshi 60 yilni tashkil qiladi. Agar fuqaro 41 yil ishlagan bo'lsa, u to'liq miqdorda pensiya oladi. Agar mehnat staji kam bo'lsa, pensiya miqdori 1,25 foizga kamayadi. Agarda fuqaro 65 yoshida munosib tarzda nafaqaga chiqadigan bo'lsa, u holda u qachon mehnat faoliyatini boshlagandan qat'i nazar, o'z pensiyasini to'liq oladi. Fransiya Qariyalar ishlari bo'yicha vaziri Mishel Delone mamlakatda 60 yoshdan oshganlar umumiyligi aholi ulushida 23,4 foizni tashkil etayotganini ta'kidlar ekan, keksalarni ishlab chiqarishga faol jalb qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Ular istiqbolda davlat xizmatlari uchun, shuningdek, ko'plab kompaniyalar uchun ham foydali shaxslarga aylanishlari mumkin.

Shvetsiyada pensiyalar uch qismidan iborat: shartli-jamg'ariladigan; jamg'ariladigan va kafolatlangan. Birinchisi – ishlovchilar ish haqining 16 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan

shakllanadi va bu mablag'lar joriy iqtisodiy vaziyat va demografik holatdan kelib chiqib, indeksatsiyalanadi. Jamg'ariladigan qismi ham ishchilarining ish haqiga bog'liq bo'ladi, biroq, bu mablag'lar ishlovchining hisobraqamidagi real mablag'lar bo'lib, ushbu mablag'larni ishlovchi xodim nodavlat pensiya fondlari orqali investitsiyalashi mumkin.

Finlyandiya pensiya tizimida asosiy o'rinni "taqsimlovchi" pensiya tizimi egallaydi. Taqsimlovchi pensiya tizimi bazaviy va sug'urtaviy qismga bo'linadi. Bazaviy qism davlat pensiyasining minimal miqdorini kafolatlaydi. Mehnat pensiyasining sug'urtaviy qismi markazlashmagan bo'lib, sug'urta kompaniyasi yoki pensiya fondining tanlab olingan sxemasi bo'yicha badallar hisobiga shakllanadi. Sxemalar tarmoq, alohida korxona, ijtimoiy guruhlar doirasida bo'lishi mumkin. Sxemalar qisman fondlashtirilgan bo'ladi.

Norvegiyada pensiyalar har bir fuqaroga davlat tomonidan to'lanadi va uning miqdori mehnat stoji va ish haqi miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatda neftdan olingan yuqori daromadlar hisobidan shakllanadigan Pensiya fondi mavjud. Davlat ushbu fond mablag'larini dunyo bozorlarida ko'chmas mulk va fond bozoriga investitsiya qiladi. Norvegiyada (Skandinaviya mamlakatlaridagi kabi) pensiyaga chiqish yoshi ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham – 65-67 yoshni tashkil qiladi, biroq, hukumat hozirgi kunda pensiya yoshini 70 yoshga yetkazish choralarini ko'rmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat pensiya tizimi hamda xususiy pensiya tizimi amal qiladi. Shunga muvofiq ravishda AQSh fuqarolari o'zini bir emas, uch turdag'i pensiya bilan ta'minlaydi: davlat; xususiy jamoa (ish joyi bo'yicha) va xususiy individual (shaxsiy pensiya hisobraqami ochish yo'li bilan). Taqsimlovchi deb ataluvchi davlat pensiya tizimida pensionerlar hozirgi kunda faol ishlovchi fuqarolar tomonidan Pensiya fondiga to'lanadigan pensiya sug'urtasi badallari hisobiga pensiya oladilar. AQShda eng yirik davlat pensiya tizimi –

umumiy Federal dastur hisoblanib, ushbu dastur iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo‘lgan barcha aholini qamrab oladi va taqsimlovchi tamoyilga asoslanadi. Dastur 1935-yilda qabul qilingan “Ijtimoiy ta’milot to‘g‘risidagi Qonunga asosan amal qiladi va minimal pensiyani kafolatlaydi. Jamg‘ariluvchi tizimga esa davlat pensiya dasturlari bilan bir vaqtda xususiy pensiya dasturlari ham tegishlidir. Jamg‘ariluvchi tizimdagi davlat pensiya dasturlari markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida ishlaydigan fuqarolarga mo‘ljallangan. Iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlovchilar ish joyi bo‘yicha tashkil etiladigan qo‘srimcha davlat pensiya tizimida ishtirok etishlari mumkin. Dastur mablag‘lari belgilangan to‘lovlardan asosida ish beruvchilar tomonidan qilinadigan ajratmalar hisobidan shakllanadi, bunda ishlovchilar ishtirok etmaydi. Har bir Amerika fuqarosi tijorat va jamg‘arma banklarda, pay fondlarida, sug‘urta kompaniyalarida o‘zining shaxsiy pensiya hisobraqamini ochishi mumkin. Shaxsiy pensiya hisobraqamiga to‘lovlardan yillik miqdorining yuqori chegarasi cheklangan bo‘lib, 2000 AQSh dollarini tashkil qiladi. Ushbu hisobraqamdagagi mablag‘larni 59,5 yoshgacha yechib olish mumkin emas, 79,5 yoshga to‘lganda esa hisobraqam majburiy tartibda yopiladi. Hisobraqamdagagi ushbu mablag‘lar soliqqa tortilmaydi, ammo, bu mablag‘larni hisobraqamdan yechib olishda hamda hisobraqamni yopishda jamg‘arilgan mablag‘lardan daromad solig‘i olinadi. AQShda 1938-yilgacha tug‘ilgan shaxslar uchun pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Aholining hayot kechirish davomiyligi oshib borishi bilan Ijtimoiy ta’milot to‘g‘risidagi Qonunga tegishli o‘zgartishlar kiritildi va pensiya yoshi 67 yosh qilib belgilandi. AQSh pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi.


Chili pensiya tizimi dunyodagi innovatsion pensiya tizimlaridan biri hisoblanadi. Pensiya tizimining Chili modelida pensiya jamg‘armalari shakllanishining javobgarligi ishlovchi fuqarolar zimmasiga yuklatilgan. Har bir fuqaroning shaxsiy pensiya hisobraqami mavjud bo‘lib, ushbu hisobraqam ishlovchilar ish haqining oylik 10

foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan to'ldirib boriladi. Keyinchalik ushbu mablag'lar fuqarolar xohishiga ko'ra xususiy boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan kapitalizatsiya qilinadi. Chilida pensiya yoshi erkaklar uchun 65 yoshni, ayollar uchun 60 yoshni tashkil qiladi.

Pensiya ta'minoti modellarida davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy ta'minoti muhim o'rinni egallaydi. Yaponiya ikki pog'onali pensiya tizimiga ega. Birinchisi – bu bazaviy pensiya, ya'ni bu pensiyani millati, faoliyat turi, daromadi darajasidan qat'i nazar, mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar olish huquqiga ega. Bazaviy pensiyalar yoshga doir (65 yoshga to'lgan va sug'urta stagi mavjud bo'lgan), nogironlik hamda boquvchisini yo'qtganlik pensiyalariga bo'linadi. Ikkinchisi – davlat va kasb pensiyalari. Buni yollanma ishchilar bazaviy pensiyaga qo'shimcha tarzda oladilar. Yaponiyada pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Fuqaro mehnat faoliyatini davom ettirsa, pensiya miqdori har yili oshirib boriladi.

Xitoyda pensiyalarni dastlab xizmatchilari va davlat kompaniyalari ishchilari olishgan. Keyinchalik bu tizimga bozor islohotlari natijasida xususiy sektorda ishlovchi shahar aholisi ham jalb qilingan. 2007-yilda pensiya yoshidagi aholining 30 foizi pensiya olgan bo'lsa, qolganlarini an'anaviy tarzda farzandlari boqishgan. 2009-yilda Xitoy hukumati qishloq aholisi uchun ham pensiyalarni joriy qildi. 2012-yilda pensiya tizimi Xitoy aholisining 55 foizini qamrab oldi. Xitoyda 2013-yilda 60 yoshdan oshgan aholi soni 202 million kishi bo'ldi va aholi sonining 15 foizini tashkil qilmoqda. Aholining bu qatlami vakillari bilan ishslash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish, jamiyat hayotidan ajralib qolmasligini ta'minlash yuzasidan Xitoy keng ko'lamlı chora-tadbirlarni allaqachon boshlagan. Xitoyda pensiya badallari aholining qishloq joylarda yoki shaharda yashashiga, davlat tashkilotida yoki xususiy kompaniyalarda ishslashiga bog'liq bo'ladi. Davlat pensiyasi o'rtacha ish haqining 20 foizini tashkil qiladi. Qishloq joylarda pensiya miqdori dehqonlarning o'rtacha oylik daromadining 10 foizini tashkil qiladi.

Xususiy sektorda ishlovchilar ish haqining 8 foizini Pensiya fondiga yo'naltiradi, yana 3 foizini ish beruvchi to'laydi. Xitoyda erkaklar 60 yoshdan pensiyaga chiqadi. Boshqaruv sohasida faoliyat ko'rsatuvchi ayollar 55 yoshdan, jismoniy mehnat bilan mashg'ul ayollar 50 yoshdan pensiyaga chiqadi. Pensiya olish uchun mehnat stoji 15 yilni tashkil qiladi.



6.1-rasm. Dunyo mamlakatlariada pensiyalarning o'rtacha miqdori³⁷, 2015-yil. (AQSh dollari hisobida)

Ko'pchilik taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya ta'minoti o'ziga xos jamg'ariladigan tizimiga ega. Odatda, bu tizimda 40 foiz aholi ishtirok etadi. Ayrim mamlakatlarda (masalan, AQShda) bu ko'rsatkich 80 foizga yaqin. Shunga mos ravishda pensiyaning o'rtacha miqdorlari ham har bir davlatda turlicha (5.1-rasm).

Finlyandiyada 2015-yilda pensiyaning o'rtacha miqdori ish haqining 58 foizini, ya'ni 1982 AQSh dollarini tashkil qilgan.

Germaniyada pensiyaning o'rtacha miqdori 2015-yilda 1400 AQSh dollarini tashkil qilgan. Agar pensioner mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan

³⁷ <http://pensia-expert.ru/materialy/razmery-pensij-i-pensionnye-vозрасты-в-других-странах>.

davrda ishsiz bo'lsa yoki unga hisoblangan pensiya yashash minimumidan kam bo'lsa, davlat ushbu farqni qoplab beradi. Shuningdek, davlat pensionerlarning communal xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

AQShda pensiyaning o'rtacha miqdori 1200 AQSh dollarini tashkil qiladi va bu miqdor o'rtacha ish haqining 50 foizini tashkil qiladi. Ishchilar o'z daromadlarining 7,5 foizini, ish beruvchilar ham 7,5 foizini Pensiya fondiga o'tkazib boradi. Nodavlat sektorda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlar, advokatlar va boshqalar mustaqil tarzda 15 foiz mablag'ni Pensiya fondiga o'tkazadi.

6.1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi va pensiyaga chiqish yoshi³⁸

Nº	Mamlakat	Pensiyaga chiqish yoshi erkak/ayol	Yashash davomiyl igi	Nº	Mamlakat	Pensiyaga chiqish yoshi erkak/ayol	Yashash davo- miyliги
1.	Daniya	67	78		Italiya	67/65	80
2.	Norvegiya	67	80		Vengriya	62	73
3.	Germaniya	67	79		Polsha	65/65	76
4.	Ispaniya	65	80		Rossiya	60/55	66
5.	AQSh	65	78		Qozog'iston	63/58	68
6.	Shveytsariya	65/64	81		Ozarbayjon	62/57	67
7.	Shvetsiya	65	81		Belarus	60/55	71
8.	Yaponiya	70	82		Ukraina	60/55	69
9.	Angliya	68/60	79		Moldova	62/57	71
10.	Fransiya	67/65	81		O'zbekiston	60/55	72
11.	Kanada	65	81		Gruziya	60/55	77

Gretsiyada 2015-yilda pensiyaning o'rtacha miqdori 573 AQSh dollarni, Ukrainada 52, Belorussiyada 175, Qozog'istonda 250,

³⁸<http://pensia-expert.ru/materialy/razmery-pensij-i-pensionnye-vозрасты-v-drugix-stranax>.

Armanistonda 100, Bolgariyada 140, Gruziyada 60, Latviyada 335, Estoniyada 255 AQSh dollarini tashkil qiladi.

Hozirgi kunga kelib, ko‘pchilik mamlakatlarda pensiyaga 65 yoshdan chiqiladi (5.1-jadval). Yevropa va AQShda yaqin yillar ichida bu chegarani 70 yosh qilib belgilash nazarda tutilmoqda. 2005-yildayoq Yevrokomissiya Yevropa Ittifoqi mamlakatlari pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib borish zarurligi bo‘yicha tegishli tavsiyalar bergen. 2060-yilga borib iqtisodiy nuqtayi nazardan optimal variant 70 yosh atrofida bo‘ladi.

Rossiyada pensiya yoshi 2015-yilda erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yoshni tashkil etar edi. Lekin, ushbu mamlakatda ham pensiya yoshini bosqichma- bosqich oshirib borish jarayoni boshlandi va 2016-yilda erkaklar 61 yoshda, ayollar 56 yoshdan pensiya chiqishi va shu zaylda davom etib, 2020-yilga borib erkaklarning 65 yoshda, ayollarning 60 yoshda pensiyaga chiqishi qonunan belgilab qo‘yildi.

6.3. Pensiya ta’minotining holatini ko‘rsatuvshi ko‘rsatkichlar

Pensiya to‘lovlарини тақдим этиш шартлари ва ме’yorларининг, мamlакатдаги demografik va iqtisodiy ahvolning pensiya tizimларининг moliyaviy holatiga ta’sirini o‘lchash va baholash maqsadida bir qator ko‘rsatkichlardan foydalанилади, ular o‘z navbatida pensiya tizimi moliyaviy mexanizmlарини tushunish va tizimning kelgusидаги darомад ва xaratjatларини baholashга yordam berади.

Qamrov koeffitsiyenti (K1) sug‘urtalangan aholi ulushini hamda sug‘urtaga tortilgan mehnat haqi daromadлari darajasini ko‘rsatадиган ko‘rsatkich bo‘lib, pensiya tizimлари tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoyaning samaradorligini belgilash imkonini berади. Bu ko‘rsatkichni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$K1 = \frac{\text{sug‘urtalangan aholi soni}}{\text{ish bilan band aholi soni}} \text{ yoki } K1 = \frac{\text{su‘urtalangan daromadlar}}{\text{aholining barcha daromadлari}} \quad (6.1)$$

Formuladan ko'rinib turganidek, sug'urta bilan qamrab olingan aholi soni (yoki aholi daromadlari) qancha ko'p bo'lsa, K1 koeffitsiyent 1 ga shuncha yaqin bo'ladi va pensiya tizimining ijtimoiy himoya qilish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi.

Bosim koeffitsiyenti (K2) pensiya va nafaqalar oluvchilar sonining sug'urtalangan (real sektorda ishlovchi) aholining umumiy sonidagi ulushi kabi aniqlanadi. Uning sondagi ifodasi pensiya yoki nafaqalarni olish huquqini beruvchi shartlarga, shuningdek, mehnat staji hamda aholining yosh tarkibiga (yoshga doir pensiyalar bo'yicha) bog'liq bo'ladi:

$$K2 = \frac{\text{sug'urtalangan aholi soni}}{\text{pensiya va nafaqa oluvchilar soni}} \quad (6.2)$$

Masalan, O'zbekistonda bosim koeffitsiyenti quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: 1992-yilda 1 pensionerga - 3,7 ishlovchi, 2001-yilda - 3,4 ishlovchi to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 3,9 ni tashkil qilmoqda³⁹. Pensionerlar ulushining ko'payishi bilan pensiya jamg'armalariga mablag' to'lab boradigan mehnatga qobiliyatli aholi salmog'i qisqaradi, buning natijasida esa pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash xarajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi.

Pensianing absolut miqdori – pensianing pul birligida ifodalangan miqdori bo'lib, odatda bu miqdor pensiya oluvchining yashash minimumi bilan solishtiriladi va pensionerning moddiy ahvolini belgilab beradi. Bu ko'rsatkich pensianing xarid qobiliyatini ko'rsatadi hamda pensionerning muhtojlik darajasini belgilab beradi, uning miqdoriga qarab mahalliy va markaziy boshqaruv darajasida pensionerlarga yordam berish uchun zarur resurslar hajmi aniqlanadi, yordamning miqdori va ko'lamlari belgilanadi.

³⁹ "Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: "Universitet". 2014.

Qoplash koeffitsiyenti – individual sug‘urta to‘lovlari o‘rtacha darajasining o‘rtacha mehnat haqi darajasiga nisbatini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkichning iqtisodiy ma’nosi shundaki, pensiya miqdori xodimning oldin olib yurgan ish haqisining qancha qismini qoplay olish darajasini ifodalaydi.

Pensiya ta’minti milliy g‘oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o‘n yilliklar mobaynida ko‘p mamlakatlar o‘zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan isloh qilish zarurati bilan to‘qnash kelmoqdalar.

XXI asr boshlarida jahon mamlakatlarida avlodlar birdamligi va jamg‘arish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past ish haqi oluvchi xodimlar birdamligiga asoslangan va u birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladi. Birdamlik pensiya tizimi davlatga tegishli bo‘lib, uni korxona yoki bir tarmoq miqyosida tashkil etish mumkin emas. Birdamlik tizimining muhim jihatni shundaki, u qayta taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi uchun pensionerlar o‘rtasida qashshoqlikni jiddiy kamaytiradi.

Avlodlar birdamligi tamoyiliga qurilgan O‘zbekiston Respublikasining pensiya tizimi ham oxirgi yillar davomida qator o‘zgarishlarni boshidan kechirdi, bu o‘zgarishlar birinchi navbatda mamlakat iqtisodiyotini bozor sharoitlariga moslashtirish va bozor munosabatlariaga o‘tish bilan bog‘liq bo‘ldi. Jahon amaliyoti asosida davlat pensiya tizimining moliyaviy resurslari davlatning mustaqil byudjetdan tashqari fondiga – Pensiya jamg‘armasiga biriktirildi, pensiya ta’mintida sug‘urtaviy tamoyillar mustahkamlanib bordi, butunlay yangicha bo‘lgan jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minti tizimi shakllandi.

Shu bilan bir qatorda, mustaqillik yillarida mamlakatimiz pensiya tizimining tashkiliy va qonuniy-huquqiy asoslari ham shakllanib, takomillashib bordi. Bu boradagi dastlabki qadam bo‘lib O‘zbekiston

Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni (1993-yil 3-sentabr) ning qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu qonun va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan boshqa me’yoriy hujjatlar amaldagi pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etdi. Bu qonunning mohiyatini pensionerlarning jamiyatda tutgan o‘rni, bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog‘liqligini ta’minlash tashkil etadi.

6.4. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining rivojlanish bosqichlari

Mamlakatimiz pensiya ta’minoti tizimi taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

I-bosqich: 1917–1956-yillar. Bu bosqichning dastlabki yillarda, xususan, 1917–1919-yillarda pensiya ta’minoti yuzasidan 50 dan ortiq dekret qabul qilingan, bu hujjatlarning asosiy g‘oyasi mehnatga qobiliyatsizlarni ijtimoiy jihatdan ta’minlashni jamiyat zimmasiga yuklashdan iborat bo‘lgan. 1930-yilda “Pensiyalar va ijtimoiy ta’minot bo‘yicha nafaqalar to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqilgan, 1956-yilda “Davlat pensiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingunga qadar pensiyalar shu nizom asosida to‘lab kelingan. Mazkur nizomga muvofiq, pensiya bilan ta’minlanish huquqiga faqat mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo‘lgan shaxslargina ega bo‘lgan. Bu bosqichning xususiyati yagona pensiya ta’minoti tizimining mavjud bo‘lganligi bilan tavsiflanadi. Bu davrda pensiyalar har bir tarmoq uchun belgilangan alohida tartib asosida tayinlangan. Pensiya ta’minoti rivojlanishining ushbu bosqichiga xos muhim jihatlardan biri, ikkinchi jahon urushi davrida pensiyaga oid qonun hujjatlari harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini pensiya ta’minoti haqidagi yangi qaror bilan to‘ldirildi va takomillashtirildi. Bu tadbirning ahamiyatli jihat shunda bo‘ldiki, bu toifadagi fuqarolar pensiya tizimining daromad qismida

ishtirok etmagani holda, xarajatlar qismida ishtirok etishi muayyan tortishuvlarga sabab bo‘ldi, bu boradagi bahslashuvlar hozir ham davom etmoqda. Bu bosqichda muhim bir tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan qaror qabul qilindi, unga ko‘ra, pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilandи.

2-bosqich: Davlat pensiya ta’minoti shakllanishining ikkinchi bosqichi 1956-yilda qabul qilinib, 1991-yilga qadar amal qilgan “Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi va ilk bor yagona pensiya tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun pensiyalarni tayinlash, hisoblab chiqish va to‘lashning yagona tartibini belgilab berdi. Mazkur qonunda o’sha davrdagi kolxozlar – jamoa xo‘jaliklarida ishlaydigan fuqarolarning pensiya ta’minoti nazarda tutilmagan. Jamoa xo‘jaliklari a’zolarining pensiya ta’minoti mahalliy miqyosda, ya’ni xo‘jaliklararo pensiya jamg‘armalari tuzish yo‘li bilan hal qilingan va faqat 1964-yilga kelibgina pensiya ta’minoti aholining barcha qatlamlarini qamrab oldi va shu asosda yagona penisiya ta’minoti tizimi to‘liq shakllantirildi.

3-bosqich ijtimoiy ta’minot tizimida islohotlarning boshlanishi va unga asos bo‘lib xizmat qilgan “SSSRda fuqarolarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunning 1990-yilda qabul qilinishi bilan belgilanadi. Ushbu qonunning qabul qilinishiga avvalgi pensiya qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartiblar bilan jamiyatda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo‘lib, ijtimoiy iste’mol fondlari hisobiga pensiya ta’minotini davlat tomonidan kafolatlash imkonи bo‘lmay qolganligi obyektiv zaruriyatni keltirib chiqardi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, amaliyotda ilk bor pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy pensiyalar va daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo‘ldi. Uchinchi bosqichda teng taqsimlash tamoyilidan chekinib, pensiya ta’minotining mehnatning miqdori va sifatiga bog‘liqligini ta’minlashga urinib ko‘rildi.

O‘sha davrgacha amalda bo‘lgan pensiya tizimida fuqarolarga ishlagan davri muddatidan qat‘i nazar, bir miqdorda keksalik pensiyasi

tayinlagan bo'lsa, yangi qonunda esa ko'p ish staji yuqori bo'lgan fuqarolarga pensiya ta'minotida ustunlik berildi. Mazkur qonunda pensiya miqdorini aniqlash uchun oylik ish haqi darajasi mezon sifatida qabul qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning pensiya ta'minoti tarixining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini o'rganishda uning sobiq Ittifoq tarkibida bo'lib, Ittifoq qonunlari bo'yicha amalga oshirilganligiga guvoh bo'llish mumkin. Lekin hozirgi O'zbekistonning hududida tarkib topgan davlatchilik, davlat moliyasi va ijtimoiy ta'minot masalalarini o'rganishda o'zbek xalqining tarixi O'rta Osiyo xalqlari tarixining bir bo'lagi bo'lib, u o'ziga xos tarzda og'ir va murakkab yo'llarni bosib o'tganligini unutmasligimiz lozim. O'zbek xalqining turmush-tarzi, diniy axloq-odobi, urf-odati hamda qadimiy an'analari fuqarolarni qadimdan ma'lum darajada ijtimoiy himoyada bo'lganligidan dalolat beradi. Lekin bunday ijtimoiy yordam barcha muhtoj qatlamlarni to'liq qamrab olmagan hamda doimiy xarakterga ega bo'limgan.

Turkiston O'lkasi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylantirilgan va imperator tomonidan boshqarilgan. Imperatorlik tomonidan ijtimoiy ta'minot masalasi yuzasidan mahalliy xalqqa tegishli bo'lgan hech qanday farmonlar qabul qilinmagan.

Chor hokimiysi davrida 1882–1909-yillarda Sirdaryo viloyati bo'yicha 14 kishiga, Farg'ona viloyati bo'yicha 9 kishiga, Samarcand viloyati bo'yicha 2 kishiga pensiya tayinlangan bo'lib, bular ham xonning qarindoshlari, yuzboshi va imperatorning homiylari edi.⁴⁰

Chor hukumati mahalliy xalqdan vaqf soliqlarini yig'ib olgan bo'lsa ham, uning bor yo'g'i 1 foizgacha bo'lgan miqdori pensiya tayinlash uchun sarflangan, sog'liqni saqlash, maorif, ijtimoiy ta'minot masalalariga umuman e'tibor berilmagan.

⁴⁰ Xaitov A., Ziyadullayev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Adolat". 2009. 15-b.

Turkiston o'lkasida 1917-yildan keyin ijtimoiy himoya masalasi bo'yicha oziq-ovqat bilan ta'minlash Xalq Komissarligi tuzildi. 1917-yildan 1922-yilgacha bo'lgan davrda ijtimoiy ta'minot masalasiga tegishli yuzdan ortiq dekret va qarorlar qabul qilingan. Turkiston Respublikasi markazdan boshqarilishi munosabati bilan respublikada yuqoridan qabul qilingan qaror va farmonlar asosida ijtimoiy ta'minotga doir farmoyishlar qabul qilingan.

1918-yil 13-mayda 241-sonli qaror bilan Davlat Xalq komissarligi nomi o'zgartirilib, Xalq ijtimoiy ta'minot bo'limi nomi bilan Mehnat Komissarligiga qo'shildi, 1919-yil noyabrdan esa Ijtimoiy ta'minot Xalq komissarligi mustaqil organga aylandi.

O'sha davrdagi iqisodiy ahvol, urush oqibatlari natijasida yuzaga kelgan ocharchilik, ishsizlik, yetim bolalar ahvoli, buning ustiga Turkiston Respublikasiga Qozog'iston va Rossiyaning turli shaharlaridan och qochoqlarning ko'plab oqib kelishi respublikada maxsus organ bo'lishini va bu organ ijtimoiy himoya masalasi bilan shug'ullanishini taqozo etar edi. Bu organ Rossiya ijtimoiy ta'minot Komissariatining qo'llanma va ko'rsatmalari asosida ish yuritardi. Asosiy vazifa inqilob himoyachilariga, ularning oilalariga, Qizil armiya safida nogiron bo'lganlarga va vafot etganlarning oila a'zolariga nafaqa tayinlash edi.

1918-yil 31-oktabrda qabul qilingan pensiya ta'minoti to'g'risidagi Nizomga va Turkiston markaziy Ijroqo'mining 1920-yil 3-yanvardagi 165-sonli buyrug'iga asosan, I-guruh nogironlariga o'rtacha ish haqining 1,5 barobari, I-guruh nogironlariga o'rtacha ish haqi, III-guruh nogironlariga o'rtacha ish haqining 75 foizi, VI-guruh nogironlariga o'rtacha ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya tayinlanadigan bo'lgan.

1920-yil 20-yanvardagi 185-sonli qarorga asosan, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining miqdori bir kishiga o'rtacha ish haqining 60 foizi, ikki kishiga 75 foizi, uch kishi va undan ortiq bo'lganda 100 foiz miqdorida qilib belgilangan.

Pensiya miqdorlari jamiyat taraqqiyotidagi o'sish yoki pasayishlarga qarab o'zgarib turgan. Ilk bor o'rtacha pensiya miqdori 10 so'm, keyinchalik 13 so'm, 18 so'mni tashkil qilgan. Nogironlik pensiyasi I-guruuhga 12 so'm, II-guruuhga 9 so'm, III-guruuhga 6 so'm etib tayinlangan.⁴¹

Bu davrda nafaqat pensiya, balki oziq-ovqat, kiyim-kechak yetkazib berishda ham ko'p qiyinchiliklarga duch kelingan. 1923-1924-yillarda Markazdan va qurg'oqchilik bo'lган o'lkalardan aholining Turkistonga ko'chib kelishi, ocharchilikning yuzaga kelishi, ijtimoiy ta'minlash, oziq-ovqat, turar-joy, ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadida alohida komissiya tuzilib, mablag'lar davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshirilgan.

Asta-sekin xalq xo'jaligining alohida tarmoqlaridagi shaxslarga nisbatan qarilik pensiyalari joriy qilina boshlandi. 1930-yil 13-fevralda SSSR XKS ning "Ijtimoiy ta'minot bo'yicha pensiya va nafaqalar to'g'risida"gi Nizomi bilan davlat pensiyalari tartibga solina boshlandi. Ushbu Nizomning birinchi bo'limi nogironlik pensiyalariga bag'ishlangan bo'lib, umumiy kasallik bo'yicha nogironlik pensiyasi ish stajiga qarab, agar mehnatda mayiblansa yoki kasb kasalligiga uchrasa, ish stajidan qat'i nazar, I-guruh umumiy kasallikdan nogiron bo'lganlarga - o'rtacha oylik ish haqining uchdan ikki qismi, mehnatda mayiblanganlarga 100 foizi, boshqa guruh nogironlariga qisqartirilgan miqdorlarda tayinlanadigan bo'ldi. Ushbu Nizomning ikkinchi bo'limi bo'yicha ishlab turib, vafot etgan shaxslarning qaramog'ida bo'lган oila a'zolariga umumiy kasallikdan vafot etganda, oilada ikkita a'zo bo'lsa, marhumning o'rtacha ish haqining to'qqizdan to'rt qismi mehnatda mayiblanib, vafot etganlarning oila a'zolariga o'rtacha ish haqining to'rtdan uch qismi miqdorida boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari belgilandi. Uchinchi bo'lim yoshga doir pensiyalarga tegishli bo'lib, umumiy pensiya yoshi erkaklarga 60 yosh, ayollarga 55 yosh qilib, talab qilingan ish staji erkaklar uchun 25 yil, ayollar uchun 20 yil qilib,

⁴¹ Xaitov A., Ziyadullayev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Adolat". 2009. 18-b.

pensiya miqdori esa o‘rtacha ish haqining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdor qilib belgilandi.

1929-yil 3-iyuldagি farmonga asosan o‘qituvchilarga, 1930-yil 22-sentabrdagi farmonga asosan, qishloq xo‘jaligidagi agronomlarga, 1929-yil 25-sentabrdagi farmonga asosan qishloq joylaridagi tibbiy va veterenariya xodimlariga, 1933-yil 17-oktabrdagi farmonga asosan, fuqarolik aviatsiyasi xodimlariga ko‘p yillik xizmat qilganlik pensiyalari joriy qilinib, tayinlana boshlandi.

Ikkinci jahon urushi yillarida esa harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolariga pensiya va nafaqalar tayinlash to‘g‘risida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Bolali ayollarga, ko‘p bolali va yolg‘iz onalarga davlat yordamini kuchaytirish maqsadida nafaqalar joriy qilindi.

1944-yil iyuldagи farmonga asosan “Onalik medali”, “Onalik shuhrati” ordeni, “Qahramon ona” faxriy unvonlari joriy qilindi. 1947-yildan boshlab ko‘p bolali onalarga nafaqalar tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizom amal qila boshladi.

1956-yil 14-iyulda “Davlat pensiyalari to‘g‘risida”gi birinchi qonun qabul qilindi. Bu qonunga asosan ilgari ham farmon va qarorlar asosida tayinlanib kelinayotgan pensiyalarning barcha turlari yagona qonunga asoslanib tayinlanadigan bo‘ldi. Lekin bu qonun faqat ishchi va xizmatchilargagina nogironlik, qarilik, boquvchisini yo‘qotganlik, ko‘p yillik pensiyalarini tayinlashni ko‘zda tutgan edi.

1964-yil 15-iyulda “Kolxoz a’zolariga pensiya va nafaqalar tayinlash to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan kolxozchilarning markazlashtirilgan ijtimoiy ta’minot jamg‘armasi tashkil qilindi va kolxoz a’zolari shu jamg‘arma hisobidan 1965-yil 1-oktabrdan boshlab pensiyalar bilan ta’mirlana boshladilar.

1968-yil 1-yanvardan boshlab kolxozchilarning pensiya yoshi ishchi-xizmatchilarnikiga tenglashtirildi va I-, II-guruh nogironlarining pensiyalari miqdorlari oshirildi. Shu davrdan boshlab III-guruh mehnatda mayiblangan kolxoz a’zolariga ham nogironlik pensiyalari tayinlanadigan bo‘ldi. 1972-yil 3-avgustda “Davlat pensiyalarini

tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilinib, pensiyalarni hisoblab chiqarish tartibiga bir nechta o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu Nizom 1974-yildan yoshga doir pensiyaning eng kam miqdorini 45 so'm qilib belgiladi.

1990-yilgacha bo'lgan davrda Ikkinchı jahon urush nogironlari, urushda halok bo'lganlar oila a'zolarining pensiya miqdorlarini oshirish va ularga imtiyoz va yengilliklar belgilash to'g'risidagi bir qancha qarorlar, farmonlar qabul qilindi.

1989-yil 1-avgustda "Aholining pensiya ta'minoti va ijtimoiy xizmatning kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlari to'g'risida"gi kichik qonun qabul qilindi va shu davrdan boshlab shahar va qishloq o'rta sidagi tafovutga barham berilib, ishchi va xizmatchilarga hamda kolxozchilarga shu qonun asosida bir xilda pensiyalar tayinlana boshlandi, shu davrgacha bo'lgan qonunlar o'z kuchini yo'qotdi. Ijtimoiy ta'minotdan barcha fuqarolar teng foydalana boshladilar.

Mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlari sharoitiga o'ta boshlashi pensiya ta'minoti sohasini qayta ko'rib chiqishni, unda islohotlarni amalga oshirish zarurligini taqozo qildi. Shu munosabat bilan 1990-yil 15-mayda "SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, 1991-yildan kuchga kirdi. Qonun asosida pensiya sohasida islohotlar boshlanib, davlat ijtimoiy ta'minoti, ijtimoiy pensiyalar, daromadlar indeksatsiyasi kabi yangi tizimlar amal qila boshladi. Bu Qonun mustaqil respublikamizning pensiya munosabatlari borasidagi o'zining mustaqil qonuni qabul qilingunga qadar 1994-yil 1-iyulgacha amalda bo'ldi.

1990-yil 28-aprelda "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlariga pensiyalar shu qonunga asosan tayinlanib, bu qonunga hozirgi kunda ham amal qilinib kelinmoqda.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Pensiya ta'minotining mohiyati, zarurligi va davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati nimada?
2. Turli mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanishi va rivojlanishini izohlab bering.
3. Pensiya ta'minotining holatini qanday ko'rsatkichlar bilan baho-lash mumkin?
4. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari.

7-BOB: DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI, ULARNI TAYINLASH, HISOBBLASH VA TO'LASH TARTIBI



Keyword

Tayanch so‘z va iboralar: *davlat pensiyalarining turlari; pensiyalar; ijtimoiy nafaqalar; kompensatsiya to‘lovlari; pensiyalarini tayinlash; pensiyalarini hisoblash; pensiyalarini to‘lash; regress da‘vo arizalari; regress talabnomा.*

7.1. Davlat pensiyalarining turlari

O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish budgetdan tashqari Pesiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko‘rsatilgan turdagи pensiya va nafaqalarni to‘lash uchun sarflanadi (7.1-rasm):

a) ishlamaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta’minotiga huquqi bo‘limgan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;


– qonun hujjatlariga muvofiq Jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;

- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo‘sishimcha dam olish kuni uchun to‘lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlar.

Ishlaydigan va *ishlamaydigan pensionerlarga* davlat pensiyalarining barcha turlari, ya’ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo‘qtganlik pensiyalari to‘lanadi.



7.1-rasm. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi⁴²

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom asosida tuzildi.

Yoshga doir pensiyalar. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar - 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda, ayollar - 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 5 yil ish staji mavjud bo‘lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari. Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog‘lig‘ini yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat‘i nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar (fuqaroning necha yoshda bo‘lganida necha yillik zarur ish stajiga ega bo‘lishi kerakligi Qonunda belgilangan) mavjud ish stajiga ega bo‘lgan taqdirda tayinlanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan oilaning mehnatga qobiliyatsiz a’zolari

hisoblanadigan boshqa a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'iда turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarni olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar, ularni tayinlash va to'lash tartiblari haqida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlarda batafsil berilgan.

Dafn marosimi uchun nafaqalar – O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi 2010-yil 27-dekabrdagi O'RQ-276-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyunda qabul qilingan 174-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu hujjatga muvofiq, nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lmanan taqdirda esa – dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmanan shaxslarga beriladi.

Ushbu nafaqa:

- davlat pensiyasini oluvchi pensioner;
- davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi fuqaro;
- xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi;
- bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim);

– ish bilan band bo’lgan yoki band bo’lmasagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo’lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda tayinlanadi.

Ushbu ko’rsatilgan shaxslar vafot etganda nafaqa O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limlari tomonidan tayinlanadi. Faqatgina xodim yoki uning qaramog’idagi oila a’zosi vafot etganda nafaqa korxona, muassasa yoki tashkilot tomonidan Nizomda belgilangan tartibda tayinlanadi.

Ilgari pensioner vafot etgan taqdirda, uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o’tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining uch baravaridan oz bo’lmasagan miqdorda dafn etish nafaqasi to’lanardi. 2014-yil 4-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2015-yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun bilan kiritilgan o’zgartirishga muvofiq, 2015-yil 1-yanvardan e’tiboran dafn etish nafaqasi aniq miqdorda — *eng kam oylik ish haqining 4 barvari miqdorida beriladi*. Mazkur nafaqa pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilgan taqdirda olinadi.

Dafn etishga nafaqa tayinlash va to’lash tartibi to’g’risidagi nizomning 26-moddasiga asosan, mazkur nafaqa pochtaning tarkibiy bo’linmasi tomonidan Pensiya jamg’armasi bo’limi tomonidan taqdim etilgan vedomost va ariza beruvchining pasporti asosida naqd pul mablag’lari bilan to’lanadi.

Davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'Imagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'Imagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida tayinlanadi va to‘lanadi.

Bunday toifadagi fuqarolarga:

- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari);
- boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqalar ish stajiga ega bo'Imagan, shuningdek, 5 yildan kam ish staji mavjud bo‘lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'Imagan shaxslarga: erkaklarga - 65 yoshga yetganlarida, ayollarga – 60 yoshga yetganlarida mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlari, qarindoshlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'Imagan taqdirda tayinlanadi.

Nogironlik nafaqalari nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'Imagan I va II guruh nogironlarga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda tayinlanadi va to‘lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq

muddat yo‘qotilganda) Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari yo‘llanmalari bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi – “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lman shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga layoqatli bo‘lman a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a’zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a’zosiga – nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a’zosiga – nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a’zosiga – nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo‘lgan oila a’zolarining barchasiga belgilangan miqdorda bitta umumiy nafaqa tayinlanadi. Oila a’zosining talabiga ko‘ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to‘lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumiy miqdori oluvchilarning umumiy soniga bo‘linadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lman, nafaqalarning har xil turlarini olish huquqiga ega bo‘lgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ularning tanlovi bo‘yicha nafaqalarning bir turi tayinlanadi.

7.2. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarini moliyalashtirish

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarini moliyalashtirish uchun Jamg‘armaning hududiy bo‘linmalari tomonidan G‘aznachilikning bo‘linmalarida hisobraqamlari ochiladi.

Jamg‘armaning hududiy boshqarmalari to‘lov to‘lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlari to‘lash uchun mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg‘armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati Jamg‘arma xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda:


- joriy to‘lov oyining 15-kunigacha – o‘tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani;
- joriy to‘lov oyining 27-kunigacha – amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi.

Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlari uchun mablag‘larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisobraqamlariga o‘tkazadi.

Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo‘yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo‘srimcha dam olish kunlari uchun va

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni to'lashga mablag'larni moliyalashtiradi.


Jamg'armaning hisobraqamlaridan mablag'larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o'tkazish va vaqtincha olib qo'yish taqiqlanadi.



7.2-rasm. Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va nafaqalarni to'lash tartibi⁴³

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizom asosida tuzildi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman/shahar bo'limi jamg'armaning tuman bo'limi tomonidan to'lanadigan to'lovlar bo'yicha har oyning 1-sanasiga qadar tezkor hisobotlar tuzadi. Unda har oyning boshiga tuman Pensiya jamg'armasi budgetida qolgan mablag'lar qoldig'i, shuningdek, bir qator nafaqalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun respublika budgetidan ajratmalar bo'yicha oy boshiga qoldiq, shuningdek, hisobot davri davomida amalga oshirilgan xarajatlarning pensiyalar va nafaqalar turlari bo'yicha miqdorlari aks ettiriladi.



7.3-rasm. Mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalarini to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi⁴⁴

⁴⁴ "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq pensiyalarini to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tuzildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bir qator to'lovlari pensiya jamg'armasiga boshqa manbalardan qoplab beriladi. Bu ish Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 23-dekabrdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq pensiyalarini to‘lashga xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga ko‘ra:

- xodimlarning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik pensiyalarini;
- mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlarga tayinlangan pensiyalarini;
- texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslar: erkaklar – 58 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar - 53 yoshga to‘lganda va ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda tayinlangan pensiyalarini to‘lashga yo‘naltirilgan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag‘larini qoplash korxonalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda korxona va tashkilotlar xodim Qonunda nazarda tutilgan pensiya yoshiga yetguniga qadar Qonunga muvofiq tayinlangan pensiyalar bo‘yicha pensiyalar to‘loviga xarajatlarni qoplaydigan to‘lovni 100 foiz

miqdorida, lekin Nizomda nazarda tutilgan minimal miqdordan kam bo‘limgan miqdorda Pensiya jamg‘armasiga o‘tkazadilar.

Misol uchun *mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik pensiyalarini to‘lashga xarajatlarni qoplash tartibi* quyidagicha:

Pensionerning yashash joyi bo‘yicha Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi har oyda keyingi oyning 1-sanasiga qadar korxona yoki tashkilotga mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik pensiyalarini to‘lashga xarajatlarni qoplash to‘g‘risida *regress talabnomani* yuboradi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi uchun javobgar tashkilot tugatilgan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) tashkilotning tugatish kuniga tayinlangan pensiya miqdorida kapitallashtirilishni hisobga olgan holda ajratmalarni majburiy ravishda yuqorida nomi keltirilgan Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Masalan, mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo‘yicha pensiyalarini to‘lashga:

– agar nogironlik muayyan davrga belgilangan bo‘lsa, nogironlikning amal qilish muddatiga, biroq kamida besh yil uchun;

– agar nogironlik muddatsiz belgilangan bo‘lsa, ajratmalarni hisoblab chiqish sanasida xodimlar O‘zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko‘rish yoshiga yetgungacha bo‘lgan muddatga belgilanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari bo‘yicha mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolariga nisbatan:

– o‘n sakkiz yoshga yetmagan oila a’zolariga – ular ushbu yoshga yetgunlariga qadar;


– vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini boqish bilan mashg‘ul bo‘lgan oila a’zolariga – boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralar, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar;

– ota, ona, o‘gay ota, o‘gay ona, xotin, erga – agar ular Qonunda nazarda tutilgan pensiya yoshiga to‘lgan yoki nogiron bo‘lsalar, shuningdek buva va buviga – agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo‘lgan kishilar bo‘lmasa, ajratmalarни hisoblab chiqish sanasida ular O‘zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko‘rish yoshiga yetgunga qadar bo‘lgan muddatga.

Agar O‘zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko‘rish yoshi va mehnat vazifalarini bajarishda mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida boquvchisini yo‘qotganlik va nogironlik pensiyasiga huquqi bo‘lgan fuqaro yoshi o‘rtasidagi farq 5 yildan kam bo‘lsa, shuningdek, agar fuqaroning yoshi O‘zbekiston Respublikasida kutilayotgan umr ko‘rish yoshidan ko‘p bo‘lsa, u holda mablag‘lar kamida 5 yil uchun to‘lanishi lozim.

Shuningdek, ishsiz maqomiga ega bo‘lgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalar to‘lashga xarajatlar ham boshqa manbalardan qoplanadi. Bunda Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari har oyda muddatidan oldin yoshga doir pensiyalar tayinlangan shaxslarning ro‘yxatini, amalga oshirilgan xarajatlarni ko‘rsatgan holda, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

vazirligining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy Bosh boshqarmalari Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tegishli tuman (shahar) markazlariga yetkazadilar.



7.4-rasm. Ishsiz maqomiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalar to'lashga xarajatlarning qoplanishi⁴⁵

Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari har oyda pensiya to'langan oydan keyingi oyning 15-sanasigacha Pensiya jamg'armasiga

⁴⁵ "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq pensiyalarini to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tuzildi.

ushbu xarajatlarni qoplovchi mablag‘larni ishsiz Qonunda belgilangan pensiya yoshiga yetguniga qadar o‘tkazadilar.

Pensioner hisobda turgan joy bo‘yicha Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi o‘zining bu xarajatlar bo‘yicha Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining qarzdorligi summalarini haqidagi ma’lumotlarni davlat soliq xizmati organiga har oyda oyning 15-sanasigacha taqdim etadilar.

Pensioner hisobda turgan joy bo‘yicha Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari mazkur pensiyalarni to‘lashga ketgan mablag‘larni Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlaridan, ular tomonidan o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq regress da’vo arizalari bo‘yicha undirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning salomatligiga putur yetganligi, zararli mehnat sharoitlarida ma’lum muddat oralig‘ida ishlaganligi, muddatidan oldin pensiyaga chiqarib yuborilishi yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar natijasida Byujetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalar tayinlanganda Jamg‘armaning bu maqsadlardagi to‘lovlari pensiya munosabatlarining boshqa subyektlaridan, xususan, korxonalar va tashkilotlardan, Aholi bandligiga ko‘maklashish xizmati tashkilotlaridan va boshqa javobgar shaxslardan Pensiya jamg‘armasiga qoplab beriladi. Bu borada tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liqlilagini ta’minalash maqsadida Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlari va davlat soliq xizmati organlari axborot almashinuvi bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradilar.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Davlat pensiyalarining qanday turlari amalda mavjud?
2. Davlat pensiyalarini tayinlash tartibi qaysi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
3. Davlat pensiyalarini hisoblashning umumiyligi tartibi qanaqa?
4. Davlat pensiyalarini to'lash tartibi qanday?
5. Davlat pensiyalarini tayinlash, hisoblash va to'lash bo'yicha nazorat tadbirlarini aytib bering.

8-BOB. IJTIMOIY TA'MINOT TIZIMI BO'YICHA TO'LANADIGAN NAFAQALAR VA KOMPENSATSION TO'LOVLAR



Tayanch so'z va iboralar: *nafaqa; ish haqining yo'qotilishi bilan bog'liq nafaqalar; yoshga doir nafaqalar; nogironlik bo'yicha nafaqalar; boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi; vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi; homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa; bola tug'ilganda beriladigan nafaqa qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa; dafn etish marosimi uchun nafaqa; ishsizlik bo'yicha nafaqa.*

8.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan nafaqalar


Ijtimoiy ta'minotning shakllaridan biri – bu fuqarolarning ayrim toifalari va guruhlariga beriladigan ijtimoiy nafaqalar hisoblanadi. Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, hisoblash va to'lash ishlari tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Shuningdek, nafaqa to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ham turli manbalardan – jamg'armalardan moliyalashtiriladi.

Nafaqa tegishli davlat mablag'lari hisobidan obyektiv sabablarga ko'ra ish haqining yo'qotilganligi, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy jihatdan ta'minlash maqsadlarida tayinlanadi.

Nafaqa tegishli davlat mablag‘lari hisobidan obyektiv sabablarga ko‘ra ish haqining yo‘qotilganligi, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy jihatdan ta’minlash maqsadlarida tayinlanadi.

Ish haqining yo‘qotilishi bilan bog‘liq nafaqalarga vaqtinchalik ishga layoqatsizlik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq nafaqalar, homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik va boshqa shu kabi holatlar bo‘yicha to‘lanadigan nafaqalar kiradi.

Aholining ayrim guruhlarini *ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida tayinlanadigan nafaqalarga* bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa, qo‘sishimcha dam olish kuni uchun nafaqa, bola parvarishi bilan band bo‘lgan oilalarga nafaqalar, dafn marosimi uchun to‘lanadigan nafaqalar va boshqa to‘lovlar kiradi.



8.1-rasm. Ijtimoiy ta’mnot bo‘yicha tayinlanadigan nafaqalarning maqsadiga ko‘ra guruhanishi

Yoshga doir nafaqalar. Yoshga doir nafaqa ish stajiga ega bo‘limgan, shuningdek, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan 7 yildan kam ish staji mavjud bo‘lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo‘limgan shaxslarga: erkaklarga – 65 yoshga yetganlarida; ayollarga – 60 yoshga yetganlarida tayinlanadi⁴⁶.

Ish stajiga ega bo‘limgan shaxsga yoshga doir nafaqa mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlari, qarindoshlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta’minlashga majbur bo‘lgan boshqa shaxslar bo‘limgan taqdirda tayinlanadi. Pensiya jamg‘armasi bo‘limi tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda o‘tkazilgan tekshirishda ish stajiga ega bo‘limgan va yoshga doir nafaqa so‘rab murojaat etgan shaxsni ta’minlashga majbur bo‘lgan qarindoshlarining yoki boshqa shaxslarning moddiy nochorligi aniqlangan hollarda bu nafaqa uni so‘rab murojaat qilgan shaxsga moddiy yordam bera olmaydigan qarindoshlar yoki boshqa shaxslar bor bo‘lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin. Yoshga doir nafaqalarni to‘lash, yetkazib berish va qayta yuborish bo‘yicha xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Nogironlik bo‘yicha nafaqalar. Nogironlik nafaqasi nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, yoshidan qat’i nazar, ish stajiga ega bo‘limgan I va II guruh nogironlariga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sod qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘limgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom, 5-band.

muddatga yo‘qotilganda tayinlanadi va to‘lanadi⁴⁷. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo‘qotilganda) Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari yo‘llanmalari bo‘yicha Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaro mehnat faoliyatiga layoqatli emas yoki unga mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish mumkin emasligi (yoki zid ekanligi) belgilangan taqdirda TMEK mehnat qobiliyatining doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganligi to‘g‘risida tegishli xulosa chiqaradi. Nogironlik nafaqasi mehnatga layoqat yo‘qotilishining butun davri uchun tayinlanadi. Bu nafaqalarni to‘lash, yetkazib berish va qayta yuborish bo‘yicha xarajatlar ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘limgan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga layoqatli bo‘limgan a’zolariga boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi tayinlanadi⁴⁸. Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a’zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a’zosiga - nafaqaning 100 foizi;

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sон qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘limgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom, 9-band.

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sон qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘limgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom, 14-band.

– oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a’zosiga - nafaqaning 75 foizi;

– oilaning mehnatga layoqatsiz bir a’zosiga - nafaqaning 50 foizi.

Bu nafaqalar bo‘yicha xarajatlar ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa. Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan *eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida* beriladi. Ish haqiga koeffitsiyent qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida, magistratura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi. Bolaning onasi ishlamaydigan va o‘qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiydigan otasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga to‘lanadi. Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola tug‘ilganda nafaqa Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi. Farzandlikka olingan bolalarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o‘lik tug‘ilgan hollarda nafaqa to‘lanmaydi. Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan beriladi.

Qo‘srimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Bu nafaqa nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga bola 16 yoshga

to‘lgunga qadar davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to‘lagan holda oyiga qo‘sishimcha bir dam olish kuni beriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa. Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog‘ida bo‘lgan quyidagi oila a’zolari vafot etganda beriladi: turmush o‘rtog‘i; 18 yoshga to‘lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat’i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari; ota-onasi; bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a’zolariga yoki dafn o‘tkazishni o‘z zimmasiga olgan shaxslarga budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi tomonidan *eng kam oylik ish haqining uch baravari* miqdorida berilar edi⁴⁹. Bugungi kunda pensionerlar va boshqa fuqarolar ham vafot etgan taqdirda ularning oilasiga yoki dafn marosimini o‘tkazgan shaxsga *eng kam oylik ish haqining to‘rt barobari* miqdorida dafn etish nafaqasi to‘lanadi⁵⁰. Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi. Dafn etish marosimi uchun nafaqa budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan beriladi.

8.2. Ijtimoiy ta’midot va ijtimoiy himoya bo‘yicha davlat byudjetidan to‘lanadigan nafaqlar

Davlat byudjetining aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari ichida ijtimoiy nafaqlar asosiy o‘rinni egallaydi. Voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga aniq tarzda

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyundagi 174-som qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etishga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom”ning 89-bandiga ko‘ra.

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’moti to‘g‘risidag”gi Qonunning 63-moddasi.

ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish, respublika aholisining real daromadlari va farovonligi barqaror o'sishi sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida 2012-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli Qarori⁵¹ qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq, ijtimoiy nafaqalarni to'lashning aniq tarzdaligini oshirgan holda onalarga bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lashning va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamning amaldagi miqdorlari va muddatlari saqlab qolindi. Shu bilan birga, voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan bolalarning eng katta yoshi 14 yoshgacha pasaytirildi.

2013-yil 1-yanvardan boshlab voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar bolalar soniga bog'liq ravishda yil boshida belgilangan eng kam oylik ish haqining quyidagi miqdorlarida: bir nafar farzandi bo'lgan oilaga – 50 foizi; ikki nafar farzandi bo'lgan oilaga – 80 foizi; uch nafar va undan ortiq farzandlari bo'lgan oilaga – 100 foizi miqdorida to'lanadigan bo'ldi.

2013-yil 1-yanvardan boshlab nafaqalar va moddiy yordamning barcha turlari uchun oila muhtojligini aniqlashning yagona mezonini joriy etish hamda ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlashda jami daromadni hisoblab chiqish tartibi

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 50-son, 562-modda.

soddalashtirildi. Shuningdek, ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash tartibini birxillashtirish, ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun fuqarolar yig'inlari tomonidan vakolat berilgan komissiyalarning hamda ajratiladigan byudjet mablag'lardan aniq tarzda va maqsadli foydalanishni ta'minlash bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga biriktilgan bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining tuman (shahar) organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlash va to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldag'i 44-son qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom" bilan tartibga solinadi. Ushbu nizomga ko'ra bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam har bir oila a'zosiga o'rtacha oylik jami daromad miqdori jami daromad aniqlanayotgan davr uchun belgilangan eng kam oylik ish haqining 1,5 baravardan ortiq bo'limgan oilalarga tayinlanadi.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam olishda quyidagi toifadagi fuqarolar va oilalar ustun darajadagi huquqlarga ega:

- ota-onasining ikkisini ham yo‘qotgan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlar shug‘ullanayotgan oilalar;
- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ham nogiron bo‘lgan oilalar;
- 14 yoshgacha bo‘lgan ikki va undan ortiq bolalarmi tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlardan alohida yashayotgan beva ayollar (beva erlar);
- nogiron bolasi (bolalari) bo‘lgan oilalar;
- bolani (bolalarni) to‘liq bo‘lmanan oilada tarbiyalayotgan onalar (otalar). Bunda bolaning amalda to‘liq bo‘lmanan oilada ona (ota) tomonidan tarbiyalanishini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi belgilaydi;
- ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo‘lgan va ish izlovchi sifatida bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarida hisobda turgan oilalar;
- yolg‘iz pensionerlar.

Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam ariza beruvchining doimiy yashash (ro‘yxatdan o‘tish) joyi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan oila boshlig‘i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a’zosining yozma arizasi asosida, bola parvarishi bo‘yicha nafaqa esa – bolaning onasi yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsning arizasi asosida tayinlanadi.

Ariza beruvchining ehtiyojmandligi darajasini aniqlash va bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo‘yicha nafaqa va moddiy yordam tayinlash (rad etish) to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organida maxsus komissiya tashkil etiladi, uning

tarkibi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi raisi tomonidan 12 oy muddatga, kamida 5 kishidan iborat etib tasdiqlanadi.

Maxsus komissiya tarkibiga o‘zini o‘zi boshqarish organi maslahatchilari, kotibi, ushbu organ hududiga biriktirilgan tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi xodimi, shuningdek zaruriyat bo‘lganda, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari va moliya organlari vakillari kiritiladi.

Oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oylik jami daromad, nafaqa olish uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun hisoblab chiqilgan oilaning mehnatga layoqatli har bir a’zosining o‘rtacha oylik daromadi summasini oila tarkibiga kiritiladigan oila a’zolari soniga bo‘lingan holda aniqlanadi.

1, 2	<ul style="list-style-type: none">•mehnatga haq to‘lash shaklidagi daromadlar;•mulkiy daromadlar;
3, 4	<ul style="list-style-type: none">•yakka tartibdagi tadbirdorning daromadi;•chet elda ishlaydigan yoki tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirayotgan oila a’zolaridan pul tushumlari;
5, 6...	<ul style="list-style-type: none">•pensiylar, stipendiyalar va nafaqalar;•shaxsiy yordamchi (dehqon) xo‘jaligini yuritishdan olingen daromad va boshqa daromadlar.

8.2-rasm. Oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadlari tarkibi⁵²

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagisi 44-soni qarori bilan tasdiqlangan “Kamtominlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida nizom” asosida tuzildi.

O‘rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadiga, oila a’zolari tomonidan olingan quyidagi daromadlar kiritiladi:

Agar oilaning mehnatga layoqatli har bir a’zosining o‘rtacha oylik daromadlari to‘g‘risida taqdim etilgan ma’lumotlarda daromad summasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa yoki eng kam oylik ish haqining 2,5 baravaridan kam summa ko‘rsatilgan bo‘lsa, u holda oilaning o‘rtacha oylik jami daromadini hisoblash uchun daromadni normativdan past ko‘rsatgan yoki daromadi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etmagan oila a’zolarining har biriga nafaqa yoki moddiy yordamga murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 2,5 baravariga teng bo‘lgan normativ daromad miqdori qabul qilinadi.

Agar taqdim etilgan ma’lumotlarda shaxsiy yordamchi (dehqon) xo‘jaligini yuritishdan olingan o‘rtacha oylik daromad miqdori ko‘rsatilmagan yoxud shaxsiy yordamchi (dehqon) xo‘jaligini yuritishdan olinadigan belgilangan normativ daromaddan past ko‘rsatilgan bo‘lsa, u holda oilaning jami daromadini aniqlash uchun shaxsiy yordamchi (dehqon) xo‘jaligini yuritishdan olinadigan oylik daromadning normativ miqdori qabul qilinadi.

Shaxsiy yordamchi (dehqon) xo‘jaligini yuritishdan olinadigan normativ daromad shaxsiy yordamchi (dehqon) xo‘jaligini yuritish uchun foydalaniladigan sotixlar sonini nafaqa yoki moddiy yordam so‘rab murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 0,2 miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo‘yicha nafaqa, moddiy yordam tayinlash yoki uni tayinlashni rad etish to‘g‘risidagi qaror

fuqarolar yig‘ini (Komissiya) tomonidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Agar fuqarolar yig‘ini ishtirokchilarining (Komissiya a’zolarining) oddiy ko‘pchiligi qarorni yoqlab ovoz bersa u qabul qilingan hisoblanadi.

Tegishli nafaqalar va moddiy yordamni to‘lash Xalq bankining bo‘linmalarida (filiallarida) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining maxsus bank hisobraqamlariga o‘tkaziladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining tegishli iqtisodiy tasnifi bo‘yicha aks ettirilgan holda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

8.3. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha boshqa manbalardan to‘lanadigan nafaqalar

Yuqorida ta’kidlanganidek, ijtimoiy ta’midot bo‘yicha beriladigan nafaqalar turli davlat boshqaruv organlari tomonidan tayinlanadi va turli manbalardan moliyalashtiriladi. Bu manbalar qatorida ish beruvchilarning mablag‘lari, Davlat bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha jamg‘armalari ham mavjud.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi. Ushbu nafaqa quyidagi hollarda beriladi:

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda);
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

- kasallangan oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a’zo (protez) qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.
- Umumiy qabul qilingan hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa ishlovchi xodimlarga quyidagi miqdorlarda to‘lanadi:
 - umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo‘lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag‘ir) yetimlarga - ish haqining 80 foizi miqdorida;
 - umumiy ish staji 8 yilgacha bo‘lgan xodimlarga - ish haqining 60 foizi miqdorida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqaning ish haqining 100, 80, 60 foizi miqdorida to‘lanadigan boshqa holatlari ham mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 1-apreldagi 21-sun Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” bilan belgilangan. Umuman, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo‘lmasligi lozim. Shuningdek, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar 2007-yil 1-yanvardan boshlab:

- budjet tashkilotlari tomonidan –s mehnat haqi jamg‘armasiga ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan – foyda solig‘ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa. Homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta’tili sifatida ayollarga tuqquniga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda – 70 kalendar kun) ta’til beriladi. Bu nafaqani tayinlash va to‘lash uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo‘ladi hamda ushbu nafaqa ko‘rsatilgan barcha davr uchun to‘lanadi. Xodim bolani parvarishlash uchun ta’tilda bo‘lgan vaqtda unga yana keyingi homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta’til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta’til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o‘rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo‘lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsiyenti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi. Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi. Ushbu nafaqa ham, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa kabi, 2007-yil 1-yanvardan boshlab: budget tashkilotlari tomonidan – mehnat haqi jamg‘armasiga ajratiladigan budget mablag‘lari doirasida; xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - foyda solig‘ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ishsizlik bo'yicha nafaqa. Qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingen fuqarolarga ishsizlik bo'yicha nafaqa beriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida 16 yoshga to'limgan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori 10,0 foizga oshiriladi. Ish haqiga koeffitsiyentlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga tayinlanadigan ishsizlik nafaqasi miqdorlari ularning shu joylarda yashagan davri uchun mazkur joyda noishlab chiqarish tarmoqlarining xodimlariga belgilangan koeffitsiyentni qo'llagan holda aniqlanadi. Ishsizlik nafaqasi Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasining quyidagi turlari farqlanadi:

- birinchi marta ish qidirayotganlar shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi;
- uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi.

Birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga mo'ljallangan ishsizlik nafaqasi ilgari ishlamagan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash yoki ishga joylashish imkoniyati berilmagan taqdirda, ularda qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining kamida 75,0 foizi miqdorida nafaqa to'lash kafolatlanadi.

Uzoq tanaffusdan keyin ish qidirayotgan shaxslarga mo‘ljallangan ishsizlik bo‘yicha nafaqa uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan ishsiz fuqarolarga to‘lanadi. Bu quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

– mutaxassisligi bo‘lgan shaxslar uchun, shuningdek, 12 oy mobaynida haq to‘lanadigan ish bilan bandligi 12 kalendar haftadan kam bo‘limgan shaxslar uchun, agar ularning ishga joylashishi uchun kasbga qayta o‘rgatish yoki malakasini oshirish talab qilinmasa, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidagi oz bo‘limgan miqdorda;

– boshqa hollarda, shu jumladan, mutaxassisligi bo‘limgan shaxslarga, mahalliy mehnat organi tomonidan kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyati berilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 75,0 % miqdorida.

Ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

– ishsiz shaxs zarur kasb malakasiga ega bo‘limganligi tufayli unga ma’qul keladigan ish tanlash mumkin bo‘lmasa;

– ishsiz shaxsning kasb ko‘nikmalariga mos keladigan ish yo‘qligi sababli uning kasbini o‘zgartirish zarur bo‘lsa;

– ishsiz fuqaro avvalgi kasbi bo‘yicha ish bajarish qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa.

Ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish o‘quv yurtlarida mehnat organlarining yo‘llanmalari bo‘yicha Davlat bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan nafaqa. Nafaqaning bu turi mulkchilik shaklidan va xo‘jalik yuritish usulidan qat’i nazar, ish beruvchilar korxonada (tashkilotda) mehnat shartnomasi tuzish asosida yollanib mehnat qiluvchi xodimlariga to‘lanadigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, bir yo‘la beriladigan nafaqa hisoblanadi. Xodim ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa yoki boshqa xil shikastlanish tufayli sog‘lig‘iga zarar yetganda, shuningdek, u kasb kasalligiga chalinish tufayli salomatligi yomonlashganda, ish beruvchi unga bir yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘limgan miqdorda bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim vafot etgan taqdirda ish beruvchi uning qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga olti yillik o‘rtacha ish haqidan kam bo‘limgan miqdorda nafaqa to‘laydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli sog‘lig‘iga zarar yetgan yoki vafot etgan xodim qaramog‘ida bo‘lgan fuqarolarga nafaqa to‘lash shartlari va tartibi, nafaqaning aniq miqdori tegishli qonun hujjatlarida, jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarida, boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalda bo‘lgan ijtimoiy ta’midot tizimida nafaqalarning turlari va to‘lash manbalari turlicha bo‘lishi, ular turli davlat boshqaruvi idoralari orqali amalga oshirilishi, turli manbalardan moliyalashtirilishi bilan tavsiflanadi. Ayrim nafaqalar davlat byudjetidan moliyalashtirilsa, boshqalari Pensiya jamg‘armasidan, uchinchilari – Bandlikka ko‘maklashuvchi jamg‘arma mablag‘laridan to‘lab beriladi. Shuningdek, nafaqalarni tayinlash va to‘lash jarayoni turlicha me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Ijtimoiy nafaqalarning mohiyati nimada va ular qanday vazifani bajaradi?
2. Ijtimoiy nafaqalarni qanday mezonlarga ko‘ra guruhlash mumkin?
3. Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash qaysi me’yoriy hujjalalar bilan tartibga solinadi?
4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan to‘lanadigan nafaqalarni tayinlashning umumiy tartibi qanaqa?
5. Ijtimoiy ta’midot va ijtimoiy himoya bo‘yicha to‘lanadigan qanday nafaqalar davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi?
6. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lanadigan nafaqalarning moliyalash manbalarini aytib bering.
7. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy ta’midotini yaxshilashga qaratilgan qanday chora-tadbirlar belgilangan va ular hozirgi kunda qanday darajada amalga oshirilmoqda?

9-BOB. AHOLIGA UYDA IJTIMOIY YORDAM KO'RSATISH SHAKLLARI, USULLARI VA MOLIYALASHTIRISH MANBALARI



Tayanch so‘z va iboralar: *o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolar; uyda xizmat ko‘rsatish; yolg‘iz qariya; mehnatga layoqatsiz fuqaro; ijtimoiy xodimlar; homiylik yordami; halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari; front ortida xizmat qilgan shaxslar.*

9.1. O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatish shakllari va usullari. Yolg‘iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatlarining asosiy vazifalari

Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta’minot xarajatlari tarkibiga o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatish xarajatlari ham kiradi.

O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatish “Yolg‘iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati” tomonidan tashkil qilinadi. Ushbu xizmat tuman va shahar Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va yolg‘iz fuqarolarga xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlardan tashkil topadi.

Ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari bilan birgalikda uyida o‘zgalar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz fuqarolarni aniqlash va hisobini yuritish;
- yolg‘iz fuqarolarga homiylik yordamlarini ko‘rsatish maqsadida ularning ilgari ishlagan mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan aloqalarini olib borish;
- yolg‘iz fuqarolarni internat-uylariga joylashtirish uchun ko‘maklashish.

Tuman yoki shahar bo‘yicha Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatida qayd etilgan yolg‘iz fuqarolarga ushbu bo‘linmaning ijtimoiy xodimlari tomonidan bevosita quyidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi:

- zarur oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari va dori-darmonlarni uygaga yetkazib berish;
- uy-joy ashyolari va kiyim-kechaklarni yuvish, kimyoiviy tozalashga topshirish, ta’mirlash va ularni yetkazib berish;
- zarur tibbiy yordam ko‘rsatish ishlarida, uy-joyni tozalashda, xonodon ichidagi santexnik jihozlarni ta’mirlashda ko‘maklashish;
- qarindosh va do’stlar bilan yozishmalar olib borish bilan bog‘liq iltimoslar va boshqa turdag‘i bir martalik topshiriqlarni bajarish.

Tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari o‘zlarida ro‘yxatda turuvchi yolg‘iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ishlari bo‘yicha har haftalik monitoring olib boradi va ijtimoiy xodimlarning xizmat ko‘rsatish faoliyatiga baho beradi. Shuningdek, Markazlar yolg‘iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha har chorak yakunida

tegishliligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalariga, ular esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ma’lumot taqdim etib boradi.

9.2. O‘zgalar parvarishiga muhtoj va ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan yolg‘iz fuqarolar ro‘yxati

O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish haqidagi Nizom⁵³ bilan Ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan yolg‘iz fuqarolar toifalari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra yolg‘iz fuqarolarning quyidagi toifalari uyda xizmat ko‘rsatish uchun qabul qilinadi:

– sog‘lig‘iga ko‘ra o‘zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari bilan birga yashamaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II-guruh nogironlari, keksa yoki I va II-guruh nogironi bo‘lgan er-xotinlar;

– o‘zgalar parvarishiga muhtoj, voyaga yctmagan yoxud I va II-guruh nogiron farzandlari bilan birga yashaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II-guruh nogironlari, keksa yoki I va II-guruh nogironi bo‘lgan er-xotinlar;

⁵³ O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 1-iyuldaggi 38-B-son buyrug‘iga ilova

– o‘zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari jazo muddatini o‘tayotgan yoki uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan (ruhiy, sil va boshqa kasalliklar) davri mobaynida pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II-guruh nogironlari, keksa yoki I va II-guruh nogironi bo‘lgan er-xotinlar;

– farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari hamda homiylari yoki vasiylari bo‘limgan va qonunchilikka asosan bepul eng zarur mollarni olish imtiyozidan foydalananayotgan o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlar.

Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar, halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolari, front ortida xizmat qilgan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga birinchi navbatda qabul qilinadi.

Yuqumli hamda ruhiy kasallikkarga chalingan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish uchun qabul qilinmaydi.

Yolg‘iz fuqarolarning shaxsiy ro‘yxatlari tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ishtirokida aniqlanib ro‘yxatga olinadi va tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga qabul qilish quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- fuqaroning shaxsiy arizasi;
- fuqaroning yolg‘iz yashayotganligini tasdiqlovchi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan ma’lumotnomasi;

- tibbiy muassasaning (yolg‘iz fuqaroning yashash joyidagi poliklinikalar, shifokorlar maslahat komissiyasi, qishloq vrachlik punktlari xulosalari yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining (TMEK) o‘zgalar parvarishiga muhtojligi to‘g‘risidagi xulosasi;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda o‘tkazilgan yolg‘iz fuqarolarning uy-joy maishiy sharoitlarini o‘rganish dalolatnomasi.

Tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga qabul qilingan har bir yolg‘iz fuqaroga shaxsiy hujjatlar yig‘majildini yuritadi va unda pasport nusxasi, agarda u nogiron bo‘lsa, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi bo‘lishi lozim. Yolg‘iz fuqaroning arizasiga asosan yoki uni internat-uylariga, shifoxonaga joylashtirilganda, vafot etganda va boshqa hollarda xizmat ko‘rsatishdan chiqariladi.

9.3. Aholiga uyda xizmat ko‘rsatish xizmatlarini tashkil etish va moliyalashtirish

Yolg‘iz fuqarolarning shaxsiy ro‘yxatlari tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ishtirokida aniqlanib ro‘yxatga olinadi va tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati ijtimoiy xodimlari lavozimi ushbu bo‘linmaning shtat jadvalida:

- qishloq joylarida - 6-8 nafar yolg‘iz fuqaroga I ta lavozim;
- shahar joylarida - 8-10 nafar yolg‘iz fuqaroga I ta lavozim hisobida belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlarning shtatdagi soni ushbu me’yorlarga muvofiq tuman(shahar)da ijtimoiy yordam ko’rsatish xizmati tomonidan ro‘yxatga olingan va xizmat ko‘rsatiladigan yolg‘iz fuqarolar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlar maxsus xo‘jalik sumkalari (bir yilga bitta sumka), xalat (bir yilga bitta xalat) hamda xonalarni tozalash uchun inventar bilan ta’minlanadi.

Ijtimoiy xodimlarning lavozim-maoshlari ijtimoiy ta’minot xodimlari uchun o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan mehnatga haq to‘lash tarif setkasiga muvofiq belgilanadi.Ijtimoiy xodimlarga yo‘l haqi uchun kompensatsiya to‘lovleri qonunchilikda belgilangan miqdorlarda joriy qilinadi.

Ijtimoiy yordam ko’rsatish xizmatining ta’minot xarajatlari o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan ijtimoiy ta’minotga ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.Smeta xarajatlarida ijtimoiy yordam ko’rsatish xizmati faoliyatini amalga oshirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, kantselyariya jihozlari va boshqa inventarlarga bo‘lgan ish beruvchilarning ajratmalari hamda o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorlarda eng zarur mollarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘zda tutiladi.

Quyida keltirilgan jadvalda amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida belgilangan eng zarur mahsulotlarning natural me'yorlari keltirilgan (9.1-jadval):

9.1-jadval

**O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga beriladigan
bepul eng zarur mahsulotlar me'yori⁵⁴**

Mahsulotlar nomi	Natural me'yor
Un	2 kg.
Yog‘	0,5 kg.
Makaron	250 gr.
Go‘sht	1 kg.
Guruch	800 gr.
Shakar	800 gr.
Choy	100 gr.
Tuxum	10 dona
Kir sovun	1 dona

Ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatining ta’minot xarajatlari o‘rnatalgan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan ijtimoiy ta’minotga ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi. Smeta xarajatlarining asosiy qismini ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati faoliyatini amalga oshirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, xarajatlar tarkibida “Boshqa xarajatlar” guruhiga kiruvchi

⁵⁴ Bandlikka ko‘malkashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazi ma'lumotlari asosida.

o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz pensionerlar uchun eng zarur mahsulotlarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘zda tutilgan.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatish qanday shakllarda va usullarda amalga oshiriladi?
2. Yolg‘iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zgalar parvarishiga muhtoj va ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan yolg‘iz fuqarolar tarkibiga tegishli me’yoriy hujjatlarga muvofiq kimlar kiradi?
4. Aholiga uyda xizmat ko‘rsatish xizmatlarini tashkil etish va moliyalashtirish tartibi qanday?
5. Xorijiy davlatlarda yolg‘iz fuqarolarga uyda xizmat ko‘rsatishning qanday shakllari va usullari mavjud, ular qanday tashkil qilingan?

10-BOB: XORIJY MAMLAKATLARDA IJTIMOIY TA'MINOT ASOSLARI



Tayanch so‘z va iboralar: *ijtimoiy himoya instituti; o‘rtacha umr ko‘rish; hayot kechirishning ijtimoiy mezonlari; kambag‘allikdan himoya qilish; kafolatlangan daromad; sug‘urtaviy pensiya; iqtisodiy faol aholi; shaxsiy sug‘urtaviy pensiya dasturlari; norasmiy ish haqlari.*

10.1. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta’mintoning shakllanishi va xususiyatlari

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy himoya institutining bir bo‘g‘ini sifatida pensiya tizimi vujudga keldi. Insonlarning o‘rtacha umr ko‘rishi, mehnatga layoqatlilarga nisbatan aholi sonining sezilarli o‘sayotganligi hamda hayot kechirishning ijtimoiy mezonlari to‘xtovsiz o‘sayotganligi sababli ijtimoiy siyosatning barcha sohalarida, jumladan, pensiya ta’minoti tizimidagi jarayonlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Pensiya tizimi ijtimoiy himoyaning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotda mazkur tizim muhim funksiyalarni bajaradi, birinchidan, qarilik chog‘ida kambag‘allikdan himoya qiladi, ikkinchidan, mehnat faoliyatini tugashi bilan kafolatlangan daromadni taqdim etib, ish haqiga bog‘liq ravishda ma’lum qiymatga ega bo‘ladi, uchinchidan, mazkur daromad kelajakda inflyatsiya natijasida turmush farovonliginng pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Mamlakatimizda 1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan davlat pensiyalarining yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya turlari belgilangan. Mazkur pensiya ta’minoti tizimi doirasida yoshga doir pensiyani takomillashtirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko‘proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarda xalqimizning o‘rtacha yoshi 1990-yildagi 67 yoshdan bugungi kunga kelib 73,5 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 75,8 yoshga yetdi⁵⁵.

Ta’kidlash lozim, pensiya yoshidagi aholining oshib borishi bilan pensiya ta’minoti tizimida har tomonlama o‘ylangan islohotlarni amalga oshirish lozim. Bu borada sinovdan o‘tgan ilg‘or tajribalarni tadqiq etish va shu asosda chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, pensiya tizimini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini tadqiq etish, ularning o‘ziga xos tajribalarini hisobga olgan holda sohani rivojlantirishning yangicha metodologik asoslarini yaratish zaruriyati tug‘iladi.

Qayd etish lozim, pensiya ta’minotining muhim xususiyatlardan biri – majburiy va ixtiyoriy shakllarga ajratilishida. Pensiya ta’minotining majburiy shakllari taqsimot va jamg‘armaviy uslubiyatlar orqali namoyon bo‘lsa, ixtiyoriy pensiya ta’minoti shaxsiy yoki ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tizimni o‘zida ifoda etadi. Pensiya ta’minoti tizimining bunday guruhlarga ajratishning asosiy

⁵⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom etirish – bosh maqsadimizdir. Xalq so‘zi 06.12.2014.

sabablaridan biri – bu ijtimoiy himoyani tashkil etish va uning funksiyalari bajarilishi yuzasidan vujudga kelgan. Boshqacha aytganda, Beverij va Bismark modellarining xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Tadqiqotlar asosida ta'kidlash mumkinki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida shakllantirilgan pensiya ta'minoti tizimini ikki yirik modelga ajratish mumkin (10.1-jadval):

10.1-jadval

Pensiya ta'minoti tizimining muhim xususiyatlari⁵⁶

	Sug'urtaviy tizim	Universal tizim
Ta'minlanganlik darajasi	Standart	Minimal
Pensiya ta'minoti shakli	Avvalgi shakllantirilgan daromadlarga asoslangan pensiya	Avvalgi daromadlarga asoslangan pensiya
Moliyalashtirish	Sug'urta asosida	Soliqlar asosida
Pensiya ta'minotidan foydalanishning dastlabki sharti	Sug'urta muassasasiga a'zolik	Mamlakatda yashash yoki fuqarolik
Tashkiliy shakli	O'z-o'zini boshqaruvchi sug'urta fondlari	Davlat muassasalari

- pensiya ta'minotining (milliy) universal tizimi;
- sug'urta munosabatlari asosida shakllantirilgan sug'urtaviy pensiya tizimi.

Qayd etish lozimki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ijtimoiy soha byudjetining 60 foiz mablag'lari sug'urta ajratmalari hisobidan shakllanadi⁵⁷.

⁵⁶ Old age in Europe. Luxemburg, 2011. P.5.

Bu esa o‘z o‘rnida, pensiya ta’minotini amalga oshirishda ijtimoiy sug‘urta munosabatlarining shakllanganlik darajasini anglatadi. Sababi, xorijiy tajribada ijtimoiy soha faoliyatini tashkil etishda sug‘urta munosabatlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Qolaversa, pensiya ta’minotini ijtimoiy sohaning yirik bo‘g‘inlaridan biri ekanligi hamda uning rivojlanish bosqichlari borasida turli fikrlar mavjud.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug‘urtaviy pensiya ta’minoti tizimi quyidagi tamoyillar asosida shakllandi:

- iqtisodiy faol aholini sug‘urtalash;
- pensiya to‘lovlarini ishchilar va sug‘urtalanganlarning sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtirish;
- amalga oshirilayotgan pensiya to‘lovlarining sug‘urtalanuvchining avvalgi daromadlari va sug‘urta stajiga bog‘liqligi.

Ushbu mexanizmdan Yevropaning Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Gretsiya kabi mamlakatlarida keng foydalanildi.

Mazkur mamlakatlarda pensiya ta’minoti tizimi yagona kontsepsiya asosida faoliyat yuritsa-da, ularning ba’zi farqli jihatlari mavjud. Xususan, molishlashtirish, tashkiliy tuzilma va funksional vazifalari shular jumlasidandir. Shu boisdan, sug‘urtaviy pensiya modeli Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida aralash shakllarda namoyon bo‘ladi. Masalan, taqsimlash (majburiy sug‘urta pensiyasi), qo‘srimcha pensiya dasturlari (Fransiya va Ispaniya) taqsimot pensiya tizimi shaklida amalga oshadi, to‘lovlnarni kapital qo‘yilmalarga yo‘naltirish (Niderlandiya).

⁵⁷Ижасва А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автореф. ... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ..2013. – 31 с.

Mohiyatan bir-biridan farqli tarzda yuzaga kelgan bo'lsada, lekin amaliyotda ular o'zaro aralash holda ham amalga oshadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ushbu ikki modelning integratsiyasini kuzatish mumkin. Jumladan, bir qator mamlakatlarda universal pensiya ta'minoti tizimlari vujudga kelib, amalga oshayotgan tub iqtisodiy o'zgarishlar sug'urtaviy pensiya ta'minotining yuzaga kelishiga imkon bermoqda. Yoki qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimining majburiy (Buyuk Britaniya) shakli joriy etilishi kabilar bunga misol bo'ladi.

10.2. Ijtimoiy ta'minotning markaziy bo'g'ini sifatida – pensiya ta'minoti

Jahon tajribasida hech bir davlatda to'liq jamg'ariladigan yoki to'liq taqsimlanadigan pensiya ta'minoti mavjud emas. Qayd etish lozim, barcha pensionerlarning yashash minimumini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni takomillashtirish natijasida pensiya ta'minotining umumiylikka ega bo'layotganligini ko'ramiz.

Umuman olganda, jahon tajribasida pensiya ta'minoti tizimi nazariy jihatdan ikki yirik guruhga ajratiladi⁵⁸:

1. O'rnatilgan to'lov tizimi (Defined Benefit - DB).
2. O'rnatilgan badal tizimi (Defined Contribution - DC).

O'rnatilgan to'lov tizimida pensiya ta'minoti ishtirokchilari muayyan hajmdagi pensiya va nafaqalar bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. Mazkur holatda to'lov miqdori aktuar hisoblar yordamida

⁵⁸ Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автореф. ... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ., 2013. – 31 с.

oxirgi yildagi mehnat faoliyati uchun ish haqlari va oldingi staji asosida hisoblanadi. Pensiya to‘lovi pensionerning umri davomida annuitet shaklda amalga oshirilib boriladi.

O‘rnatilgan badal tizimida pensiya to‘lovining miqdori oldingi to‘langan badallarning hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Bu borada, ushbu turdagи pensiya fondining mablag‘laridan investitsion faoliyat yordamida olingan daromadlar ham pensiya miqdorini oshirishi mumkin yoki aksincha. Mazkur tizimda har bir ishtirokchi alohida hisobraqamga ega bo‘ladi va unda badallar jamg‘arib boriladi. Ushbu tizimning farqli xususiyatlaridan biri pensiya to‘lovlarini olishda riskning mavjudligidir.

Fikrimizcha, pensiya ta’minoti tizimi funksiyalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatda yaratilgan iqtisodiy qiymatni taqsimlash (o‘rnatilgan to‘lov tizimi), jamg‘arish (o‘rnatilgan badal tizimi) jarayonlari yuzaga keladi. Shu boisdan, pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishda mazkur unsurlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar asosida ta’kidlash lozimki, pensiya ta’minotini quyidagi klassifikatsiya yordamida yanada oydinlashtirish mumkin:

- davlat majburiy pensiya ta’minoti;
- qo‘srimcha pensiya ta’minoti tizimi, xo‘jalik subyektlari tomonidan ishchi-xodimlari uchun pensiya sug‘urtasini to‘lash orqali yuzaga keladi;
- shaxsiy sug‘urtaviy pensiya dasturlari.

Qayd etib o‘tilgan uch tabaqali pensiya ta’minoti tizimi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun xarakterli bo‘lib, ularni tashkil etuvchi quyidagi tamoyillarni qayd etish mumkin:

- pensiya ta’minoti tizimining aholini qamrab olish miqyosi;

- pensiya to‘lovlarini olishda mavjud bo‘lgan shartlar;
- moliyalashtirish manbalari va tamoyillari.

Masalan, hozirgi kunda Buyuk Britaniyada pensiya ta’minoti xizmatining aholini qamrab olish darajasi quyidagicha⁵⁹:

- davlat majburiy pensiya ta’minoti – 65 foiz;
- qo‘srimcha pensiya ta’minoti tizimi (xo‘jalik subyektlari tomonidan ta’minlanadigan pensiya sug‘urtasi) – 25 foiz;
- shaxsiy sug‘urtaviy pensiya ta’minoti – 10 foiz.

Pensiya ta’minotining muhim jihatlaridan biri – bu aholini qamrab olish miqyosi. Shu boisdan, universal pensiya ta’minoti tizimi mamlakatda doimiy istiqomat qiluvchi aholini ta’minlanishini nazarda tutsa, bundan tashqari, Daniya va Niderlandiya kabi davlatlarda nafaqat doimiy yashovchi o‘z fuqarolarini, balki doimiy yashovchi boshqa davlat fuqarolarini ham yashash davrida qamrab olishni ko‘zda tutadi.

Tadqiqotlar natijasida ta’kidlash mumkinki, pensiya ta’minoti aholini qamrab olishi nuqtayi nazaridan uch qismga bo‘linadi: birinchidan, pensiya sug‘urtasi faqat shartnoma asosida faoliyat ko‘rsatuvchi kishilarni nazarda tutadi (Daniya va Shvetsiya). Ikkinchidan, shartnoma asosida ishlovchilardan tashqari, o‘z xususiy faoliyatiga ega bo‘lganlarni qamrab oladi (Avstriya, Italiya va Niderlandiya). Uchinchidan, barcha band bo‘lgan aholini pensiya ta’minotini o‘zida ifoda etuvchi tizim (Fransiya, Buyuk Britaniya va Shvetsiya).

⁵⁹ Волков Я Моделирование пенсионных реформ и оценка неявного пенсионного долга//Вопросы экономики. –Москва, 2009. – №4. – С. 113-127.

Fikrimizcha, pensiya ta'minoti tizimini mamlakatdagi pensionerlarni qamrab olishida ba'zi murakkabliklar yuzaga keladi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mehnatga layoqatli aholining o'lim ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi;
- aholining mehnatga layoqatsiz qismining katta ulushni tashkil etishi;
- davlat majburiy pensiya tizimi bo'yicha imtiyozlarning (asosan yoshga nisbatan) sezilarli darajada ko'p bo'lishi;
- mehnatga layoqatli aholining doimiy ish joyiga ega bo'lishida muammolarning yuzaga kelishi;
- iqtisodiyotda norasmiy ish haqlarining sezilarli darajada ko'payib ketishi.

Keltirilgan birinchi ikki muammoning vujudga kelishida ijtimoiy sohaning boshqa bir bo'g'ini – sog'liqni saqlash tizimi muhim rol o'ynaydi. Boshqacha aytganda, optimal tibbiy xizmatlarni rivojlantirish natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi uzayadi. Bu esa o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimida amaliy tadbirlarni joriy etishni taqozo etadi.

Nederlandianing salomatlik instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, vazni og'ir va zararli odat (spirtli ichimliklar iste'mol qilish, tamaki mahsulotlari chekish va shu kabi)larga ega bo'lgan kishilar bunday jihatlari bo'lмаган sog'lom kishilarga nisbatan iqtisodiyot uchun mos ravishda 46-91 ming AQSh dollari miqdorida kam xarajatli bo'ladi. Sababi, ular pensiya yoshiga yetmay vafot etishlari yuqori, davlatning tibbiy xizmatlaridan foydalanmasligi kabi

omillar bilan izohlanadi⁶⁰. Ushbu ko'rsatkich masalaning bir jihatni bo'lsa, ikkinchidan demografik muammolarni yuzaga keltiradi. Ya'ni mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatning ortishiga olib keladi. Mazkur muammolar natijasida Yevropada ushbu nisbat 1:1,5 (mehnatga layoqatlilar / pensionerlar)ni tashkil etadi. Uchinchidan, o'rtacha umr ko'rish davomiyligining bir yilga uzayishi YaIMga nisbatan xarajatlarni 1 foizga ortishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ushbu mablag'larning 75 foizi inson umrining oxirgi yillarda tibbiy xizmatlar uchun sarflanadi⁶¹.

Pensiya ta'minoti tizimining qamrab olish miqyosini oshirish uchun amalga oshirilgan tadbirlarni keng ko'lamli shaklda isloq qilishni taqozo etmoqda. Xususan, aholi sog'ligi ko'rsatkichlarini oshirish, sog'lom turmush-tarzini shakllantirish byudjet mablag'larning oshishi bilan bog'liq bo'lsa, buning natijasida umr ko'rishning 1 yilga uzayishi pensiya yoshiga yetgan aholining soni oshishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z o'mida, pensiya yoshidagi aholining ham moddiy ehtiyojlarini, ham tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabini ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Qayd etilgan murakkabliklarni barataraf etishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bir qator choralarini qo'llamoqda. Xususan, Buyuk Britaniya 2008-yil fevralda qabul qilingan "Sog'liqni saqlash" kodeksiga ko'ra "mas'uliyat mezoni" joriy qilindi. Unga ko'ra, zararli odatlar va shu kabi sog'liqqa keskin ta'sir o'tkazuvchi omillar natijasida kasallanganlarga oxirgi navbatda tibbiy xizmat ko'rsatilishi tatbiq etildi.

⁶⁰ Данишевская И.В. Модели создания пенсионного капитала за рубежом//Бизнес. Образование. Право, Вестник Волгоградского института бизнеса, - 2010. - №3 (13). - С. 43-52.

⁶¹ Каледин А., Горелик О. От здоровых людей сплошной вред//Известия. - Москва, 2008 (8 февраль). - №22. - С.9.

Sog'liqni saqlash tizimida davlat xarajatlarini jismonan sog'lom insonlarga yo'naltirishni nazarda tutdi. Bundan ko'zlangan maqsad, pensionerlarning turmush-tarzi sifatini oshirishdir⁶².

Qayd etish lozim, iqtisodiy tangliklar keskinlashayotgan bir vaziyatda mehnat bozorida nobarqarorliklar yuzaga kelmoqda. Natija ish bilan band bo'lganlarning doimiy yoki to'liq ishga ega bo'lmayotganligi pensiya ta'minoti fondlariga ijtimoiy to'lovlardan dinamikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi 15dan ortiq mamlakatlarda vaqtinchalik ishga ega bo'layotganlar 25 foizni tashkil etsa, to'liqsiz ish kunida ishlovchilar ulushi esa 20 foizni tashkil etmoqda⁶³. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta fondlariga kelib tushuvchi mablag'larning kamayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, pensiya ta'minoti tizimida davlat xarajatlari ulushining o'sish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Masalan, shartli pensiya hisobraqami tizimi amal qiluvchi Italiya, Polsha va Shvetsiya kabi davlatlarda davlat xarajatlarining keskin o'smayotganligini kuzatamiz. Bunda mavjud pensiya ta'minoti institutining shakllanganligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar sezilarli darajada yuz berayotganligi pensiya ta'minoti qamrovi miqyosiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Ba'zi Yevropa Ittifoqi davlatlarida pensiya yoshiga yetgandan so'ng ham ish faoliyatini davom ettirish holatlariga ruxsat berilgan. Bu esa, pensiya yoshidan o'tgandan keyingi mehnat faoliyati pensiya miqdorini

⁶² Каледина А., Горелик О. От здоровых людей сплошной вред//Известия. – Москва, 2008 (8 февраль). - №22. – С.9.

⁶³ Хмыз О.В. Пенсионная реформа и демографическая ситуация//Финансы и кредит. – Москва, 2008. - №30(318). – С.54-61.

oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalaning ikkinchi jihatni, ba'zi hollarda mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'tasidagi nisbatning oshishiga sabab bo'ladi.

Qayd etish lozim, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tug'ilishlar sonining sezilarli kamayishi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining uzayishi natijasida pensiya ta'minoti tizimida murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Xususan, Yevropada 65 yoshdan oshganlar aholining 16 foizini tashkil etsa (2013-yil yanvar holatiga 18,2 foiz⁶⁴), BMTning tadqiqotlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 2030-yilgacha 25-foizga, 2050-yilga borib esa 28 foizga yetadi. Hozirgi kunda Yevropada 65 yoshdan oshgan har bir kishiga 4 ta mehnat qiluvchilar to'g'ri kelsa, 2050-yilga borib mazkur raqam Buyuk Britaniyada 2,4 ni, Fransiyada 2,3 ni tashkil etsa, Germaniya va Italiyada bir muncha murakkab vaziyat yuzaga kelib, mos ravishda 2 va 1,5 ni tashkil etadi⁶⁵.

Pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshini oshirish orqali ba'zi muammolarni hal etish tendentsiyalari EI mamlakatlarida kuzatilmoqda. Xususan, Fransiya quyi palatsi tomonidan tasdiqlangan pensiya islohotlarida pensiya yoshi 2018 yilga borib 60 dan 62 ga oshirilishi belgilandi. Bu bilan esa, to'liq pensiya olish huquqi 65 dan 67 ga yetkaziladi⁶⁶.

1960–2000-yillar mobaynida Yevropa Ittifoqida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 4 yilga uzaygan bo'lsa, 2060-yilgacha bo'lgan davrda ushbu ko'rsatkich erkaklarda 8,5 yilni, ayollarda 6,9 yilni tashkil etadi. Shuningdek, tug'ilishlar soni har bir ayolga to'g'ri keluvchi 2,1 ta tug'ilish mezonidan ham kam bo'lmoqda. Masalan, ushbu ko'rsatkichning eng yuqori darajasi Fransiyada 2,0 ni tashkil etmoqda. EI bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 1,4 bo'lmoqda.

⁶⁴ Dynamic Social Security for Europe: A social model for recovery and growth // Social Policy Highlight. Geneva: International social security association, 2010. - № 11. - P. 2.

⁶⁵ Eurostat regional yearbook 2014. P. 30.

⁶⁶ <http://dx.doi.org/10.1787/888932907927> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari⁶⁷ (YaIMga nisbatan foizda)

t/r	Mamlakat	2010	2015	2020	2030	2040	2050	2060
1.	Avstriya	14,1	14,4	15,1	16,7	16,5	16,4	16,1
2.	Belgiya	11,0	11,9	13,1	15,5	16,5	16,7	16,6
3.	Chexiya	9,1	8,6	8,7	8,9	9,7	11,0	11,8
4.	Daniya	10,1	10,4	10,8	10,7	10,3	9,6	9,5
5.	Estoniya	8,9	7,8	7,7	8,2	8,1	8,0	7,7
6.	Finlyandiya	12,0	12,8	14,0	15,6	15,2	14,9	15,2
7.	Fransiya	14,6	14,4	14,4	14,9	15,2	15,1	15,1
8.	Germaniya	10,8	10,5	10,9	12,0	12,7	13,0	13,4
9.	Gretsiya	13,6	14,1	13,7	14,1	14,9	15,4	14,6
10.	Vengriya	11,9	11,9	11,5	11,1	12,1	13,5	14,7
11.	Irlandiya	7,5	8,3	9,0	9,0	10,0	11,4	11,7
12.	Italiya	15,3	14,9	14,5	14,5	15,6	15,7	14,4
13.	Lyuksemburg	9,2	9,9	10,8	14,0	16,5	18,1	18,6
14.	Niderlandiya	6,8	6,8	7,4	9,1	10,4	10,4	10,4
15.	Polsha	11,8	10,7	10,9	10,9	10,3	10,0	9,6
16.	Portugaliya	12,5	13,3	13,5	13,2	13,1	13,1	12,7
17.	Slovakiya	8,0	8,1	8,6	9,5	10,6	12,2	13,2
18.	Sloveniya	11,2	11,8	12,2	13,3	15,8	17,9	18,3
19.	Ispaniya	10,1	10,4	10,6	10,6	12,3	14,0	13,7
20.	Shvetsiya	9,6	9,7	9,6	10,1	10,2	9,9	10,2
21.	Buyuk Britaniya	7,7	7,4	7,0	7,7	8,2	8,2	9,2

EI mamlakatlarida yuzaga kelayotgan bu kabi murakkabliklar ijtimoiy sohada moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga ta'sir etmoqda. Bu esa o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimiga davlat

⁶⁷ Недосекин А., Могилко С.. Реформирование системы пенсионного обеспечения: мировой опыт: <http://pensionreform.ru/58599> - интернет манбаси асосида тайёрланган.

xarajatlari hajmini oshishiga olib kelmoqda. Xususan, pensiya yoshidagi aholining jamiga nisbatan ulushi oshayotganligi tizimda nobarqarorlik omilini aks ettirsa, ikkinchi tomondan yoshi katta aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji 2 barobardan ziyod oshadi. Bu esa, ijtimoiy sohaning rivojlanishida kompleks moliyaviy islohotlarni talab etadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilgan holda shuni ta’kidlash kerakki, pensiya ta’mnoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda belgilanadigan pensiya yoshi eng muhim ko’rsatkichlardan biridir. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan ushbu tizimda o’tkaziladigan islohotlarga nisbatan aholining sezuvchanligi oshib boradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy himoyaning mazkur yo‘nalishida yangi metodologik uslublardan foydalanish yoki qo’shimcha ijtimoiy himoya mexanizmlarini joriy etish zarurati tug‘iladi.

Pensiya ta’mnoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda quyidagi omillarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

1. Pensiya ta’mnoti bilan qamrab olish ko’rsatkichlari (qamrov ko’rsatkichi).
2. Pensiya ta’mnoti to‘lovlarining moslashuvchanligi (inflyatsiya va sotib olish qobiliyatini inobatga olgan holda).
3. Pensiya fondlariga badallarni to‘lovchilarning ulushlariga mos ravishda to‘lovlarni amalga oshirish.
4. Pensiya ta’mnoti tizimida daromadlar olishni diversifikatsiyalash (davlat va xususiy sug‘urtaviy).

O‘zbekistonda pensiya ta’mnoti tizimining majburiy shakllari amal qiladi. Bunda davlat pensiya ta’mnoti va fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’mnoti institutlarini qayd etish zarur. Davlat

pensiya ta'minotiga ish haqiga ega bo'lgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badali stavkasini optimal darajada belgilashda xalqaro tajribadan foydalanish muhim. Bunda mavjud muammolarning yuzaga kelish shart-sharoitlari va omillarini inobatga olib qo'shimcha chora-tadbirlarni joriy etish lozim. Boshqacha aytganda, pensiya ta'minoti tizimini aholini qamrab olish darajasi ko'rsatkichlarini rivojlantirish dolzarblik kasb etadi.

Shu bilan birga, pensiya ta'minoti tizimi qamrab olish imkoniyatlarini baholash uning jozibadorligini oshiruvchi ko'rsatkichlarga alohida e'tiborni qaratish lozim, deb o'yaymiz. Bu esa o'z o'rnila, tizim faoliyatini yanada aniq shakllantirish va takomillashtirishga sharoit yaratuvchi tizimning baholash mezonlari bilan izohlanadi. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy himoyaning minimal mezonining xalqaro standartlarini inobatga olish;
- majburiy ijtimoiy sug'urta rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni tizimlashgan holda hal etish;
- majburiy ijtimoiy sug'urtaning huquqiy-me'yoriy bazasining to'liqligi va barqarorligi;
- sug'urta tariflarining ilmiy asoslanganligi;
- sug'urta badallarining yig'iluvchanligini oshirish;
- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'lovlarini amalga oshirishdagi uzilishlarning bo'lmasligi;
- belgilangan pensiya miqdorini manfaatdor tomonlar tomonidan tekshirish imkonining mavjudligi;

– majburiy ijtimoiy sug‘urta zaxirasining asoslanganligi va foydalanish samaradorligi.

10.3. Xorijiy davlatlar ijtimoiy ta’minotini tashkil etish va fuqarolarning ijtimoiy ta’minotini amalga oshirishdagi ilg‘or tajribalar va ulardan O‘zbekistonda foydalanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, jamg‘ariladigan pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag‘larini uzoq muddatga joylaydi, xususiy va davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalardan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat. Ekspertlarning hisob-kitobi bo‘yicha, qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to‘lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag‘lar o‘sha qimmatli qog‘ozlarni hozirgi real qiymati bo‘yicha sotilgandan so‘ng fuqarolarga pensiya ko‘rinishida qaytariladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli kapital yetishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjudligi sharoitida xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi budgetning ijtimoiy ta’minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Jahon tajribasidan ma’lum bo‘ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish yetarli samara bermaydi. Hozirgi kunda

pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o‘zida uch yo‘nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o‘zining ish beruvchilariga qo‘sishimcha pensiya berish fondlarini shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiya fondlarini tashkil qilish yo‘nalishlari tobora ko‘proq ma’qullanmoqda. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Italiya kabi mamlakatlarda shu tajribalardan foydalaniladi.

Pensiya bilan ta’minalashni xususiy lashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarni safarbar etishning ichki imkoniyatlarini orttiradi. Kapital bozorining tobora rivojlanishi pensiya fondlari mablag‘larini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarni qo‘llash uchun juda muhim. Shu tarzda davlat, jamg‘ariladigan va xususiy pensiya ta’mnoti tizimlari moliyaviy asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiq bo‘ladi hamda bozor sharoitlariga ayniqsa mos keladi.

Jamg‘ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta’minalash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to‘lovlari uchun mablag‘lar ishlovchilarining pensiyaga chiqqunga qadar bo‘lgan ish haqidan, shuningdek, to‘langan badallari miqdoriga hisoblangan foizlar hisobiga ko‘payadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida, davlatning sug‘urtaviy pensiya tizimidan farqli ravishda, jamg‘arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidan foydalanish amaldagi pensiya tizimi

muammolarini kamaytirish va fuqarolarning qo'shimcha pensiya bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Xorijiy davlatlarda mamlakat pensiya tizimini umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

– davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq bo'lib, pensiyalarni to'lash ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;

– majburiy jamg'arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg'arma stajini "to'plagan" fuqarolar uchun davlat budgetidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi;

– to'la kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan, individual hisobraqamlarni yuritish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.

Birinchi ikki holatda davlat keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Xorijiy davlatlarida moliyaviy bozorning ma'muriy imkoniyatlari yetarli darajada rivojlangan, davlat va jamg'ariladigan pensiya fondlari faoliyatini tartibga solish va nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bizning mamlakatimizda ikki xil: "avlodlar birdamligi" va jamg'ariladigan pensiya tuzilmalarining tarafdarlari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ijtmoiy himoya institutini takomillashtirishda, dastlab moliyaviy islohotlarga e'tiborni qaratish

muhim. Bu borada esa, pensiya ta'minoti tizimi sohaning yetakchi bo'g'inalidan biri bo'lib hisoblanadi.



Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning shakllanishi tarixiga oid nimalarni bilasiz?
2. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Tibbiyot sug'urtasi – ijtimoiy ta'minot shakli sifatida.
4. Xorijiy davlatlarda kambag'allikka qarshi kurash.
5. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy xizmatlar turlari.
6. Jamiyat tarkibining xilma-xilligi va ijtimoiy ta'minot.
7. Iqtisodiy inqirozlar va jtimoiy ta'minot.
8. Xorijiy davlatlar ijtimoiy ta'minotini tashkil etish va fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini amalga oshirishdagi ilg'or tajribalar nimalardan iborat va ulardan O'zbekistonda foydalanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari qanday?

GLOSSARIY

A

Aholi – Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson) lar majmui. Aholini tadqiq etish bilan maxsus fan – demografiya shug'ullanadi.

B

Bandlik – aholini ish bilan ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi – Pensiya jamg'armasi mablag'i hisobidan har oyda beriladigan to'lovlardan iborat bo'lib, uning miqdori vafot etgan boquvchining ish haqiga, uning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari soniga bog'liq. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qibiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi;

Byudjet – (ingl. budget – hamyon, mablag') – belgilangan muddat uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi.

Byudjet tashkiloti – Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot.

Byudjet tizimi byudjetlari – O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari.

Byudjet tasnifi – byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo‘lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi.

Byudjetlararo transfertlar – O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan mablag‘lar.

Byudjetdan moliyalash – davlat byudjetdan davlat buyurtmalarini amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish, davlat tashkilotlarini saqlash (ta’minlash) bilan bog‘liq xarajatlarga pul mablag‘lari ajratish.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar – davlatning davlat byudjetiga kiritmaydigan va aniq maqsadlarga mo‘ljallangan pul mablag‘lari.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari – jamg‘arma daromadlari yagona ijtimoiy to‘lovning belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning sug‘urta badallari, korxona va tashkilotlarning majburiy ajratmalarini va boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining xarajatlari – jamg‘armaning mablag‘laridan ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash, pensionerlarga davlat pensiyalarini to‘lash, davlat pensiya ta’minoti huquqiga ega bo‘lmagan keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniadi.

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yohud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.

V

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri – ish davrida boshlangan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri davomiyligi ushbu ish joyi bo‘yicha beriladigan ma’lumotnomalar bo‘yicha belgilanadi.

G

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqr tanglik holatlarining vujudga kelishi.

D

Davlat byudjeti – davlatning muayyan vaqt (odatda, bir yil) uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat

moliyasingin bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkiban umum davlat byudjeti va mahalliy byudjetga bo‘linadi.

Davlat moliyaviy nazorati – byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslash.

Davlat qarzi – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatları.

Davlat qimmatli qog‘ozlari – byudjet kamomadlarini qoplash maqsadlarida hukumat yoki mahalliy hokimiyat idoralari nomidan chiqarilgan va albatta, hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog‘ozlar.

Daromad – keng ma’noda kirim bo‘lgan har qanday pul mablag‘lari yoki pul qiymatiga ega bo‘lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy subyekt o‘z faoliyati natijasiga ko‘ra oladigan pul va tovar – moddiy tushum. Daromad pul va moddiy shaklga ega bo‘lib, ularning yig‘indisi jami daromadni hosil qiladi.

Yo

Yoshga doir pensiya – bu fuqaroning avvalgi davrlardagi mehnat faoliyati uchun yoshi va mehnat stoji hisobga olingan holda umrbod moddiy ta’minalash uchun Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qaytarib olmasliklari sharti bilan muntazam ravishda to‘lab turiladigan to‘lovlardir.

Yoshga doir pensiya olish huquqi – yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil

bo‘lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar.

J

Jamg‘arma – aholi, korxona va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to‘planib borishi. Jamg‘armalar – 1) xarajatlardan, chiqimlardan orttirib, tejab to‘plangan pul; 2) kelgusidagi ehtiyojlar uchun daromadning bir qismini ajratib qo‘yish; 3) doimiy badallar va reinvestitsiya yo‘li bilan kapital qo‘yilmalarni pul ko‘rinishida jamlash; 4) pul va moddiy vositalarni ma’lum bir maqsad yo‘lida foydalanish uchun jalb etish (masalan, pensiya jamg‘armasi, investitsiya jamg‘armasi); 5) ma’lum bir faoliyat turiga, kishilarning muayyan ijtimoiy guruhiga ko‘maklashish maqsadida tuzilgan tashkilot; 6) aktsiyalar nazorat paketini qo‘lga kiritish maqsadida, narxiga ta’sir etmagan holda ularni doimiy ravishda sotib olish.

I

Imtiyozli pensiya ta’minoti – tegishli asoslar mayjud bo‘lganda fuqarolarni odatdagidan qulayroq shartlarda (belgilanganidan oldinroq yoki kamroq mehnat staji talab etilgani holda va va h.k.z.) pensiya bilan ta’minalashga oid qonunchilik tizimi.

Ish bilan band bo‘lgan shaxsning ish staji – O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida Pensiya jamg‘armasi bo‘limining sug‘urta badallari to‘langanligini tasdiqlaydigan ma’lumotnomasi bo‘yicha belgilanadi.

Ish haqi — shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqi.

Ish staji – mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o‘qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo‘yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat’i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta’minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiy davomiyligi.

Ish staji to‘liq bo‘lмаган чоғ‘даги pensiya – pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo‘lмаган umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish staji uchun pensiyalarning oshirilishi – pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to‘liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari yoshga doir pensiyalar-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

Ish staji uchun I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalarning oshirilishi – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a’zosi uchun-boquvchining o‘rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyenti – tegishli oy uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqining aynan shu oy uchun eng kam oylik ish haqi nisbati sifatida aniqlanadigan miqdor.

Inflatsiya – (lot. Inflatio – shishish, bo‘rtish, ko‘tarilish), pulning qadrsizlanishi – tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo‘jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog‘oz pullar miqdorining ko‘payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta’milangan pullarning paydo bo‘lishi.

Iqtisodiy faol aholi – milliy xo‘jalikda band bo‘lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholi. Ular iqtisodiy jihatdan faol va tegishli faoliyatda qatnashishi mumkin, biroq, daromad oladigan manbalari kam yoki mablag‘lari yo‘qligi tufayli bu faoliyatni amalga oshira olmaydilar.

Ijtimoiy ta’minot – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog‘i.

Ijtimoiy himoya – keng ma’noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma’noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’milangan tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rliги.

Ijtimoiy yordam – davlat va jamiyatning qariligi, sog‘lig‘i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli ta’milangan tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to‘g‘risida g‘amxo‘rliги. Ijtimoiy yordam pensiyalar, nafaqalar to‘lash, kam ta’milangan oilalarga moddiy yordam

ko'rsatish, 16 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimi ijtimoiy sug'urtani bildiradi.

Ijtimoiy nafaqa – muayyan sabablarga ko'ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lмаган va doimiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

M

Maxsus ish staji – xalq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi;

Maxsus ish stajining tasdiqlanishi – teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari va jamoalarining artistlari ayrim toifalarining imtiyozli pensiya ta'minoti olish huquqini beradigan maxsus ish staji mehnat daftarchasi bilan tasdiqlanadi.

Mehnat daftarchasida zarur ma'lumotlar mavjud bo'lмаган hollarda maxsus ish staji – kasb (lavozim)ning nomi, bajariladigan ishning janrga mansubligi, xususiyati yoki ish kechgan tashkilotning maqomi to'g'risida mehnat daftarchasida zarur ma'lumotlar mavjud bo'lмаган hollarda maxsus ish staji ushbu shaxsga nisbatan ma'lumotlar mavjud bo'lган ish joyidan berilgan ma'lumotnomaga bilan tasdiqlanadi;

Mehnat daftarchasi – ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjat hisoblanadi;

Modernizatsiya, modernizatsiyalash, modernizatsiya qilish (frants. moderne – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Monitoring – (ingl. monitoring – kuzatish, nazorat qilish) – ma’lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Investitsiya loyihibarini moliyalashtirish sohasida qo’llaniladigan monitoring berilgan ssuda (qarz)ni qoplash va unga foiz to‘lash jarayonining borishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo‘ladi.

N

Nafaqa – muhtoj odamlarga davlat, korxona, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli. O‘zbekiston Respublikasida mehnat stajiga ko‘ra beriladigan pensiyadan farqli holda nafaqa davlat tomonidan, asosan, bolalikdan nogiron, yolg‘iz qariya va yolg‘iz nogironlarga, mehnatga vaqtinchalik qobiliyatsizlarga, homilador va tuqqan ayollarga, 3 yoshgacha bo‘lgan bolalari tarbiyasi bilan band bo‘lgan ayollarga, ishsizlarga, kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalarga beriladi.

Nogironlik – kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat mehnat qobiliyatini yo‘qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi.

Nogironlik pensiyasi – mehnat qobiliyatini amalda uzoq muddatga yoki butunlay yo‘qotish munosabati bilan tayinlanadi.

P

Pensiya (lot. pension – to‘lov) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to‘lanadigan to‘lovlari. Ijtimoiy ta’minot shakli hisoblanadi.

Pensiya miqdori – ish stajining muddatiga bog‘liq bo‘lib, pensiyaning tayanch miqdoridan, ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan, pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi.

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi – ular asosida pensiya so‘rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi.

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi turadigan joy – pensiya olish joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi.

Pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etish – pensiya tayinlash, pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish, pensiyaning bir turidan boshqa turiga o‘tkazish, shuningdek ilgari to‘xtatib qo‘yilgan (to‘xtatilgan) pensiya to‘lashni belgilangan tartibda tiklash (qayta tiklash) to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limiga ariza berish.

Pensiya jamg‘armasi – aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy bazani yaratish, pensiya va nafaqalarni qonunda belgilangan miqdorlarda to‘lashni mablag‘ bilan ta’minlashni amalga oshiradigan jamg‘arma.

S

Sug‘urta – 1) tabiiy ofatlar, har xil baxtsiz hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamlari to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tizimi; 2) yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqeа (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

T

Taktika – belgilangan maqsadga erishish uchun ishlataladigan vosita va usullar majmuasi.

Tartibga solish (iqtisodiy) – bu iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining yo‘nalishlarini aniqlash, yo‘lga qo‘yish va ma’lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo‘naltirilgan harakat.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) – hayot faoliyati cheklanganligini ekspertizadan o‘tkazish, nogironlik guruhini, sabablari, boshlangan vaqt va muddatlarini aniqlash bo‘yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari.

U

Uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning ayrim toifalariga imtiyozli pensiya ta’minoti huquqini beradigan maxsus ish stoji – uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar uchun – tegishli tashkilot tomonidan berilgan

uchilgan soatlarni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi. Uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiramidan ayrim xodimlarning sinov texnikasini sinashda bandligi tashkilotlar tomonidan berilgan ma'lumotnomalar bilan tasdiqlanadi.

F

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, apatriidlar – muayyan mamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar. Shaxs o'z fuqaroligini yo'qotgan va yangidan fuqarolik huquqini olmagan vaqtida fuqarosizlik kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga mo'ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi.

X

Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti – harbiy xizmatchilarni, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi qonun hujjalari bilan belgilanib, bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

Ch

Chet elda ishlash davrlari bo'yicha ish staji – O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan bo'lsa, qo'shib hisoblanadi.

Sh

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i – fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarining jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobvaraqla kelib tushadi hamda unda hisobga olinadi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish – jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari fuqaroning pesporti asosida ochadi.

Shaxsning yakka tartibdag'i ish haqi koefitsiyenti – ishdagi mavjud tanaffuslaridan qat'i nazar, (pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning tanlashiga ko'ra), mehnat faoliyatining oxirgi o'n yili mobaynidagi istalgan ketma-ket oltmish oyidan har bir oyi uchun aniqlanadi, bunda shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqi tegishli oydag'i eng kam oylik ish haqi miqdoriga bo'linadi.

Ya

Yangi nikohdan o'tilganida pensiyani saqlab qolish – er (xotin)ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya pensioner yangi nikohdan o'tganida ham saqlanib qoladi.

Yashash joyi – turar joy, kvartira, xizmat turar joyi, ixtisoslashtirilgan uylar (yotoqxona, pansionat, yolg'iz keksalar uchun maxsus uy, nogironlar, faxriylar uchun internat uy va boshqalar), shuningdek pensiya uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs ijara olish shartnomasi (ikkilamchi ijara), ijara shartnomasi yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha mulkdor sifatida doimiy yashaydigan (doimiy ro'yxatdan o'tgan) boshqa turar joy, doimiy yashash joyi mavjud bo'limgan (doimiy ro'yxatdan o'tmagan) taqdirda – vaqtincha yashash (vaqtincha ro'yxatdan o'tish) joyi.

O'

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

tayinlanadigan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tasdiqlaydigan Vazir boshchilik qiladi. Moliya vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekistonning Davlat gerbi tasvirlangan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki – Aktsiyadorlik tijorat Xalq banki O‘zbekistonning qadimiy banklaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 1995-yil 4-oktyabrdagi qaroriga asosan “O‘zjamg‘armabank” Davlat-tijorat Xalq banki etib qayta tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruva uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4720-sonli Farmoniga asosan bank nomi “Aktsiyadorlik tijorat Xalq banki” nomiga o‘zgartirildi. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan fuqarolarning davlat pensiya ta’minotiga qo‘srimcha tariqasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Xalq banki yagona, o‘z filiallarini bir-biri bilan bog‘lovchi va yetarlicha himoyalovchi elektron baza yaratish uchun ko‘p ishlarni amalga oshirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi – idoraviy jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari – Moliya vaziriga, Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlarini va boshqa to‘lovlarни tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to‘lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga

yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil yetishni amalga oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo‘lмаган shaxslarga chet eldagи ish staji – O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasidagi ishga to‘g‘ri keladigan stajning uchdan biridan ortiq bo‘lмаган doirada kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanish (kontrakt) bo‘yicha chet eldagи ish staji – O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan mehnat daftarchalariga kiritiladigan yozuvlar bo‘yicha aniqlanadi.

Q

Qoramol yetishtirish, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan shaxslarga mehnat staji – agar mazkur shaxs ushbu kalendar yilning kamida 9 oyi mobaynida badallar to‘lagan bo‘lsa pensiya tayinlash uchun ish stajiga to‘liq kalendar yil qo‘shib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007-yil 25-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-avgustdag'i PF-4822-son "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minot tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4161-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-sentabrdagi "Pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3921-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 7-dekabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3521-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagи “Pensiya va nafaqalarnи to‘lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2826-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1251-sonli Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1252-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-martdagи “Toshkent metropolitenida pensionerlarni bepul tashish to‘g‘risida”gi 128-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-fevraldagи “Chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 46-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 13-fevraldagи “Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yagona ijtimoiy to‘loymi hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi 26-sonli Qarori.

16.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘limgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-sonli Qarori.

18.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-sonli Qarori.

19.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 24-martdagagi 52-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi Qarori.

20.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi 490-sonli “Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori.

21.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi 444-sonli “O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

22.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagagi 391-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasining tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

23.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari” nomli 328-sonli Qarori.

24.Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. 119-b.

25.O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.

26.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

27.Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta’minoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 232 b.

28.Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К°», 2009. – 576 с.

29.Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: “Noshir”, 2012.–712b.

30.Sirojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – Toshkent: “infoCom.UZ” MChJ nashriyoti, 2010. – 367 b.

31.Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.

32.Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004.

33.Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013.

34. Nuritdinova V.Sh. Sharapova M.A. Molivayi nazorat (o'quv qo'llanma) – T.: «Iqtisod-moliya» 2013.

35. BMT buyurtmasiga ko'ra Sustainable Development Solutions Network tashkiloti tomonidan Xalqaro baxt kuni – 20 martga atab tayyorlangan baxt bo'yicha Jahon hisoboti.

36. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. – B. 185-186.

37. World Bank Population Estimates and Projections (2014).

38. Pensions at a Glance. 2015. OECD AND G20 INDICATORS. – P. 218, 251, 256, 284, 289, 325, 343, 362.

39. OECD Global Pension Statistics and Annual Survey of Public Pension Reserve Funds. <http://dx.doi.org/10.1787/888933301280>.

40. OECD (various years), Taxing Wages; OECD (2013), Revenue Statistics; Social Security Administration, United States (various years), Social Security Programs throughout the World; OECD pension and tax models.

41. Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – Toshkent: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.

42. E.Philip Davis. Pension Funds: Retirement-Income Security and Capital Markets: An International Perspective. Print ISBN-13: 9780198293040. Published to Oxford Scholarship Online: March 2012. – P. 2-3.

43. Pan-European Pensions Guide. Requirements for the operation of cross-border pension arrangements. A Ius Laboris publication. Produced by the Pensions International Practice Group. 2nd Edition. Printed: July 2011.

44. Pensions at a Glance 2015. OECD and G20 indicators. OECD (2015), Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing, Paris.

45. Begalov B.A. Pensiya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'llari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. 3-b.

46. Умурзаков Б.Х. Социальные и демографические особенности совершенствования пенсионного обеспечения Узбекистана. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezsilar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod moliya", 2017. 5-9-b.

47. Vaxabov A.V. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. 11-16-b.

48. Ziyadullayev M.J. Pensiya ta'mnotinidagi islohotlar va yaratilgan interaktiv xizmatlar. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. 19-21-b.

49. Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. 2017-yil 14-mart. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. 72-74-b.

50. Internet saytlari:

- <http://pfuru.uz>;
- <http://uza.uz.>;
- <https://www.cia.gov.>;
- http://ec.europa.eu/finance/pensions/iorp/index_en.htm.;

- [http://www.hrsdc.gc.ca/en/isp/common/hrsdc/ris/rismain.shtml.;](http://www.hrsdc.gc.ca/en/isp/common/hrsdc/ris/rismain.shtml.)
- [http://delo.ua/world/v-evrosojuze-povysit-pensionnyy;](http://delo.ua/world/v-evrosojuze-povysit-pensionnyy)
- [http://www.sos.;](http://www.sos.)
- [http://www.cga.ct.gov;](http://www.cga.ct.gov)
- [http://ec.europa.eu/finance/pensions/iorp/index_en.htm;](http://ec.europa.eu/finance/pensions/iorp/index_en.htm)
- [www.towerswatson.com;](http://www.towerswatson.com)
- [http://www.old.rcb.ru;](http://www.old.rcb.ru)
- [http://dx.doi.org.](http://dx.doi.org)

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

1-BOB: IJTIMOIY TA'MINOTNING MOHIYATI,

ZARURLIGI VA AHAMIYATI

1.1. Ijtimoiy ta'minotning mohiyati, zarurligi, ijtimoiy ta'minot bo'yicha konsepsiyalar, ularning mazmuni.....	7
1.2. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining turlari.....	13
1.3. Ijtimoiy ta'minotning funksiyalari.....	15

2-BOB: IJTIMOIY TA'MINOT BORASIDAGI DAVLAT

SIYOSATI

2.1. Ijtimoiy ta'minot borasidagi davlat siyosati, mazmuni, asosiy vazifalari va yo'nalishlari.....	18
2.2. Mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy ta'minoti va ularga ijtimoiy yordam berish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va olib borish. Keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.....	21
2.3. Pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan ijtimoiy sug'urta mablag'laridan samarali foydalanish. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlarni berish ishlarini muvofiqlashtirish.....	28

2.4. Davolash-mehnat ekspertizasini tashkil etish. Pensiylar, ularning turlari. Pensiylar bo'yicha imtiyozlar.....	33
2.5. Pensiya miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.....	37

3-BOB: IJTIMOIY TA'MINOTNING HUQUQIY ASOSLARI

3.1. Ijtimoiy ta'minot huquqi to'g'risida tushuncha, ijtimoiy ta'minot huquqining guruhanishi.....	42
. 3.2. Ijtimoiy ta'minotning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyası – fuqarolar ijtimoiy ta'minotining qonuniy kafolati sifatida.....	46
. 3.3. Ijtimoiy ta'minot huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish va mustahkamlash.....	49

4-BOB: IJTIMOIY TA'MINOT SHAKLLARI

4.1. Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish shakllari, ularning guruhanishi.....	57
4.2. Pensiylar, ijtimoiy nafaqalar, turli kompensatsion to'lovlar.....	58

5-BOB: IJTIMOIY TA'MINOTNING MOLIYAVIY

MANBALARI

5.1. Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbalari, ularning guruhanishi.....	69
5.2. Ijtimoiy su'g'urta – ijtimoiy ta'minotning moddiy-moliyaviy asosi sifatida.....	74
5.3. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining davlat budjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanishi.....	79

5.4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi – pensiya ta’minotining moliyaviy manbasi.....	83
5.5. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug‘urta budjeti mablag‘lari.....	86

6-BOB: PENSIYA TA’MINOTI – IJTIMOIY TA’MINOTNING SHAKLI SIFATIDA

6.1. Pensiya ta’minotining mohiyati, zarurligi va davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati.....	91
6.2. Turli mamlakatlarda milliy pensiya tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi.....	96
6.3. Pensiya ta’minotining holatini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkishlar.....	106
6.4. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining rivojlanish bos- qichlari.....	109

7-BOB: DAVLAT PENSIYALARINING TURLARI, ULARNI TAYINLASH, HISOBBLASH VA TO‘LASH TARTIBI

7.1. Davlat pensiyalarining turlari.....	117
7.2. Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlnarni moliyalashtirish.....	124

8-BOB. IJTIMOIY TA’MINOT TIZIMI BO‘YICHA TO‘LANADIGAN NAFAQALAR VA KOMPENSATSION TO‘LOVLAR

8.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan to‘lanadigan nafaqalar.....	133
--	-----

8.2. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya bo'yicha davlat byudjetidan to'lanadigan nafaqalar.....	138
8.3. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha boshqa manbalardan to'lanadigan nafaqalar.....	144

9-BOB. AHOLIGA UYDA IJTIMOIY YORDAM KO'RSATISH SHAKLLARI, USULLARI VA MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

9.1. O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish shakllari va usullari. Yolg'iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatlarining asosiy vazifalari.....	151
9.2. O'zgalar parvarishiga muhtoj va ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar ro'yxati...	153
9.3. Aholiga uyda xizmat ko'rsatish xizmatlarini tashkil etish va moliyalashtirish.....	155

10-BOB: XORIJIY MAMLAKATLARDA IJTIMOIY TA'MINOT ASOSLARI

10.1. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning shakllanishi va xususiyatlari.....	159
10.2. Ijtimoiy ta'minotning markaziy bo'g'ini sifatida – pensiya ta'minoti.....	163
10.3. Xorijiy davlatlar ijtimoiy ta'minotini tashkil etish va fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini amalga oshirishdagi ilg'or	

tajribalar va ulardan O‘zbekistonda foydalanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari.....	173
GLOSSARIY	177
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	193

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60^a.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60^a.